

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
A K A D E M I Y A

G. S. TASTANBEKOVA

# HUQUQNI SHARHLASH

*O‘QUV QO‘LLANMA*

TOSHKENT – 2016

**T a q r i z c h i l a r :**

yuridik fanlar nomzodi, dotsent *M. K. Najimov*;  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent *N. P. Azizov*

**Tastanbekova G. S.**

T 25        **Huquqni sharhlash:** O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016. – 93 b.

Qo‘llanmada **huquqni sharhlashning mohiyati, mazmuni, usullari, turlari va hajmi, huquqni tatbiq etishda sharhlashning o‘rni va roliga** oid masalalar yoritilgan.

Qo‘llanma davlat va huquq nazariyasi hamda konstitutsiyaviy huquq fanlarini o‘zlashtirishda yordam beradi va mavjud adabiyotlarni to‘ldirishga xizmat qiladi.

Tinglovchi-kursantlar, bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari, katta ilmiy xodim izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchilar va yuridik ta’lim muassasalarining o‘qituvchilariga, mutaxassislarga, shuningdek davlat va huquq nazariyasi, konstitutsiyaviy huquq fanlarini o‘rganuvchi barcha kitobxonlarga mo‘ljallangan.

**BBK 67ya73**

## SO‘Z BOSHI

Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish ijtimoiy hayotning barcha sohalari, ayniqsa siyosiy, iqtisodiy jabhalari, jamiyat va davlat boshqaruvi organlarining faoliyatini isloh qilish orqali amalga oshirilmoqda. Xususan, normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, to‘g‘ri va samarali qo‘llash huquqiy tizimni rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. Shu bois ushbu qo‘llanmada O‘zbekiston Respublikasi yuridik amaliyotida qonunchilik hujjatlarini sharhlash faoliyati, uning huquqni amalga oshirish jarayoniga ta’siri, huquqni qo‘llash jarayonida normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlash, ularning asl ma’nosini anglash va tushuntirish mexanizmini yoritishga harakat qilingan.

Buning sababi mavjud yuridik o‘quv adabiyotlarida, qolaversa ilmiy adabiyotlarda ham «huquqni sharhlash» tushunchasining mohiyati, huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishga ta’siri, huquq ijodkorligi va huquqni qo‘llash faoliyati uchun ahamiyati, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida huquqiy hujjatlarni sharhlashning o‘ziga xos jihatlari va boshqa bir qator masalalar aniq yoritilmagan. Xususan, huquqiy tizim taraqqiyotining hozirgi bosqichida amaldagi qonunlarning to‘g‘ri va aniq qo‘llanishi ularning to‘g‘ri va to‘liq sharhlanishiga bog‘liqligi, buning uchun huquq tizimi sohalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar yetarli darajada emasligi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda noaniqliklar ko‘pligi, qonunchilik texnikasida kamchiliklarga yo‘l qo‘yilayotgani va boshqa sabablar yetarli ko‘rsatib berilmagan.

Shu bois ushbu qo‘llanmada huquqiy hujjatlarni sharhlashning xususiyatlari, uning natijalarini amaliyotga tatbiq etish haqida yaxlit tasavvur hosil qilishga harakat qilingan. Huquqni sharhlash nazariyasining ushbu jihatlari yuzasidan o‘tkazilgan tadqiqotlar asosida yuridik amaliyotning samaradorligini oshirishga, talabga muvofiq va amaliy ta’sir kuchiga ega normativ asos yaratish uchun imkon beradigan huquqiy sharhlash haqida yaxlit tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Bu boradagi bilimlar esa huquqiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish va mamlakatni modernizatsiya qilish hamda taraqqiy ettirishni ta’minlashga xizmat qiluvchi huquqshunoslar bilimini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

## KIRISH

Huquqni qo‘llash murakkab va serqirra jarayon bo‘lib, u orqali huquqiy normalar muayyan ijtimoiy munosabatlarga ta‘sir ko‘rsatadi. Ma‘lumki, qonun chiqaruvchi uchun jamiyatda yuz beradigan barcha munosabatlarni qonun tilida ifodalash ma‘lum bir qiyinchiliklar tug‘diradi. Shu bois u eng umumiy holatlarnigina qonun orqali ifodalaydi. Shunday ekan, huquq subyekti xulq-atvor qoidalarini qo‘llash jarayonida boshqa maqbulroq yuridik vositalardan foydalanishi lozim bo‘ladi.

Huquqni sharhlash – ana shunday vositalardan biridir. Binobarin, huquq ijodkorligi faoliyatini ham, huquqni qo‘llash faoliyatini ham huquqni sharhshsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

«Ayrim qonunchilik hujjatlarining yo‘qligi, borlarining ham goho noto‘g‘ri, qonunga xilof tarzda talqin qilinishi ba‘zi qonunlarning samara bermayotganiga sabab bo‘lmoqda. Qonunchilikning mavjud tartibotidagi jiddiy kamchilikni ana shunda deb bilaman»<sup>1</sup>, – degan edi bu masalada respublikamizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov. Aynan huquqni sharhlash huquq normalarini hayotga to‘g‘ri tatbiq etish uchun ularning asl vazifasi va talablarini aniqlash imkonini beradi. Bunda huquq normasining maqsad va mazmuniga muayyan mezonlar asosida baho beriladi. Huquq normalarini hayotga tatbiq etuvchi subyektlar ularning to‘g‘ri qo‘llanilishiga erishish uchun huquqiy tartibga solish sohasidagi faktlarga mustaqil baho berish orqali mazkur normalarni sharhlaydi, bu esa huquqni qo‘llashga ijodiy yondashuvni ifodalaydi.

Binobarin, ba‘zan yuridik adabiyotlarda boshqacha fikr bildirilsa-da, aslida, huquqni sharhlash yuridik amaliyot uchun zarur faoliyatdir. U tegishli sharoitlarda unga ma‘lum darajada barqarorlik bag‘ishlaydi, ayrim hollarda esa normativ-huquqiy rasmiyatchilik natijasida yuzaga keladigan ziddiyatlarni bartaraf etishga imkon beradi. Chunki, formal muayyanlik huquqqa aniqlik bag‘ishlasa, huquqni sharhlash moslashuvchanlik va harakatchanlik baxsh etadi.

Huquqni sharhlash huquqni qo‘llash amaliyotida ham, nazariya darajasida ham qonun hujjatlarining takomillashuviga xizmat qiladi. Bunga huquq normalaridagi kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish yuzasidan taklif va tavsiyalar berish orqali erishiladi.

---

<sup>1</sup> *Каримов И. А. Ҳозирги босқичда демократик ислохотларни чуқурлаштиришнинг муҳим вазифалари // Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Т. 5. – Т., 1997. – Б. 126.*

Huquqni sharhlashning huquq normalari mazmunini to'g'ri tushunish va tushuntirish sifatidagi mazkur talqinining ahamiyati yana shu bilan bog'liqki, qonunchilikdagi kamchiliklarning tahlilini, ularni bartaraf etishga oid takliflarni deyarli barcha ilmiy ishlar (maqola, monografiya va dissertatsiyalar) hamda ilmiy-amaliy tadbirlar (monitoring, ilmiy konferensiya kabilar)da uchratish mumkin. Bularning barchasi qonun ijodkorligi jarayonini takomillashtirishga ko'maklashadi. Yuqorida bayon etilganlar huquqni sharhlash masalalarini o'rganish nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham muhimligidan dalolat beradi.

Huquq normasi yaratish, uni mazmunan boyitib, huquq mavjudligining tashqi shakllarida aks ettirish va amalga oshirishda boshqa-boshqa vosita va usullardan foydalanilsa, huquqiy tartibga solishda ayniylik prinsipi buziladi va u yo o'z samaradorligini yo'qotadi, yo ichki ziddiyatlarga ega bo'ladi. Shu ma'noda, huquq normalarini sharhlash muammosinigina emas, balki umuman huquqda, huquqiy tartibga solishning turli darajalarida huquqni sharhlash muammosini ham o'rganish talab etiladi.

Ammo sharhlash ham turli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Huquqni sharhlash va qo'llash faoliyatida huquq normalarining mazmunini tushunish va tushuntirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar mazkur huquqiy kategoriyani tahlil qilishni talab etadi.

Qonun to'g'ri tushunilishi va aniq bajarilishi uchun, avvalo, uning matni yuridik texnika qoidalariga muvofiq shakllantirilishi lozim. Bu esa uning bayon etilish shakli doimo unda mujassamlashgan mazmunni aniq va bir ma'noda qabul qilishga imkon berishini anglatadi. Bunda *bir ma'nolilik* uni qonun chiqaruvchi organ ham, huquqni qo'llovchi subyekt ham, oddiy fuqaro ham bir xilda tushunishi va izohlashini bildiradi.

## **I bob.**

### **HUQUQNI SHARHLASH ASOSLARI**

#### **1-§. Huquqni sharhlash kategoriyasining shakllanishi, mohiyati va mazmuni**

Har bir huquq normasi ma'lum bir turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Huquq normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar ko'p bo'lsa-da, ammo ularning hammasi o'ziga xos jihatlariga ham egadir.

Huquq normalari umumiy va mavhum xususiyatga ega bo'lib, keng doiradagi subyektlar va turli vaziyatlarga nisbatan amal qiladi. Huquq normalarini qo'llashda ularning mazmun-mohiyatini tushunib olish, tushuntirib berish borasida ko'plab savollarga javob topishga to'g'ri keladi. Ularga javobni faqat huquq normalarini sharhlash orqali olish mumkin bo'ladi. Sharhlash jarayonida huquq normalarining umumiy va mavhum xususiyatlari, shuningdek muayyan vaziyatdagi huquqiy ixtilof oydinlashadi.

Huquqni sharhlash masalasi zamonaviy huquqshunoslikning eng dolzarb mavzularidan biri bo'lib, maxsus yuridik kategoriya sifatida alohida ma'noga ega. U huquqning amal qilishini ifodalovchi huquqiy kategoriyalar tizimida maxsus o'rin egallaydi. Huquq normasining mazmuni tegishli ijobiy huquq manbaida mustahkamlanadi. Huquqni qo'llashda uning umumiy ma'nosi tegishli tarzda muayyan hayotiy shart-sharoitga nisbatan aniqlashtiriladi. Bu jarayon huquqni sharhlash orqali amalga oshiriladi.

Huquq normasini huquqiy munosabatlarga tatbiq etishdan avval uning ma'no va mazmunini to'g'ri anglash lozim. Bu esa uni qo'llovchidan tegishli yuridik malaka talab qiladi. Shu bois huquqiy normalarni amalda to'g'ri tatbiq etish uchun ko'pincha ularni sharhlash, izohlash zarur bo'ladi.

Umuman olganda, «sharhlash» tushunchasi insoniyat tomonidan yaratilgan turli moddiy va nomoddiy narsa-hodisalarni izohlashni anglatadi. Jumladan, moddiy madaniyat obyektlari bo'lgan san'at asarlarini sharhlash yoki yozma manbalar matnini talqin etish bunga misol bo'la oladi. Yozma huquqiy manbalar matnini izohlash «huquqni sharhlash» iborasi orqali ifodalanadi.

«Sharhlash» kategoriyasi keng va tor ma'nolarda talqin etilishi mumkin. Keng ma'noda u tabiiy yoki ijtimoiy hodisalarni tushuntirishga qaratilgan har qanday bilish jarayonini bildirsa, tor ma'noda so'z, ibora, ifoda va ramzlarning, ya'ni tabiiy yoki sun'iy til belgilarining aniqlash-tirilishini anglatadi. Ijtimoiy fanlarda «sharhlash» atamasi «talqin qilish», «izohlash», «tushuntirish» so'zlarining sinonimi tarzida qo'llaniladi<sup>1</sup>.

Demak, sharhlash yozma manbalardan foydalanadigan barcha fanlarga tegishli bo'lsa-da, yuridik fanda alohida o'rin tutadi. Qonun va boshqa huquqiy hujjatlar matnidagi so'z va iboralarni yuridik jihatdan talqin etish va tushunib olish ayniqsa katta amaliy ahamiyatga ega.

Hozirgi zamon huquqshunosligida huquqni sharhlash hermenevtika<sup>□</sup> tarzida talqin etilmoqda<sup>2</sup>. «Hermenevtika» yunoncha so'z bo'lib, qadimgi diniy va tarixiy matnlar, adabiy yodgorliklarni sharhlash san'ati, matnlarni izohlash qoidalari singari bir qancha o'zaro yaqin ma'nolarni anglatadiki, ularning umumiy asosini – «tushunarli qilish», «inson ongiga yetkazish» tashkil etadi<sup>3</sup>.

Hermenevtika matnlarni sharhlash san'ati sifatida ko'p asrli tarixga ega. Hermenevtika muammolari bo'yicha faylasuflar, adabiyotchilar, san'at namoyandalari, huquqshunoslar tadqiqot olib borganlar. Hermenevtika antik davrda vujudga kelib, o'rta asrlarda rivojlantirilgan, XIX–XX asrlarda F. Shleyermaxer, V. Diltey, M. Xaydegger, X. G. Gadamer, E. Betti, P. Ripper tomonidan o'rganilgan.

Sharhlovchi va sharhlanayotgan matn – ikkita alohida narsa, ammo uning mohiyati bitta: «Har qanday tushunish, oxir-oqibat o'zini o'zi tushuntirishdir»<sup>4</sup>.

---

<sup>1</sup> Qarang: Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Х. Т. Одилқориев таҳрири остида. – Т., 2009. – Б. 424.

<sup>□</sup> Гермес – қадимги юнон мифологиясига кўра, илоҳий кўрсатмаларни инсонларга тушунтириш, худо ва инсонлар ўртасида воситачи бўлиш топширилган худонинг номи.

<sup>2</sup> Qarang: *Ионин Л. Г.* Понимающая социология. – М., 1979; *Кузнецов В. Г.* Герменевтика и гуманитарное познание. – М., 1991; *Суслов В. А.* Герменевтический аспект законодательного толкования // Правоведение. – 1997. – № 1; ва бошқ.

<sup>3</sup> Qarang: *Овчинников А. И.* Юридическая герменевтика как правопонимание // Теория права и государства. – С. 160; *Суслов В. А.* Герменевтика права // Правоведение. – 2001. – № 5. – С. 5

<sup>4</sup> *Гадамер Х. Г.* Истина и метод: Основы философской герменетики. – М., 1988. – Б. 312.

Huquqni sharhlash huquq normalarining ma'nosini bilib olishgagina yo'naltirilmagan, balki huquq normalarining mazmun-mohiyatini tushunib olishni ham, tushuntirib berishni ham qamrab oladi. Shu bois, **sharhlash** – huquqning mazmunini aniqlash va tushuntirib berishdan iborat murakkab ijodiy jarayon bo'lib, har ikki jihatning uyg'unligida namoyon bo'ladi.

Bunda **tushunish** deganda sharhlanayotgan qoidaning asl mazmunini aniqlash, mushohada etish va asoslashdan iborat bilish jarayoni anglashiladi. **Tushuntirish** esa sharhlanayotgan normani tegishlicha tushunish natijalarini ko'pchilik foydalanishi uchun tashqi manbada maxsus ifodalash shaklidir<sup>1</sup>.

Sharhlash eng umumiy va mavhum huquq normalarini jamiyatda vujudga keladigan alohida munosabatlarga tatbiq etish ehtiyoji tufayli yuzaga keladi. Qonun chiqaruvchi idora normativ ko'rsatmalarni shakllantirar ekan, kelajakda ijtimoiy hayotda yuzaga kelishi ehtimol tutilgan muayyan o'zgarishlarni nazarda tutadi, ammo bu o'zgarishlar turli sharoitlarda turlicha namoyon bo'ladi. Shu bois har bir alohida holatda normani tegishli sharoitga qo'llagan holda sharhlash ehtiyoji yuzaga kelishi mumkin.

Shunday qilib, ijtimoiy hayotda huquq normalarini sharhlash zarurati yuzaga keladi. Zero, huquqni sharhlash natijasida uning mazmuni, ijtimoiy vazifasi, amaliy ahamiyati aniqlanadi, anglab yetiladi va tushuntirib beriladi.

Sharhlash deganda, bir tomondan, belgilar tizimini tushuntirishga qaratilgan muayyan fikrlash (bilish) jarayoni, boshqa tomondan esa ushbu jarayonning tabiiy tilda ifodalanishi hamda mazkur tizimga muayyan ma'no bag'ishlaydigan natijasi tushuniladi. Huquqni sharhlash uning umumiy normasini aynan yuridik jihatdan hal qilinishi lozim bo'lgan har bir alohida vaziyatga qo'llagan holda batafsil tushuntirish orqali qonun chiqaruvchi organning irodasini aniqlashtirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Huquqni qo'llovchi subyektlar huquq normalarini tanlar ekanlar, ularning mazmun-mohiyatini aniqlab olishlari kerak bo'ladi. Bunda huquqni qo'llovchi davlat organlarining normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlashlari qo'l keladi.

Shunday ekan, **huquqni sharhlash** – huquq normalarini to'g'ri qo'llash maqsadida ularning mazmunini aniqlash va tushuntirishdan iborat

---

<sup>1</sup> O'sha manba. – B. 493.



aqliy faoliyatdir. Bunday faoliyat bilan davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat tashkilotlari va alohida fuqarolar shug'ullanadi.

Shunday qilib, anglash turlaridan biri bo'lgan huquqni sharhlash murakkab fikrlash jarayoni bo'lib, obyektiv dunyoni anglashga, uning haqiqiy manzarasini ochib berishga xizmat qiladi.

Huquqni sharhlashning ikki jihati mavjud:

1) *huquqning ma'nosini aniqlash va tushunish*. Bu shaxsning huquq normasini anglashi va o'rganishi jarayoni bo'lib, bunda shaxs huquq haqida dastlabki tasavvurga ega bo'ladi, unga doir ma'lumotlarni o'zlashtiradi;

2) *huquq normasining mazmunini tushuntirib berish*. Bu tegishli davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning normativ-huquqiy hujjatlarda mujassamlashgan davlat irodasini huquqiy munosabatlarning boshqa ishtirokchilariga bayon etish va tushuntirishga qaratilgan maxsus faoliyatidir<sup>1</sup>.

Yaqin o'tmishda mazmuni mavhum bo'lgan qonunlarga sharhlanib, yangi qoidalarni sharhlash taqiqlangan edi. Ammo akademik V. S. Nersesyans agar sharhlovchi subyekt sharhlash orqali yangi qoida o'rnatmasa, mavjud qoidani o'zgartirmasa yoki bekor qilmasa, sharhlashni cheklamaslik kerak, degan fikrni bildirganidan keyin huquqning mazmuni qonun sifatida rasmiylashtirilishidan avval tushunib olinishi, huquq, shuningdek alohida huquq normasining mazmuni u tatbiq etilishidan oldin aniqlashtirilishi shart, degan xulosaga kelindi<sup>2</sup>. Shunday ekan, sharhlash natijasida yangi norma vujudga kelmasa, u o'zgartirilmasa yoki unga qo'shimcha kiritilmasa, har qanday normani sharhlash mumkin.

Huquqni sharhlash borasida to'plangan bilim va ta'limotlar ***sharhlash nazariyasi yaratilishiga*** olib keldi. Huquqni sharhlash nazariyasi sharhlash orqali kechadigan fikrlash jarayon bo'lib, bunda sharhlovchi subyekt sharhlashning ma'lum usul va qoidalari asosida huquq normalarining mazmun-mohiyatini ochib beradi.

Sharhlash nazariyasining rivojlanishi bir qancha bosqichlarni bosib o'tgan. *Statik sharhlash nazariyasi* huquqni qo'llovchi organlar oldiga huquqning barqarorligini ta'minlash vazifasini, *dinamik sharhlash*

---

<sup>1</sup> Qarang: Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Х. Т. Одилқориев таҳрири остида. – Т., 2009. – Б. 424–425.

<sup>2</sup> Qarang: Проблемы общей теории права и государства. – М., 2008. – С. 444.

*nazariyasi* tarafdorlari esa amaldagi huquq normalarining hayotiyligini ta'minlash maqsadini qo'yadi.

Sharhlashning *obyekti* – qonunlar va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar, *predmeti* esa qonun chiqaruvchining qonunda va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan amri (irodasi)dir. Huquq normalarini sharhlash zarurati uning tashqi xususiyatlaridan ham kelib chiqadi.

Huquq normasi qonun chiqaruvchining huquq subyektlari xatti-harakatini tartibga solishga yo'naltirilgan amri bo'lib, so'zlar orqali ifodalanaadi. Normativ-huquqiy hujjatlardagi so'zlarni to'g'ri tushunish uchun maxsus bilimga ega bo'lish talab etiladi. Chunki turli kasb egalari, jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlari turli hayotiy tajribalarga ega bo'lib, normativ-huquqiy hujjatlarda ifodalangan qoidalarni har xil tushunishlari mumkin.

Huquqiy normalarni sharhlash zarurati *huquq normalarining tizimlilikigi* xususiyatidan ham kelib chiqadi. Huquq normalari ijtimoiy munosabatlarni o'zaro aloqadorlikda tartibga solib turadi. Huquq normalari mantiqan o'zaro bog'langan bo'lib, ushbu holat sharhlanayotgan huquq normalarini boshqa huquq normalari bilan qiyoslashni taqozo etadi. Buning inkor qilinishi sharhlanayotgan huquq normasining mazmuni noto'g'ri tushunilishiga olib keladi.

Huquq normalarini sharhlash fikrlash turi bo'lib, u orqali huquq normalarining mazmuni ochib beriladi. Demak, sharhlash fikrlashning til bilish bilan bog'liq bilvosita turidir. Sharhlash orqali bilvosita bilimlar hosil qilinib, huquq normalarining mazmun-mohiyati ochib beriladi.

Sharhlovchi huquq normalarining tom ma'nosini anglash uchun quyidagilarga oid bilimlardan foydalanadi:

- a) huquq normalari ifodalangan til;
- b) sharhlanayotgan normalarning boshqa normalar bilan aloqadorligi, huquq tizimi;
- v) huquq normalarining yaratilishi;
- g) huquq normalarining tatbiq etilish shart-sharoitlari.

Sharhlashning anglash jarayoni sifatidagi xususiyati anglash obyekti (huquq normasi)ning xususiyati bilan bog'liq. Huquq normalari qandaydir moddiy, ashyoviy obyektlar sirasiga kirmaydi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Qarang: Общая теория государства и права / Под ред. проф. М. К. Марченко. Т.2. Теория права. – М., 1998. – С. 324.

Sharhlash ijodiy xususiyatga ega, chunki bunda yangi bilim hosil bo‘lib, unda huquq normalarining mazmuni aks etadi. Aks holda u amaliy va nazariy ahamiyatga ega bo‘lmasdi.

Sharhlash huquqiy jihatdan lozim bo‘lgan muayyan hujjatlar bo‘yicha amalga oshiriladi. Huquqiy jihatdan tartibga solinishi talab etiladigan ijtimoiy faoliyatni ajratib ko‘rsatish nihoyatda qiyin amaliy vazifa bo‘lib, uni bajarish orqali huquqning amal qilish samaradorligini ta‘minlash mumkin bo‘ladi.

Huquqiy tartibga solinishi lozim bo‘lgan muayyan holatlarni huquqiy jihatdan to‘g‘ri hal etish uchun sharhlovchi huquqiy xususiyatga ega turli masalalariga javob topishi kerak. Bunday javob sharhlanayotgan huquq normalarining mazmunidan kelib chiqqan holda topiladi.

«Sharhlash» kategoriyasining huquqiy fanlar uchun ahamiyati huquq normalari elementlarining mohiyatini ochib berishda namoyon bo‘ladi.

Sharhlash tafakkur natijasidir. Sharhlash orqali huquqiy normaning matndagi hamda alohida so‘z va iboralardagi ma‘nolari ochib beriladi. Grammatik matndagi huquq normalarining ma‘no-mazmuni sharhlash natijasida o‘zining to‘liq ifodasini topadi.

Umuman olganda, sharhlash – huquqiy matndagi fikr va mulohazalarni solishtirishdir.

«Sharhlash» tushunchasining yana bir jihati *huquqning ma‘nosini tushuntirish* iborasi bilan bog‘liq. Mazkur ibora ikki subyekt o‘rtasida kommunikativ, axborot aloqalari mavjud bo‘lishini taqozo qiladi. Ammo sharhlashni bunday tushunishda huquqni izohlovchi subyekt rasmiy va norasmiy hujjatlarda o‘z aksini topgan ifodalarning farqini ko‘rsatib berishi lozim bo‘ladi. Sharhlanayotgan normativ hujjatlarda uni ifodalovchining fikri to‘liq yoritilmagan bo‘ladi.

Sharhda huquqning mazmuni aniqlanadi va tushuntiriladi. Ammo sharhlashda bu bilan cheklanilmaydi, chunki huquqiy normalarning mazmunini ochib berish ko‘p qirrali faoliyatdir.

Sharhlash huquqning mazmunini bilish va tushuntirib berish vositasi sifatida barcha huquqiy tizimlarning vujudga kelishi va rivojlanishini kuzatib borishga asoslanadi. U huquqning mohiyati kabi, ma‘lum darajada ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishga ham ega.

Sharhlashdan ko‘zlanadigan **maqsad** qonun chiqaruvchi idoraning huquq normasida ifodalangan istak-irodasini, ushbu norma bilan bog‘liq

tasavvur va tushunchalarini ko'rsatishdan iborat. Sharhlashning asosiy **vazifasi** qonun chiqaruvchi idora qonun hujjatida bayon etgan qoidaning mazmunini ochib berishdan iborat<sup>1</sup>.

Shunday qilib, *huquqni sharhlash* – huquqning mazmuni, maqsadi, ijtimoiy vazifasi, amaliy ahamiyatini aniqlash va tushuntirishga qaratilgan faoliyatdir.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, quyidagi ta'rifni berishimiz mumkin: ***huquq normalarini sharhlash huquq ijodkorligi subyektlarining huquq normasida ifodalangan normativ tarzda tartibga soluvchi umumiy irodasining mazmunini anglash va tushuntirib berishga yo'naltirilgan ko'p qirrali va murakkab ijodiy-tahliliy jarayondir.***

## **2-§. Huquqni sharhlash usullari**

Sharhlovchining bosh maqsadi – qonunchilik organining norma mazmunida ifodalagan irodasini (huquqning mazmunini) aniqlash va tushuntirish, ya'ni o'rganilayotgan hodisa to'g'risida xolisona, chuqur, puxta va ilmiy asoslangan xulosa chiqarishdir. Bunga sharhlashning hayot sinovidan o'tgan maxsus usullari orqali erishiladi. Qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar matnidagi so'z va iboralar grammatik, mantiqiy, tarixiy, yuridik va boshqa jihatlardan talqin etiladi. Bu sharhlovchi subyektdan ijodiy va ilmiy yondashuvni talab qiladi.

Huquqni sharhlash usullari orqali sharhlovchi huquq normasi haqida batafsil ma'lumotlar to'playdi, to'liq tasavvur hosil qiladi hamda ushbu ma'lumotlarni huquqiy munosabatlar ishtirokchilariga yetkazadi. Huquqni sharhlash usullarini yaxshi bilish huquq normalarining mazmunini to'g'ri anglash va tushuntirishga hamda ushbu normalarning kelajakda hayotga to'liq tatbiq etilishiga xizmat qiladi.

Huquqni sharhlashda qanday usullar qo'llaniladi, degan savolga javob berishdan avval huquq ifodalanadigan eng asosiy holatlarni, ya'ni sharhlash obyektining xususiyatlarini bilib olish zarur. Bunda sharhlash predmetining ikki jihati aniqlab olinishi muhim: *birinchisi* – huquq mavjudligining, ya'ni uning tashqi ifodalanish shaklining anglanishi; *ikkinchisi* – huquqning mazmuni, tuzilishi, ya'ni ichki shakliga tegishli jihati – huquqning mantiqiy va texnik-yuridik tashkil etilishi.

---

<sup>1</sup> Qarang: Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Х. Т. Одилқориев таҳрири остида. – Т., 2009. – Б. 426.

**Birinchi jihat:** a) normativ hujjatning soʻzda grammatik ifodalanganligi; b) mazkur koʻrsatmaning boshqasi bilan matnda ifodalangan aloqasi; v) huquq normalarining ijtimoiy-siyosiy mazmunini ifodalovchi huquqning vujudga kelishi va amal qilish holatlari;

**ikkinchi jihat:** g) qonun chiqaruvchi organning irodasi mujassamlangan fikrning mantiqiy tuzilishi; d) qonun chiqaruvchi organ irodasini ifodalashning maxsus-yuridik vosita va usullaridir<sup>1</sup>.

**Sharhlash usullari** – sharhlovchi subyekt bilishining huquqiy qoidalar mazmunini aniqlashtirishga qaratilgan, ilmiy tafakkurga asoslangan maxsus yoʻllaridir.

Yuridik adabiyotlarda huquqni sharhlash usullarini qonun chiqaruvchi irodasini ifodalashning faqat tashqi shakllari bilan bogʻlashga urinishlar uchraydi. Lekin sharhlashning barcha tan olgan usullari ham (masalan, mantiqiy) maxsus tashqi shaklga ega emas. Boshqa usullar (masalan, tizimli usul) maxsus tashqi shaklga tayansa-da, lekin asosiy eʼtibor huquqning ichki shakli, yaʼni tuzilishiga qaratiladi. Shu bilan birga, sharhlashda shunday tashqi holatlar mavjudki (masalan, siyosat, axloq, qonun qabul qilinishining shart-sharoitlari va h.k.), ular umuman huquqning tashqi shakli hisoblanmaydi<sup>2</sup>.

Huquqni sharhlashda koʻplab usullar qoʻllaniladi. Ularning barchasi birgalikda samarali qoʻllanganida sharhlovchi subyekt oldida turgan masala hal etilishi mumkin. Huquqni sharhlash usullarining yigʻindisi huquq normalari mazmunini tadqiq etishning maxsus metodikasini tashkil qiladi.

Huquqni sharhlash usullarining turli-tumanligi huquq normalarini sharhlash jarayonining murakkabligini bildiradi. Huquq normalarini sharhlash ularning mazmunini aniqlashga yoʻnaltirilgan mantiqiy fikrlash jarayonidir. Huquq ijodkori (uni yaratuvchi subyekt) huquq normalarini ishlab chiqishda oʻz fikrini yozma manbaga, normativ-huquqiy hujjatga tushiradi. Yaʼni, qonun yaratuvchining maʼlum bir ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan fikri normativ-huquqiy hujjatda mustahkamlanadi. Qonun chiqaruvchining fikri shundayligicha huquq normasining mazmunini tashkil etadi. Sharhlash jarayonida qonun ijodkorining huquq normasini yaratishdan koʻzlagan maqsadi ochib beriladi.

---

<sup>1</sup> Qarang: *Алексеев С. С. Общая теория права. Т. 2. – М., 1981. – С. 300.*

<sup>2</sup> Qarang: *Алексеев С. С. Общая теория права. Т. 2. – С. 300.*

Ma'lumki, *sharhlash* qonun ijodkorining huquq normasida ifodasini topgan maqsadini anglash, fikrini tushunish va tushuntirishga qaratilgan faoliyatidir. Sharhlash jarayonining predmeti qonun ijodkorining fikridir. Ya'ni, sharhlovchi bilan qonun ijodkorining fikri bir joydan chiqsagina, sharhlashdan ko'zlangan maqsadga erishiladi.

Sharhlovchi subyekt huquqni sharhlash usullari orqali huquq normasi haqida to'liq tasavvur hosil qiladi va batafsil ma'lumot to'playdi, ularni huquqiy munosabatlar ishtirokchilariga yetkazadi. N. P. Azizov to'g'ri ta'kidlaganidek, huquqni sharhlash usullarini yaxshi bilish huquq normalarining mazmunini to'g'ri anglash va tushuntirishga hamda ularning kelajakda to'g'ri tatbiq etilishiga xizmat qiladi<sup>1</sup>.

Huquqning mazmuni sharhlashning maxsus usul va yo'llarini qo'llash orqali aniqlanadi. Qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar matnidagi so'z va iboralarni grammatik, mantiqiy va yuridik talqin etish sharhlovchidan ijodiy va ilmiy yondashuvni talab qiladi.

Huquqni sharhlash sud, prokuratura, ichki ishlar organlari singari huquqni qo'llash faoliyati bilan shug'ullanuvchi davlat organlari uchun amaliy ahamiyatga ega. Zero, ular kundalik faoliyatida huquqqa oid masalalar bilan bevosita shug'ullanadilar hamda normalarning to'g'ri tatbiq etilishiga mas'uldirlar.

Huquq normalarining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini aniqlash uchun sharhlovchi: 1) huquq normasining o'zini; 2) huquq normasining boshqa yuridik qoida va prinsiplar bilan o'zaro (huquqiy) aloqalarini; 3) uning ijtimoiy voqelik bilan boshqa aloqalarini tadqiq etadi<sup>2</sup>.

Huquqni sharhlashning grammatik, mantiqiy, tizimli, maxsus-yuridik, tarixiy-siyosiy hamda teleologik sharhlash usullarini ajratib ko'rsatish mumkin.

*Grammatik sharhlash* usuli huquqiy hujjat matnining morfologik va sintaktik tuzilishini tushunib olishga yo'naltirilgan maxsus qoidalar yig'indisidir. Huquq normalarining mazmuni haqida haqiqiy bilimga ega bo'lish uchun huquq normalarining mazmunini ochib beruvchi qoidalar qayerdan izlab topiladi, degan savol tug'iladi. Ular normativ-huquqiy hujjatlarda til qoidalari asosida mustahkamlab qo'yilgan bo'ladi. Sharh-

---

<sup>1</sup> Qarang: Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Х. Т. Одилқориев таҳрири остида. – Т., 2009. – Б. 426–427.

<sup>2</sup> O'sha joyda.

lovchi subyekt huquq normalarining mazmunini tushunib olmoq uchun til qoidalarini bilishi, ya'ni normativ-huquqiy hujjat qaysi tilda yozilgan bo'lsa, o'sha tilning qonun-qoidalarini mukammal egallagan bo'lishi kerak.

Mazkur usul yordamida matnning grammatik ma'nosi, ya'ni undagi alohida so'z va terminlarning ma'nosi tushunib olinadi va tushuntirib beriladi. Bunda ot va sifatning turi, soni, kelishiklari, fe'lining shaxsi, vaqti, soni va turi, qo'llanilayotgan bog'lovchi, tinish belgilari, gap bo'laklari va boshqa shu kabilarning ahamiyati aniqlab olinadi.

Grammatik sharhlashda quyidagilarga e'tibor beriladi:

– sharhlashning «oltin qoidasi»ga ko'ra, qonunning biror moddasini sharhlash jarayonida hammaga tushunarli bo'lgan adabiy tildan foydalanish lozim;

– qonun chiqaruvchi idora qonunning matnida adabiy til me'yorlaridan chetga chiqqan bo'lsa, sharhlash jarayonida ham xuddi shunday izohlash lozim bo'ladi;

– huquq normasini sharhlashda bir sohaga oid iborani u taalluqli bo'lmagan boshqa sohada qo'llash man etiladi;

– agar qonun matnidagi iboraning mazmuni aniq ifodalanmagan bo'lsa, uni sharhlashda huquqshunoslik fani va amaliyotida keng qo'llanilayotgan so'zlardan foydalanish lozim;

– agar qonunda biror iborani turli ma'nolarda tushunishga ruxsat berilmagan bo'lsa, uni har xil talqin etish mumkin emas;

– turli iboralarni asossiz ravishda bir ma'noda qo'llash taqiqlanadi;

– qonunning biror-bir so'zini ortiqcha ibora sifatida talqin qilishga yo'l qo'ymaslik kerak<sup>1</sup>.

Grammatik usulda qo'llaniladigan huquqiy normaning mazmuni, uning matni til qoidalariga asosan, ya'ni grammatik-filologik tahlil qilinaadi. Huquqiy norma matnidagi so'z va iboralarning, masalan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksidagi «og'ir oqibatlar», «zarar», «jinoyat tarkibi» kabi tushunchalarning mazmuni aniqlanadi. Bunda huquq normasi matnidagi har bir so'z va jumlaning mazmuni grammatik jihatdan to'g'ri yoki noto'g'riligi tahlil qilinadi. Grammatik usulda tatbiq qilinadigan huquqiy norma turli joylarda uchraydigan so'z va iboralarning to'g'ri-

---

<sup>1</sup> Qarang: Общая теория государства и права. Т. 2 / Под ред. проф. М. Н. Марченко. – М., 1998. – С. 328–329.

giga, ularning o'xshash va bog'liq tomonlariga e'tibor berilib, huquqiy normalarning mazmuni aniqlanib, keyin sharhlanadi.

*Mantiqiy sharhlash* usuli orqali huquq normalarining tom ma'nosi mantiq qonuniyatlariga asosan tushunib olinadi va tushuntirib beriladi.

Sharhlash – huquq normalarining mazmuni to'g'risida ishonchli va mukammal bilimga ega bo'lish jarayoni. Buning uchun mantiq qoidalariga asoslanish lozim.

Mantiqiy usulda tatbiq etiladigan huquqiy normalarning mazmuni mantiq fanining qonuniyatlariga asosan aniqlanadi. Bunda huquqiy norma-ning mazmuni uning matnidagi ifoda va tushunchalarning ichki mantiqiy aloqasiga e'tibor berilib aniqlanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 15-moddasida: «Ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi sababli o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni idora qila olmaydigan fuqaro sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilishi mumkin», – deb belgilangan. Demak, voyaga yetgan har qanday fuqaro ruhiy kasal bo'lsa ham, to sud tomonidan «muomalaga layoqatsiz» deb topilib, qaror chiqarilmagunicha muomalaga layoqatli, deb hisoblanadi.

Mantiqiy sharhlash usuli yordamida huquq normasining mazmuni mantiqiy jihatdan qayta shakllantiriladi, tushunchalar mantiqiy tahlil qilinadi, ya'ni ularning hajmi, belgilari va aloqalari aniqlanadi. Huquqiy qoida hayotiy holatga yaqinlashtiriladi, shuningdek o'xshash va qarama-qarshi jihatlar o'rganib chiqiladi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 41-moddasida, yuridik shaxsning huquqiy layoqati belgilangan. Unga ko'ra, «yuridik shaxs qonunda ro'yxati belgilab qo'yilgan ayrim faoliyat turlari bilan faqat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) asosidagina shug'ullanishi mumkin. Qonunda ro'yxati belgilab qo'yilgan ayrim faoliyat turlari bilan shug'ullanish uchun ruxsatnoma (litsenziya)si bo'lmagan yuridik shaxslar, bunday faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin emas».

*Tizimli sharhlash* usulida huquqiy normalarning ma'no-mazmuni ularning normativ-huquqiy hujjatdagi, huquq normasi, huquq instituti, huquq sohasi va butun huquq tizimidagi o'рни va roli, o'zaro aloqasi orqali izohlanadi, norma va hujjatlar o'rtasidagi ziddiyat, nomuvofiqlik va qarama-qarshiliklar (kolliziyalar) aniqlanadi. Bunday sharhlash natijasida rasman bekor qilinmagan, biroq amalda boshqalari bilan almashtirilganligi



sababli ahamiyatini yo‘qotgan, foydalanilmay qolgan huquq normalari ham yuzaga chiqadi.

Sharhlashning bu usulida huquq normasining ushbu norma mansub bo‘lgan huquq tarmog‘ining umumiy qismi, huquq instituti va tarmog‘i bilan aloqalari ko‘rib chiqiladi. Bu esa sharhlanayotgan normaning ma’nosini yanada aniqlashtirish, kengroq yoritish va chuqurroq anglashga imkon beradi.

Sharhlovchi tizimli sharhlash usuli orqali, *birinchidan*, huquq normasining huquq tizimidagi (huquq sohasi, institutidagi) o‘rnini ko‘rsatadi, *ikkinchidan*, sharhlanayotgan huquq normasi bilan mazkur norma tatbiq etilishi nazarda tutilayotgan muayyan hayotiy munosabat o‘rtasidagi mantiqiy aloqadorlikni aniqlaydi, *uchinchidan*, sharhlanayotgan normaning mazmunini tushuntiradi<sup>1</sup>.

Huquq normalarini tizimli sharhlash usuli huquqning ma’no-mazmunini anglab olishning muhim vositasi hisoblanadi. Sharhlovchi bunda quyidagi maxsus qoidalardan foydalanadi:

1) *umumiy va maxsus normalarning aloqadorligi qoidasi*. Unga ko‘ra, maxsus qonunlar muayyan faktga tegishli umumiy qonunning amal qilishini bekor qiladi, ya’ni maxsus qonun normalari mavjud bo‘lganida umumiy qonun normalari emas, balki maxsus qonun normalari qo‘llanadi. Demak, maxsus normalar umumiy normalarning amal qilish doirasini cheklaydi;

2) *havola etuvchi moddalarning aloqadorligi*. Unga ko‘ra, havola etuvchi moddalar sharhlanayotgan moddalarni aniqlashtirish uchun mo‘ljallangan bo‘ladi yoki mazkur normaning mohiyatini yoritish uchun havola etilayotgan moddalarga murojaat qilinadi;

3) agar turli organlar tomonidan chiqarilgan huquqiy normalarning o‘zaro qarama-qarshiligi aniqlansa, yuqori turuvchi organlar tomonidan qabul qilingan normaga asoslaniladi;

4) agar bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan ikki normaning bir-biriga zidligi aniqlansa, norma qabul qilingan vaqt e’tiborga olinadi va keyingi qabul qilingan normaga asoslaniladi<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Qarang: Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Х. Т. Одилқориев таҳрири остида. – Т., 2009. – Б. 436.

<sup>2</sup> Qarang: Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Х. Т. Одилқориев таҳрири остида. – Т., 2009. – Б. 437.

Tizimli sharhlash usulida tatbiq etilayotgan huquqiy normaning yangisiga almashtirilgan-almashtirilmagani, uni qo'llashda qoidadan istisno bor-yo'qligi aniqlanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 714-moddasida umumiy foydalanishdagi transportda tashish qoidalari belgilangan. Unga ko'ra, umumiy foydalanishdagi transportda tashish shartnomasi ommaviy shartnomadir. Bunday shartnoma to'g'risida Fuqarolik kodeksining 358-moddasida so'z yuritilgan. Bu moddalar o'zaro solishtirilib, umumiy foydalanishdagi transportda tashish shartnomasi ommaviy shartnoma bo'lganligi sababli, Fuqarolik kodeksining 714-moddasi emas, balki 358-moddasi bilan hal etiladi.

*Maxsus yuridik sharhlash* usuli sharhlashning boshqa usullaridan yuridik terminlarning texnik-yuridik vosita va usullar asosida tahlil qilinishi bilan ajralib turadi. Qonun chiqaruvchi organ o'z irodasini umumiy muomaladagi so'zlar hamda maxsus yuridik atamalar yordamida ifodalaydi. Bunda u qonunchilik texnikasi, yuridik vositalar hamda usullardan foydalanadi, jamiyat hayoti uchun muhim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning samarali usullarini qo'llaydi. Shu munosabat bilan huquqni sharhlash subyekti huquqiy tartibga solish mexanizmini, uning o'ziga xos xususiyatlarini, yuridik tuzilmani va boshqa shu kabilarni hisobga olishi lozim bo'ladi.

*Tarixiy-siyosiy sharhlash* usuli orqali normativ-huquqiy hujjatdagi normalar tarixiy-siyosiy sharoitdan kelib chiqqan holda izohlanadi.

Ma'lumki, huquq normalari o'z yaratilish tarixiga ega. U yoki bu huquq normalarining yaratilishiga ma'lum bir ijtimoiy, siyosiy, madaniy omillar sabab bo'ladi. Qonun ijodkori huquq normalarini ishlab chiqishda muayyan maqsadni ko'zlagan, ustuvor qadriyatlardan foydalangan bo'ladi. Demak, huquq normalarining genezisida yuqoridagi omillarga e'tibor berish lozim bo'ladi. Huquq normalari ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish orqali amal qiladi. Huquq normalari o'z funksiyasini bajara borib, insonlarning xulq-atvori va harakatini tartibga soladi. Huquq normalarining mazkur funksiyasi ma'lum bir ijtimoiy-tarixiy sharoit va muayyan holatlarda amalga oshadi.

Tarixiy-siyosiy sharhlash usulida tatbiq etilayotgan huquqiy norma-ning mazmuni qaysi tarixiy sharoitda, davlatning qaysi organi tomonidan, qanday maqsadda chiqarilganligi aniqlanadi. Masalan, 1964-yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksining bezorilik to'g'risidagi moddasida «fuqarolar

tomonidan korxonalar, muassasalar va jamoat joylarida bezorilik qilish» degan soʻzlar boʻlgan. Amaldagi, 1994-yilda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 277-moddasi birinchi qismida bezorilik jinoyatiga quyidagicha taʼrif berilib, undan yuqoridagi soʻzlar olib tashlangan: «Bezorilik, yaʼni jamoat joylarida jamoat tartibi qoidalariga qasddan hurmatsizlik bildirish, urish-doʻpposlash, badanga yengil shikast yetkazish yoki oʻzganing mulkiga shikast yetkazish yoxud nobud qilish jiddiy zarar yetkazish bilan bogʻliq holda sodir etilsa, – eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq bilan jazolanadi».

Tarixiy-siyosiy sharhlash usulida har bir huquqiy normaning qanday sharoitda, qanday maqsadda chiqarilganiga eʼtibor beriladi. Bu usul tergov, prokuratura va sud organlarida huquqiy normalar bilan tegishli ishlarni koʻrib hal qilishda muhim rol oʻynaydi.

*Teleologik* (maqsadli) *sharhlash usuli* normativ-huquqiy hujjatlarni chiqarishdan koʻzlangan maqsadlarni aniqlashga xizmat qiladi. Bu usul sharhlashning boshqa usullaridan kelib chiqadigan natijalarning haqiqiylikini tekshirib beruvchi usuldir. Qonunlarning maqsadini aniqlash orqali huquqiy normalarning umumiy maʼnosi anglab yetiladi va shu nuqtai nazardan, teleologik sharhlash usuli qonunlarni sharhlashning yuridik usullari tizimini toʻldiradi<sup>1</sup>.

Huquqiy norma barchaga tushunarli boʻlishi uchun uning maqsadi, funksiyasi va matndagi ifodasi aniq, loʻnda boʻlishi lozim. Masalan, fuqarolarimiz uchun boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga qaraganda Konstitutsiya normalari tushunarliroqdir. Chunki, Konstitutsiyani qabul qilishdan koʻzlangan maqsad uning muqaddimasida aniq-ravshan yozib qoʻyilgan.

Huquq normasining matnida uning boshqa huquqiy normalar bilan bogʻliqligi koʻrsatilmasa ham, u tushunarsiz boʻlishi mumkin. Undan tashqari, huquq normalari oʻz ifodasiga koʻra aniq va loʻnda boʻlsa-da, uning maqsadi nuqtai nazaridan tushunarsiz, turli maʼnolarni anglatadigan boʻlishi mumkin. Barcha huquq normalari ulardan koʻzlangan maqsadni ochib bergan holda sharhlanishi muqarrar.

Shunday qilib, yuqorida huquq normalarining ijtimoiy hayotda mavjud boʻlishi va oʻzaro tashqi aloqasining toʻrtta shaklini koʻrib chiqdik.

---

<sup>1</sup> Qarang: *Насырова Т. Я.* Телеологическое (целевое) толкование закона. – Казань, 1988. – С. 67.

Ular: huquq normasining tili, huquq tizimi, huquq normalarining kelib chiqishi va funksiyasi. Mazkur omillar haqida bilimga ega bo'lish huquq normalarining ma'nosini aniqlashning boshlang'ich nuqtasidir. Ular sharhlashning boshlang'ich vositalari hisoblanadi.

Sharhlashning muayyan usulini tanlash va undan foydalanish sharhlovchining huquqiy faoliyatni bilishiga xos xususiyatlar va uning maqsadiga (qonun matni, huquqiy munosabat, huquqiy g'oya va h.k.) asoslanadi.

Shunday qilib, huquqni sharhlash usullarining xilma-xilligi qonun chiqaruvchi organning huquqiy norma mazmunida ifodalangan irodasini – huquqning mazmunini to'liqroq anglash va tushuntirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, jamiyatda huquqiy munosabatlarning rivojlana borgan sayin sharhlash usullari ham yangicha ma'no-mazmun bilan boyib boraveradi, sharhlashning yangidan-yangi usullari vujudga keladi.

### 3-§. Huquqni sharhlash turlari va hajmi

Huquqni sharhlashning turlari to'g'risidagi masala huquqni tushuntirish faoliyatining natijalari va sharhlash hujjatlarining tabiatiga oid masalalar jumlasiga kiradi. Huquqiy normalar mazmunini tushuntirish natijalari sharhlanayotgan hujjatlardir. Sharhlovchi subyektning sharhlashi yangi qoida belgilamasa, uni o'zgartirmasa yoki bekor qilmasa, sharhlashni cheklamaslik kerak. Huquqning mazmuni qonun sifatida rasmiylashtirilishidan avval tushunib olinishi; shuningdek, alohida huquq normalasining mazmuni u tatbiq etilishidan oldin aniqlanishi shart<sup>1</sup>.

Huquq normalarini sharhlash odatda *hajmi va subyektlariga* ko'ra turlarga bo'linadi<sup>2</sup>. Bundan tashqari, ularni huquqiy tartibga solish mexanizmi, sharhlashdan ko'zlangan maqsad, sharhlash obyektiga ko'ra ham turlarga bo'lish taklif etiladi.

Yurisprudensiyada huquqni **hajmi bo'yicha sharhlash** beqiyos ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Huquqni hajmi bo'yicha sharhlash jamiyat hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy jabhalarida islohotlarni amalga oshirish sharoitida muhim bo'lib, mazkur masalaning

---

<sup>1</sup> Qarang: Проблемы общей теории права и государства / Под общ. ред. члена-корр. РАН, проф. В. С. Нерсесянца. – М., 1999. – С. 444.

<sup>2</sup> Общая теория права и государства / Под ред. В. В. Лазарева. – М., 1994. – С. 320.

o'rganilish holati bugun amaliy huquqshunoslikning ehtiyoj va talablariga javob bermaydi.

XX asrning 90-yillarida qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyoti-ning ahvoli davlat tuzilishi va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ro'y bergan o'zgarishlarni o'zida aynan ifodalay olmadi. Huquqni hajmi bo'yicha sharhlash siyosiy kuchlar, huquqiy mafkura, ilmiy konsepsiyalarning o'zaro ta'siriga bog'liqdir. Bunday sharhlash faoliyati davlatning rivojlani- shi, qonunchilikning takomillashuvi, aholining huquqiy ong va mada- niyati yuksalishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi<sup>1</sup>.

Huquqni *so'zma-so'z sharhlash* sharhlanayotgan huquq normasining ma'nosini tushunish to'lig'icha huquq manbaining matni bilan mos keli- shida namoyon bo'ladi. Bunday sharhlashning natijasi huquqiy ta'sirning yozma shakli bilan bir xil. *Kengaytirilgan sharhlash* huquq normasining haqiqiy mazmuni matn doirasidan chetga chiqish mavjud bo'lgan joyda ifodalanadi. *Cheklangan sharhlash* shunday izohlash orqali ifodalanadiki, bunda huquq normasining asl ma'nosi yozilgan matnga nisbatan torroq holda tushuniladi<sup>2</sup>.

Huquq normalarini hajmi bo'yicha sharhlash uch turga, ya'ni tom ma'noda (aynan), cheklangan va kengaytirilgan turlarga bo'linadi:

1. *So'zning tom ma'nosi bo'yicha sharhlash* – deganda turmushga tatbiq etilayotgan huquqiy normaning mazmunini yozilgan matniga qarab, hech narsa qo'shmasdan qo'llash tushuniladi.

Bunga misol qilib O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4 va 8-moddalarini keltirish mumkin: «O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir» (4-modda): «O'zbekiston xalqini millatidan qatyi nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi» (8-modda).

2. *Cheklangan sharhlashda* tatbiq etilayotgan huquqiy normaning o'z matnida cheklanganligi belgilab qo'yiladi. Masalan, O'zbekiston Respubli- kasi Konstitutsiyasining 10-moddasida belgilanishicha, «O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin. Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat bir- lashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas». Bu o'rinda O'zbekiston xalqi nomidan ish

---

<sup>1</sup> Qarang: *Гаврилова Ю. А.* Толкование права по объему. Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Саратов, 2008. – С. 5.

<sup>2</sup> *Саидов А., Тожиқонов У.* Ҳуқуқ назарияси. – Т., 2001. – Б. 234.

olib borishi mumkin bo'lgan subyektlar doirasi qonun bilan qat'iy cheklab qo'yilganiga guvoh bo'lamiz.

3. *Kengaytirilgan sharhlashda* huquqni qo'llovchi subyekt huquq normasining mazmunini qonun chiqaruvchi organ qonun normasida nazarda tutganidan kengroq qilib sharhlaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida: «O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar», deyilgan.

Mazkur normani kengaytirilgan tarzda sharhlash talab etiladi. Chunki O'zbekiston Respublikasida davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar faqat Konstitutsiya va qonunlarga emas, balki shu bilan birga, ularga muvofiq tarzda chiqarilgan boshqa qonun osti hujjatlari, ya'ni Prezident farmonlari, qaror va farmoyishlari, hukumatning qaror va farmoyishlari, vazirliklar va davlat qo'mitalarining turli normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq ish ko'radilar.

Subyektlariga ko'ra, huquq normalarini sharhlash rasmiy va norasmiy turlarga ajratiladi. Davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan sharhlash *rasmiy sharhlash* deyiladi, chunki u vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi va majburiy xususiyatga ega bo'ladi. *Norasmiy sharhlash* davlat organlarining ishtirokisiz amalga oshiriladi hamda rasmiy maqomga ega bo'lmay, huquqiy normalarni sharhlash vakolati bo'lmagan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Ular sharhlashni o'z qarashlari, fikrlari doirasida, ammo qonunga zid bo'lmagan holda amalga oshiradilar.

Rasmiy sharhlash o'ziga xos tartibda amalga oshadi. Bunda sharhlash hujjatlari (sharhlar) shakllantiriladi. Sharhlashning rasmiy turida turmushda qo'llaniladigan huquqiy normalar tegishli vakolatga ega davlat organlari tomonidan sharhlanadi va bu sharh barcha subyektlar uchun majburiy bo'ladi.

Yuridik ixtiloflarni bartaraf etishda sharhlash alohida ahamiyat kasb etadi. Sharhlash rasmiy va malakali amalga oshirilgan taqdirda yaxshi samara beradi, ammo ba'zan sharhlash oqibatida yangi ixtiloflar paydo bo'ladi. Chunki sharhlash tegishli subyektlar tomonidan amalga oshirilib,

bunda turli rasmiy va norasmiy tuzilmalar ayni bir hujjat, hodisa, faktni turlicha talqin etishlari mumkin<sup>1</sup>.

Rasmiy sharh hujjatni chiqargan organning sharhi bo‘lib, autentik sharh deb nomlanadi; agar yuridik hujjatlarni sharhlash majburiyati uni chiqarmagan organlarga yuklatilgan bo‘lsa, mazkur sharh legal sharh deyiladi<sup>2</sup>. «Rasmiy sharhlash», «normativ sharhlash», «legal sharhlash» tushunchalari yuridik adabiyotlarda o‘xshash tushunchalar hisoblanadi va sharhlashning majburiy xususiyatga egaligini ko‘rsatadi<sup>3</sup>.

Rasmiy (umumiy) normativ sharhlash huquqiy normalar yaratilishiga olib kelmaydi, bunda mavjud huquqiy normalar tushunib olinadi yoki tushuntirib beriladi. O‘zbekiston Respublikasida huquqiy normalarni rasmiy sharhlash bilan o‘z vakolati doirasida, avvalo, quyidagi davlat organlari shug‘ullanadi: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari, Prezident, Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo‘mitalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va Vazirlar Kengashi, sud, prokuratura, soliq, bojxona idoralari; jamoat birlashmalarining rahbar organlari; mansabdor shaxslar<sup>4</sup>.

Rasmiy sharhlash normativ va kazual sharhlash tarzida bo‘ladi<sup>5</sup>. Normativ sharhlash umumiy xarakterga ega. Normativ sharhlash natijasida vujudga keladigan hujjat boshqa huquqiy munosabatlarda subyektlari uchun majburiy hisoblanadi. Normativ sharhlashda yangi huquqiy norma yaratilmaydi, balki rasmiy organ qabul qilgan hujjatning bir xilda tushunilishi va qo‘llanilishini ta’minlash maqsadi ko‘zlanadi.

Normativ sharhlash keng doiradagi ijtimoiy munosabatlarga qo‘llaniladigan huquqning ma’nosini tushuntirish bo‘lib, bir necha bor qo‘llashga mo‘ljallangan. U ijtimoiy munosabatlarda va ularning subyektlariga nisbatan aniq yo‘naltirilmagan bo‘ladi.

---

<sup>1</sup> Qarang: *Одилқориев Х.* Юридик ихтилофлар: тушунчаси, турлари ва бар-тароф этиш усуллари // ТДЮИ ахборотномаси. – Т., 2009. – № 2. – Б. 8.

<sup>2</sup> Qarang: *Теория права и государства / Под ред. проф. В. В. Лазарева.* – М., 1996. – С. 204.

<sup>3</sup> Qarang: *Шершеневич Г. Ф.* Общая теория права. – М., 1995. – С. 298.

<sup>4</sup> Qarang: *Саидов А., Тожиқонов У.* Ҳуқуқ назарияси. – Т., 2001. – Б. 229; *Исламов З.* Общество. Государство. Право. (Вопросы теории). – Т., 2001. – С. 604.

<sup>5</sup> Qarang: *Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Масъул муҳаррирлар: Ҳ. Б. Бобоев, Ҳ. Т. Одилқориев.* – Т., 2000. – Б. 340.

Huquqni normativ sharhlashning quyidagi xususiyatlari mavjud:

- albatta, davlat organlari tomonidan tushuntirishlar olib boriladi;
- ularni bir necha bor qo‘llash imkoni mavjud bo‘ladi;
- mazkur sharhlash keng doiradagi ijtimoiy munosabatga kirishuvchilarga taalluqli bo‘ladi.

Normativ sharhlash tarkibida autentik (mualliflik) va legal (ruxsat berilgan) sharhlash farqlanadi.

*Autentik sharhlash* normativ sharhlash turlaridan biri bo‘lib, huquqiy normalarni yaratgan organning o‘zi qabul qilgan normalarni sharhlashidir. Ya’ni, mantiqan olganda, autentik sharhlash huquq normalarini chiqargan organning vakolatidir.

Autentik sharhlash hujjatlarini huquq ijodkorligi hujjatlaridan farqlash lozim. Yuridik amaliyotda davlat organlarining autentik sharhlashi, bir tomondan (tashqaridan qaraganda) tabiiy huquqlarni tushuntirish sifatida namoyon bo‘lsa, boshqa tomondan, ba’zan qonunchilikni rivojlantirish elementlarini o‘zida ifodalaydi<sup>1</sup>.

Huquq normalarining bir xilda tushunilishi va qo‘llanishini ta’minlash maqsadida, normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan organ tomonidan sharhlash – autentik (muallif tomonidan) sharhlash hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Prezident, Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo‘mitalari, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimlari o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlar bo‘yicha autentik sharhlash huquqiga egadirlar<sup>2</sup>. Bu sharhlashning vazifasi O‘zbekiston Respublikasining hududida huquqiy normalarni to‘g‘ri qo‘llash uchun ularni umummajburiylik kuchiga qarab bir xilda sharhlashdir. Autentik sharhlash qonunchilikda ko‘zda tutilgan bo‘lib, qonun chiqaruvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Autentik sharhlash huquqi mantiqan normativ-huquqiy hujjatlarni chiqarish huquqidan kelib chiqadi. U yoki bu davlat organi huquq yaratish vakolatiga ega bo‘lar ekan, mazkur organlar o‘zlari chiqargan normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlash huquqiga ham ega bo‘ladi.

---

<sup>1</sup> Qarang: Колоколов Я. Н. Проблемы аутентического толкование нормативно-правовых актов в трудах Российских ученых дореволюционного периода // История государства и права. – 2010. – № 2. – С. 45.

<sup>2</sup> Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Проф. Ҳ. Т. Одилқориев таҳрири остида. – Т., 2009. – Б. 442.



Shunday qilib, *autentik sharhlar* rasmiy sharhlarining alohida turi bo'lib, huquqiy normani qabul qilgan organ tomonidan tushuntirishdir. «Autentik» so'zi haqiqiylik, dastlabki manbalarga asoslanganlikni bildiradi.

Normativ sharhlarining ikkinchi turi *legal* (ruxsat berilgan) sharhlar deb ataladi. Qoidaga ko'ra, legal sharhlar qonunda bunday vakolat berilgan davlat organi tomonidan amalga oshiriladi. Sharhlarining bu turida ma'lum bir davlat organi tomonidan chiqarilgan normativ-huquqiy hujjatning kim tomonidan sharhlanishi o'sha organ tomonidan chiqarilgan hujjatda ko'rsatib qo'yilgan bo'ladi yoki bu mantiqan mazkur organning umumiy vakolati to'g'risidagi umumiy qonunlardan kelib chiqadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi legal sharhlar vakolatiga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 3-bandiga asosan, Konstitutsiyaviy sud Konstitutsiya va qonun normalarini yuridik kuchiga qarab sharhlaydigan yagona organdir. Bu sharhlar rasmiy normativ bo'lib, barcha (davlat organlari, korxonalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar) uchun majburiydir.

Rasmiy sharhlarining yana bir turi muayyan hodisaga nisbatan qo'llaniladigan sharhlar bo'lib, yuridik adabiyotlarda mazkur sharhlar *kazual sharhlar* deb yuritiladi. Huquq normalarini kazual sharhlar alohida ijtimoiy munosabatlarga mo'jallangan huquq normalarining ma'nosini tushuntirib berishda o'z ifodasini topadi. Uning xususiyati shundaki, mazkur sharhlar qaysi shaxsga nisbatan amalga oshirilayotgan bo'lsa, o'sha shaxsga tegishli bo'ladi. Kazus – hayotiy fakt, shuning uchun huquqni kazual sharhlar deganda muayyan hayotiy hodisaga nisbatan qo'llaniladigan tushuntirishlar anglanadi<sup>1</sup>.

Kazual sharhlar rasmiy sharh bo'lib, alohida hayotiy vaziyatning huquqiy tabiatini tushunish va tartibga solish uchun majburiy sanaladi<sup>2</sup>. Bunday sharh sud va shaxslarga nisbatan ko'rilayotgan yuridik ishlarda beriladi. Huquqni umumlashtirib bo'lmaydigan sharhlar hujjatlari bir martalik ahamiyatga ega, lekin jiddiy ishlar yuzasidan qilinganida, ayniqsa, huquqda nuqsonlar mavjud bo'lganida o'rnak bo'luvchi sharhlar ahamiyatiga ega bo'ladi.

---

<sup>1</sup> Qarang: Колоколов Я. Н. Проблемы аутентического толкование нормативно-правовых актов в трудах Российских ученых дореволюционного периода // История государства и права. – 2010. – № 2. – С. 607.

<sup>2</sup> Волленко Н. Н. Толкование права. – Волгоград, 2007. – С. 67.

Huquq normalarini kazual sharhlashda sud organlari har bir fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va boshqa ishlarni tegishli huquqiy normalar doirasida ko'rib hal qilish chog'ida huquqiy normalarni sharhlaydi. Sudning har bir fuqarolik ishi bo'yicha chiqargan qarori yoki jinoyat ishlari bo'yicha chiqargan hukmi huquqiy normani kazual sharhlash asosida amalga oshadi. Kazual sharhlash keng ma'noga ega bo'lib, uni sudda sharhlash va ma'muriy sharhlash turlariga ajratish mumkin.

Demak, rasmiy sharhlash normativ va kazual turlarga bo'linadi. Normativ sharhlash, o'z navbatida, autentik, legal va kazual turlarga ajratiladi. Rasmiy sharhlashning muayyan xususiyatlari subyektlarning huquqiy mavqeiga bog'liq. Shuningdek, rasmiy sharhlashni ofitsioz sharhlashdan, ya'ni davlat hokimiyati va boshqaruvi funksiyasini amalga oshirmagan holda huquq normalarini sharhlash, aniqroq aytganda, davlat organlari o'zlarining rasmiy faoliyatidan tashqari holatda huquq normalarini sharhlashidan farqlash kerak. Mazkur sharhlash norasmiy sharhlash turlaridan bo'lib, ularni quyida ko'rib o'tamiz.

*Norasmiy sharhlash* maxsus vakolat berilmagan organlar va shaxslar (advokatlar, olimlar va alohida shaxslar) tomonidan amalga oshiriladi, majburiy xususiyatga ega bo'lmaydi, yuridik oqibatlariga olib kelmaydi. Uning ahamiyati sharhlovchining obro'si, maxsus bilimi va sharhlash shaklining asoslantirilganligi bilan bog'liq. Norasmiy sharhlash yuridik kuchga ega bo'lmagani bois majburiy hisoblanmasa ham, shaxsning ijtimoiy va huquqiy ongi o'sishida, muayyan subyektlarning xulq-atvori takomillashuvida katta yordam beradi. Huquqshunos olimlar tomonidan ishlab chiqiladigan hamda tergovchi va sudyalari o'rtasida e'tibor qozonadigan, kodekslarga beriladigan sharhlar bunga misol bo'lishi mumkin.

Huquqni norasmiy sharhlash natijalari umummajburiy ahamiyat kasb etmaydi va aynan shu jihati bilan rasmiy sharhlashdan farqlanadi.

Huquqni norasmiy sharhlash *oddiy (kundalik), kasbiy va doktrinal* bo'lishi mumkin.

*Oddiy (kundalik) sharhlash* huquqiy faoliyat sohasida mutaxassis bo'lmagan fuqarolar tomonidan huquqiy norma mazmunini aniqlash va tushuntirishdir. U huquq, odil sudlov, qonunchilik va shu kabilarga doir suhbatlar, xatlar va boshqalar ko'rinishlarida uchraydi. U huquqiy haqiqatni tushunishning kundalik og'zaki ifodasidir.

Ijtimoiy hayotning demokratlashuvi, davlat boshqaruviga keng ommaning jalb qilinishi kuzatilayotgan hozirgi kunda kundalik sharhlash-

ning ahamiyati oshib bormoqda. Chunki, «qonun ustuvorligini ta'minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlari muhofazasini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga bo'ysunish va hurmat ruhida tarbiyalash rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan chinakam demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishning nafaqat maqsadi, balki vositasi, eng muhim sharti hamdir»<sup>1</sup>.

Huquqni *kasbiy sharhlash* xizmat faoliyatida doimiy ravishda huquqni qo'llash bilan shug'ullanuvchi, sud-huquq sohasida faoliyat ko'rsatadigan xodimlarning huquq normalari mazmuni tushunishi va tushuntirishidir. Kasbiy sharhlash bilan sudya, prokuror, advokat, notarius va boshqa yuridik kasb vakillari shug'ullanishi mumkin.

*Doktrinal (ilmiy) sharhlash* huquq sohasidagi mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi va ilmiy xususiyatga ega bo'ladi. Bu huquqshunos olimlarning maqola va monografiyalari, aholi oldidagi ma'ruzalari bo'lishi mumkin. Bunday tushuntirishning alohida xususiyatlari ularning ilmiy nuqtai nazarga asoslangan qat'iyiligida va huquqni sharhlayotgan shaxsning obro'sida ifodalanadi.

Huquqni ilmiy (doktrinal) sharhlash ilmiy xodimlar, olimlar, mutaxassislar tomonidan monografiyalar, darsliklar, ma'ruzalar va ilmiy maqolalarda amalga oshirilishi mumkin. Norasmiy ilmiy sharhlash natijalari davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasa, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiy bo'lmas-da, huquqiy normalar mazmunini tushuntirib beradi. Bu sharhlash huquqiy normalarni amaliyot bilan bog'lab, kishilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Norasmiy ilmiy sharhlash qonunlarni takomillashtirishda, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini yaxshilashda, qonunchilikni mustahkamlashda yordam beradi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va kodekslariga berilgan sharhlarni ilmiy sharhlarga misol qilib keltirish mumkin.

Shunday qilib, huquq normalarini sharhlashning asosiy turlari huquqni qo'llovchi subyektlarning to'g'ri va samarali ishlashi uchun katta ahamiyatga ega. Huquq normalari sharhlash natijasida aynan sharhlovchi subyekt tomonidan tushunilishi va tushuntirib berilishi lozim.

---

<sup>1</sup> Qarang: *Каримов И. А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак.* Т. 10. – Т., 2002. – Б. 28.

## II bob.

# HUQUQNI TATBIQ ETISHDA SHARHLASHNING O‘RNI VA ROLI

### 1-§. Sharhlash – huquqni tatbiq etishning muhim bosqichi

Har qanday huquq normasi muayyan mazmun va ma’noga ega bo‘ladi. Huquq normasida ijtimoiy munosabat ishtirokchilari huquq va majburiyatlarining o‘zaro mutanosibligi, muvofiqligi aks etadi. Agar muayyan huquq qarshisida unga teng keluvchi, uning ro‘yobga chiqishini ta’minlovchi majburiyat bo‘lmasa, huquq hech narsa bo‘lmay qoladi. Har qanday huquq normasining talabi qat’iy bo‘lib, unda ifodalangan huquq va majburiyatlar lozim darajada bajarilmagan taqdirda tegishli sanksiya qo‘llaniladi. Huquqiy munosabatlar ishtirokchilari huquq va majburiyatlarining amalga oshishi murakkab jarayon bo‘lib, umumiy tarzda huquqni tatbiq etish (amalga oshirish) degan atama qabul qilingan.

Huquq amalga oshirilgan taqdirdagina shaxs va jamiyat uchun ma’no va mazmun kasb etadi. Agar huquq hayotga tatbiq etilmasa, «jonsiz» holda qolishi muqarrar. Huquq normalarining bosh vazifasi shaxs huquqlarining mazmunini aniqlashga yordam berish va shu tariqa amalga oshirilishiga imkon yaratishdir<sup>1</sup>. Huquq normalari tatbiq etilganida ularni sharhlash shuning uchun zarurki, huquq normalari shaxslarning o‘zaro munosabatida qanday xatti-harakat modeliga, namunasiga rioya etishlari lozimligini, ya’ni qaysi harakatlarni sodir etish yoki etmaslik mumkinligini ko‘rsatadi.

Qonunni amalga oshirish mexanizmi uning loyihasi bitilayotgan, so‘ngra qonun parlament tomonidan qabul qilinayotgan chog‘da yaratiladi, bu jarayonda qonun vositasida o‘rnatiladigan har bir huquqqa aynan mos majburiyat shakllantirilishi lozim. Shu bilan birga, mazkur majburiyat bajarilmagan taqdirda uni amalga oshirish choralari nazarda tutiladi, ayb uchun tegishli sanksiya belgilanadi. Ana shu uch narsa – huquq, majburiyat va sanksiya qonun amal qilishining mexanizmini tashkil etadi<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Проф. Ҳ. Т. Одилқориев таҳрири остида. – Т., 2009. – Б. 404.

<sup>2</sup> Qarang: Ўзбекистон Республикасининг конституциявий ҳуқуқи / Проф. Ҳ. Т. Одилқориевнинг умумий таҳрири остида. – Т., 2005. – Б. 161.

Huquqni qo‘llash jarayonida «matn tekshirilib, normaning haqiqiyligi va majburiyigi o‘rnatilgach, huquqni qo‘llash bilan bog‘liq keyingi bosqichda uning ma‘nosini aniqlash lozim bo‘ladi. Bu bosqich sharhlashdir»<sup>1</sup>. Huquq normasidagi ushbu holatlar huquq normalarini tatbiq etishda ularni sharhlashga ehtiyoj tug‘diradi. Bunda sharhlashning barcha usul va qoidalaridan foydalanish lozim bo‘ladi.

Tatbiq etilishi lozim bo‘lgan normaning ma‘nosini aniqlab olish normani sharhlashning dastlabki bosqichini tashkil etadi. Huquqiy normalarning ma‘nosini aniqlab olishda, avvalambor, uning matnidagi mazmuni til qoidalariga ko‘ra sharhlash talab etiladi. Bu esa sharhlashning grammatik usuli doirasida amalga oshiriladi. Demak, huquq normalari tatbiq etilishining dastlabki bosqichida sharhlashning grammatik usuli zarur bo‘ladi. Har qanday huquq normasini to‘g‘ri tushunish uchun sharhlovchi subyekt mazkur huquq normalarining matni yozilgan til qoidalarini mukammal egallagan bo‘lishi lozim. Chunki, sharhlash huquq normalari ifoda etilgan til qoidalarini tahlil qilishdan, ya‘ni sharhlashning tilga oid usulidan boshlanadi<sup>2</sup>.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, huquq normasi – ma‘lum bir sharoitda huquq subyektlarining xulq-atvorini belgilab beruvchi qoidadir. Mazkur qoida qonun ijodkorlari tomonidan ifodalanganida ayrim holatlarda normadagi mazmun-ma‘no tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 102-moddasida: «Ehtiyotsizlik orqasida odam o‘ldirish ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi», – deyilgan. Mazkur jumlada gapning egasi noaniq. Aslida, bunda gap ehtiyotsizlik orqasida odam o‘ldirgan shaxs haqida ketmoqda.

Normativ-huquqiy qoidada o‘z ifodasini topgan har qanday to‘g‘ri fikr mantiqiy mazmun va tuzilishga ega. Huquq normalarida kishilarning xulq-atvori qanday bo‘lishi kerakligi to‘g‘risidagi umumiy va mavhum tushunchalar o‘z aksini topadi. Ushbu tushunchalar huquq normalarining umumiy va mavhum xususiyatlarini ifodalab, so‘z va iboralarda namoyon bo‘ladi va rasmiy-mantiqiy yo‘l bilan sharhlanadi.

---

<sup>1</sup> Qarang: *Колоколов Я. Н.* Проблемы аутентического толкования нормативно-правовых актов в трудах российских ученых дореволюционного периода // *История государства и права.* – 2010. – № 2. – С. 45.

<sup>2</sup> Qarang: *Язык закона / Под ред. А. С. Пиголкина.* – М., 1990. – С. 88.

Huquq normalarining mazmunini aniqlash jarayonida sharhlovchi subyekt mazkur normalarni tatbiq etish uchun ularning normativ-huquqiy hujjatdagi, huquq instituti, huquq sohasidagi, shuningdek qonunchilik tizimidagi, umuman, butun huquq tizimidagi o‘rni va rolini, o‘zaro aloqador holatlarini o‘rganishi lozim bo‘ladi. Buning uchun sharhlovchi subyekt sharhlashning tizimli usulidagi o‘zaro bog‘liqlikni ularning huquq va qonunchilik tizimidagi o‘rni nuqtai nazaridan ko‘rib chiqadi.

Qonunchilik tizimi nuqtai nazaridan, huquq normalari: a) ma’lum bir moddada; b) ma’lum bir bo‘lim yoki bobda; v) normativ-hujjatning turli boblari, bo‘limlarida; g) muayyan bir davlat organi tomonidan chiqarilgan turli normativ hujjatlarda; d) turli davlat organlari tomonidan chiqarilgan normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan, o‘zaro kompleks aloqada bo‘lishi mumkin. Masalan, sharhlanayotgan norma mazkur normativ hujjatdagi boshqa bir norma bilan, shuningdek boshqa normativ hujjat yoki bir qancha normativ hujjatlardagi normalar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Huquqni qo‘llash faoliyatining samaradorligi huquqni qo‘llovchining qo‘llanilayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning maqsad va mazmunini aniq va tiniq sharhlay olishiga bog‘liq<sup>1</sup>.

Huquqni tatbiq etish jarayonidagi sharhlash «davlat, vakolatli jamoat birlashmalari, mansabdor shaxs va fuqarolarning yuridik ish qarorlarini asoslash, amaldagi qonunchilikni bir qolipga solish, yuridik amaliyotning yagonaligi va barqarorligini ta’minlash yuzasidan olib boradigan sharhlash faoliyatidir»<sup>2</sup>.

Huquqni tatbiq etish uning ijtimoiy amaliyotga amalda joriy etilishini bildiradi. Bunday ta’rif huquqni tatbiq etish jarayonida va huquqni sharhlash sohasida ham qo‘l keladi. Huquq normalarini tatbiq etishga yo‘naltirilgan obyektiv jarayon sharhlashning ma’lum bir usuli yoki turini emas, balki barcha usul va turlarini qamrab oladi.

Huquq normalaridagi maqsadning tatbiq etilishi aniqlashtirilmagan bo‘lib, mavhum xususiyatga ega. Ularni aniqlashtirish uchun huquq normalari sharhlanadi va bir qator mantiqiy fikrlardan so‘ng normalar tatbiq

---

<sup>1</sup> *Тультеев И. Т., Тастанбекова Г.* Проблемы толкования и прогнозирования в правоприменительной деятельности // *Ўзбекистонда ҳуқуқ фанининг ривожлантиришининг назарий ва амалий муаммолари.* – Т., 2004. – Б. 33.

<sup>2</sup> *Гаврилов Д. А.* Правоприменительное толкование. Автореф. дис... канд. юрид. наук – Волгоград, 2000. – С. 6.

etilishi uchun biror xulosaga kelinadi. Bunda soʻz maqsadni anglash uchun mantiqiy usuldan foydalanish haqida borayapti. Tarixiy sharhlash usuli orqali qonun yaratilishigacha boʻlgan davrda va uning yaratilishi arafasida ahvol qay darajada ekanligiga aniqlik kiritilsa, maqsadli sharhlash qonun tatbiq etilganidan soʻng natija qanday boʻlishi kerakligi haqida xulosa beradi. Sharhlanayotgan normaning tarixiy kelib chiqish shartlari, yaʼni huquqiy norma maʼnosining qabul qilinishi tarixiga murojaat qilish orqali uni huquqiy tartibga solish tizimiga kiritishdan koʻzlangan maqsad aniqlanadi.

Huquqiy normalarni sharhlash qonun ijodkorlari tomonidan koʻzda tutilgan normaning haqiqiy maʼnosini aniqlashdan iborat boʻlib, huquq normalarining maʼnosini aniqlash huquq ijodkorligi, huquqni qoʻllash, normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirishda huquqiy normalar maʼnosining toʻgʻri tushunilishini taʼminlaydi. Sodir boʻlgan ijtimoiy munosabatlarga huquqiy normalarni tatbiq etishdan oldin ularning mazmunini toʻgʻri anglash va sharhlash alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, huquqiy normaning maʼnosi va mazmunini aniqlash huquqni tatbiq etishning barcha shakllari, yaʼni huquq normalariga rioya qilish, ularni bajarish, ulardan foydalanish, ularni qoʻllashda oʻz aksini topadi.

Huquqni tatbiq etishda qonun va boshqa huquqiy hujjatlar matnidagi soʻz va iboralarni grammatik, mantiqiy va yuridik jihatdan talqin etish, tushunib olish muhim. Bunda tatbiq etilayotgan huquqiy normaning taʼsir doirasini belgilash, ularni tegishli munosabatlarga tatbiq etish uchun siyosiy va yuridik malaka talab qilinadi.

Amaliyotda huquqiy normalar qoʻllanilib hal qilinadigan ishlar sud, prokuratura, tergov va surishtiruv organlari tomonidan koʻrilayotganda yoʻl qoʻyiladigan xatolarning koʻpchiligi huquqiy normalarni notoʻgʻri tatbiq etish va sharhlash natijasi boʻlib chiqadi. Shu bois huquqiy normalarni tegishli ijtimoiy munosabatlarga tatbiq etish uchun birinchi navbatda bu huquqiy normaning maʼno va mazmuni aniqlanadi. Bu jarayonda subyektiv huquq va majburiyat sohiblari boʻlgan shaxslar bilan bir qatorda, davlat ham oʻzining huquq yaratuvchi, huquqni bajaruvchi va qoʻllovchi organlari orqali ishtirok etadi.

Huquqni tatbiq etishda sharhlashning ahamiyati shundaki, bunda normativ-huquqiy hujjatda oʻz ifodasini topgan qonun ijodkorlari nazarda tutgan maʼno va mazmun toʻliq va aniq ochib berilishi taʼminlanadi.

Chunki qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tayyorlash qonunshunoslik faoliyatining murakkab va mas'uliyatli turi hisoblanadi. U qonun yaratuvchidan katta bilim va tajribani, shu davlatning Konstitutsiyasi va amaldagi qonunlari tizimidan, qonun yaratish ilmidan xabardor bo'lishni talab etadi.

Huquqni tatbiq etishda sharhlashning ikki jihati uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Birinchi navbatda, normativ-huquqiy hujjatda ko'zda tutilgan davlat amri (irodasi)ning oliy ifodasi, normaning mazmun-mohiyati aniqlab olinadi. Sharhlashning ikkinchi jihati huquq normalarini amaliyotga tatbiq etishda ro'yobga chiqadi. Bunda huquq normalarining tatbiq etilishida kelishmovchilik va tushunmovchiliklar yuzaga kelganida uning qonun chiqaruvchi organ ko'zda tutgan ma'no-mazmuni tushuntirib beriladi. Huquq normalarining haqiqiy ma'nosini tushuntirib berish, ya'ni sharhlashning ikkinchi jihati majburiy yoki majburiy bo'lmagan maxsus rasmiy sharhlash hujjatlarini e'lon qilish orqali amalga oshiriladi.

Huquq normalarini sharhlashning birinchi bosqichi, ya'ni huquq normalarining ma'no-mazmunini aniqlash huquqni tatbiq etishning oddiy shakllarini amalga oshirishning zaruriy sharti hisoblanadi. Huquqni normal amalga oshirish shakllaridan biri huquqiy xatti-harakat hisoblanadi. Bu huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq normalariga mos keladigan, yuridik oqibatlar keltirib chiqaradigan, ijtimoiy foydali ahamiyatga ega ongli xulq-atvoridir.

Huquq normalarini sharhlash jarayonining ikkinchi bosqichi bo'lgan huquq normalarining haqiqiy ma'no-mazmunini tushuntirib berish har doim ham huquq normalarining haqiqiy ma'nosini aniqlab olishdan so'ng amalga oshmasa-da, huquq normalarini sharhlashning birinchi bosqichini amalga oshirish fikriy faoliyatning davomi hisoblanadi. Huquq normalarini sharhlashning ikkinchi bosqichida uning birinchi bosqichida erishilgan natijalar umumlashtiriladi. Mazkur yakun o'z ifodasini yozma shaklda, ya'ni rasmiy huquqiy hujjat shaklida yoki og'zaki tarzda, ya'ni maslahatlar berish, tavsiya etish kabilarda topadi. Demak, huquq normalarini sharhlashning ikkinchi bosqichida, ya'ni huquq normalarining haqiqiy mazmun-mohiyatini tushuntirib berish, normativ-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan davlat irodasini (amrini) bayon qilish va tushuntirib berishdan iborat faoliyat amalga oshiriladi. Huquqni sharhlash jarayonining o'zaro dialektik bog'liq ikki tomonini tashkil etgan huquq normalarining



ma'nosini tushuntirib berish va aniqlab olishda bilish va tushunishning turli usul va vositalaridan foydalaniladi<sup>1</sup>.

Shunday qilib, sharhlash huquq normalarini amaliyotga tatbiq etishning tarkibiy qismidir. Huquqni tatbiq etuvchi davlat organlari, yuridik shaxslar va fuqarolarning barchasi huquq normalarini sharhlovchilar hisoblanadilar. Fuqarolar huquq normalarining ma'nosini anglashda o'zlari uchun uning mazmunini aniqlab oladilar. Bunda huquq normalarining har bir sharhi huquqni qo'llovchilarning individual xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Huquqni qo'llovchi subyektning huquq normalarini amalda hayotga tatbiq etish nuqtai nazaridan tushunishini huquq normalarini sharhlash deb atash mumkin.

Davlat organlari, mansabdor shaxslar, yuridik shaxslar va fuqarolarning sharhlash sohasidagi imkoniyatlari turlicha. Fuqaro yoki yuridik shaxs o'z tushunchasi doirasida va o'z manfaatlarini ko'zlagan holda ma'lum bir tarzda huquq normalarini sharhlar ekan, mazkur sharhlash faqat muayyan huquqiy munosabatlar doirasida amalga oshadi. Agar huquq normalarini sharhlash davlatning vakolatli organlari tomonidan maxsus amalga oshadigan bo'lsa, bunday sharhlash juda katta nufuzga ega bo'lib, huquqni tatbiq etishda namuna hisoblanadi<sup>2</sup>.

Yuqoridagi fikrdan ko'rinib turibdiki, huquqni sharhlashda sharhlovchi subyektlar va boshqa shaxslarning huquqiy ongi va madaniyatining yetukligi katta ahamiyat kasb etar ekan.

Yuridik normalarning fuqarolar, yuridik shaxslar tomonidan sharhlaniishi xususiy xarakterga ega bo'lib, muayyan munosabatlar sohasi bilan cheklanib, maxsus tahlilni talab etmaydi. Sharhlash umumiy asosda xususiy xarakterga ega bo'lmay, keng doiradagi vaziyatlarni qamrab oladi. Huquqni tatbiq etishning eng oddiy shakllari amalga oshganida huquq normalarini norasmiy sharhlash yuzaga keladi. Norasmiy sharhlashning eng ommabop ko'rinishlari qonunchilik va qonunosti hujjatlariga yozilgan sharhlarda namoyon bo'ladi.

Huquqni tatbiq etishning maxsus shakllari doirasida huquq normalarining rasmiy sharhlaniishi amalga oshiriladi. Rasmiy sharhlash majburiy xususiyatga ega bo'lib, ular huquq normalarining tatbiq etilishini oson-

---

<sup>1</sup> Qarang: Теория государства и права. – М., 2001. – С. 179.

<sup>2</sup> Qarang: *Лившиц П. З.* Теория права. – М., 1994. – С. 143.

lashtiradi, huquq normalarini qo‘llashdagi noaniqlik va ziddiyatlarni bar-taraf etadi.

Xulosa qilib aytganda, huquq normalarini tatbiq etishda ularni sharhlash muhim bo‘lib, u huquq normalarining to‘g‘ri tatbiq etilishida yetakchi o‘rinni egallaydi.

Shuni ta’kidlash lozimki, huquqni tatbiq etishdan huquq subyektigina manfaatdor bo‘ladi. Ya’ni, huquqning tatbiq etilishi yoki etilmasligini hal qilish shu huquq subyektiga bog‘liq bo‘ladi. Sharhlash esa huquqni tatbiq etish mexanizmining bir qismi bo‘lib, ushbu jarayonda huquqqa aniqlik kiritiladi va uni to‘g‘ri tatbiq etish imkoniyati paydo bo‘ladi. Mazkur faoliyat ijodiy jarayondir, chunki unda huquq normalari aniqlashtiriladi va talqin etiladi.

## **2-§. Sharhlashning huquqiy ong hamda madaniyatga ta’siri**

Sharhlash jarayonini sharhlovchi organ tomonidan huquqiy qoida-larni tushunib olish va tushuntirib berishga yo‘naltirilgan, mantiqiy ketma-ketlikda amalga oshadigan tizim sifatida tavsiflash mumkin. Ushbu faoliyat sharhlash to‘g‘risidagi hujjatni chiqarish bilan yakunlanadi. Agar ko‘rib chiqilayotgan huquqiy norma hamma uchun tushunarli tarzda bayon etilgan bo‘lsa, sharhlashni rad etish bo‘yicha qaror chiqarish bilan yakunlanadi. Bunda sharhlovchi organning huquq normalarini sharhlash jarayoni ma’lum bosqichlarda olib boriladi.

Sharhlash jarayonlari besh bosqichni qamrab oladi.

*Birinchi bosqich* sharhlash tashabbusini ko‘rsatish bo‘lib, sharhlashni amalga oshiruvchi subyekt tomonidan taklif kiritishda o‘z ifodasini topadi.

*Ikkinchi bosqich* huquqiy normalarni sharhlash zaruratini aniqlashdir. Bunda huquqiy normaning omma uchun tushunarli yoki tushunarsizligi, uni amalga oshirish yo‘lida to‘siqlar bor-yo‘qligi, uni rasmiy sharhlash zarurligiga oid masalalar hal qilinadi. Shuning uchun bunday faoliyat huquqiy normalarni sharhlash vakolatiga ega organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Sharhlash jarayonining *uchinchi bosqichi* sharhlanayotgan huquqiy normaning ma’nosini aniqlashtirishdan iborat bo‘ladi. Bunda huquqiy normani sharhlayotgan organ qonun chiqaruvchi organning maqsadini

tushunib olish uchun normativ-huquqiy normaning mazmunini o‘zi uchun aniqlashtirib oladi. Shu bilan birga, sharhlovchi organ huquqiy qoidaning nufuzi va umumiy ahamiyatini oshirish uchun sharhlashni tasniflab beradi.

Sharhlash jarayonining *to‘rtinchi bosqichiga* sharhlanayotgan huquqiy qoidaning ma’nosini tushunishda o‘z ifodasini topgan yuridik hujjatni qabul qilish (e’lon qilish) xosdir. Aynan shu bosqichda sharhlash amalga oshadi, ya’ni sharhlovchi organ yuridik qoidaning mazmunini qanday tushunganini boshqalarga tushuntirib beradi. Shuningdek, bunda sharhlanayotgan huquqiy qoida hamma uchun tushunarli ekanligi, uni sharhlashning hojati yo‘qligi haqida ham fikr bildirilishi mumkin.

Sharhlash jarayonining *beshingi bosqichida* sharhlash to‘g‘risida qaror chiqarilib, manfaatdor idora va tashkilotlarga ma’lum qilinadi<sup>1</sup>.

Huquqiy normalarni sharhlashda sharhlash hujjatlarini e’lon qilish uning elementlaridan hisoblanadi. Rasmiy sharhlash, aslida, huquqiy normalarni tushunib olish bilan birga, tushuntirib berishni ham qamrab oladi. Shu bois sharhlash natijalarini e’lon qilish sharhlash jarayonining zaruriy bosqichidir. Rasmiy sharhlash – qonun bilan sharhlash vakolati, berilgan davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan sharhlash bo‘lib, umummajburiy ahamiyat kasb etadi<sup>2</sup>.

Huquq normalarini sharhlash jamiyatdagi huquqiy ong va huquqiy madaniyat bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, jamiyat a’zolari va har bir shaxsning huquqiy normalar mohiyatini, qonun talablarini to‘g‘ri tushunishini belgilab beradi hamda qonuniylikka rioya qilish darajasini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti ta’kidlaganidek, «jamiyatning demokratiya yo‘lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati, ko‘p jihatdan, odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasiga bog‘liqdir. Yuksak huquqiy madaniyat – demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizimning yetuklik ko‘rsatkichidir»<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> Qarang: *Спасов Б. П.* Закон и его толкование. – М., 1986. – С. 177–178.

<sup>2</sup> Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Проф. Ҳ. Т. Одилқориев таҳрири остида. – Т., 2009. – Б. 434.

<sup>3</sup> *Каримов И. А.* Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 2010 йил 12 ноябрь. – Т., 2010. – Б. 27.

Huquqiy normalarni sharhlash jarayonida qonunga amal qilishi shart bo'lgan aholining qonunlarni bilishi, huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyat darajasini hisobga olish lozim. Huquq normalarini norasmiy sharhlash – huquqiy axborotni keng yo'lga qo'yish orqali bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, mamlakatda yuridik ta'lim va huquqiy tarbiyaning izchil tizimini joriy etish orqali ta'minlanadi. Huquqni bilmay va tushunmay turib yuksak huquqiy madaniyatga erishishni tasavvur qilib bo'lmaydi<sup>1</sup>. Qonun huquqiy madaniyatning barcha ko'rinishlariga faol ta'sir ko'rsata oladi. Ayni vaqtda, huquqiy madaniyat qonunni samarali sharhlash va qo'llashning omili hamda garovidir.

Mazkur o'zaro ta'sir quyidagilarda namoyon bo'ladi: *birinchidan*, qonun huquqiy mafkuraning in'ikosi bo'lib, huquqiy g'oyalarni ifodalashga, huquqiy tartibga solish muammosini hal qilishga yangi, yanada taraqqiyparvar yondashuvlarning qaror topishiga sharoit yarata oladi; *ikkinchidan*, qonun asosida huquqiy madaniyatning darajasidan dalolat beruvchi qonun osti normativ hujjatlari chiqariladi, huquqiy institutlar shakllanadi; *uchinchidan*, qonunlar va ular asosida chiqarilgan qonun osti hujjatlari orqali madaniyatning eng zarur talablariga javob beruvchi xulq-atvor va munosabatlar tizimi qaror topadi; *to'rtinchidan*, qonun orqali aholiga yuridik madaniyatni singdirishga qodir bo'lgan muassasa va organlar tashkil etiladi yoki shakllantiriladi<sup>2</sup>.

Huquqni sharhlash mamlakatning ijtimoiy hayotida va umuman, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda katta ahamiyat kasb etadi. Barcha ijtimoiy jarayonlar, ya'ni davlat hokimiyati tizimini isloh qilish hamda jamiyatda huquqiy vorislikni ta'minlash barqaror va jadal huquqiy tartibga solishni talab etadi. Bu esa, o'z navbatida, qonunchilikni rejali tarzda rivojlantirishga, huquqiy normalarni izchil amalga oshirishga, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga yordam beradi.

Huquqiy madaniyat – ijtimoiy ong shakllaridan biri, jamiyat umumiy madaniyatining ajralmas va o'ziga xos qismidir. Umuman olganda, huquqiy madaniyatni insoniyat huquq sohasida to'plagan barcha qadriyatlarining mazmuni deb ta'riflash mumkin. Huquqiy ong esa huquqiy

---

<sup>1</sup> Qarang: *Таджиханов У., Саидов А. Хукукий маданият назарияси. Т. 2. – Т., 1998. – Б. 7–9.*

<sup>2</sup> Qarang: *Каримов Р. К. Роль закона в формировании правовой культуры // Хукук–Право–Law. – 1998. – №2. – С. 69–70.*

voqelikning inson ongida aks etishi, huquq to'g'risidagi g'oyalar, qarashlar majmuasidir.

Jamiyatning huquqiy madaniyati huquqiy ong, qonuniylik, qonunlarni takomillashtirish va huquqiy tajribaning muayyan darajasini aks ettiradigan hamda insoniyat huquq sohasida yaratgan butun boyliklarni qamrab oladigan ijtimoiy madaniyatning uzviy qismi hisoblanadi. Shaxsning huquqiy madaniyati – jamiyat huquqiy madaniyatining zaruriy sharti, maqsadi va tarkibiy qismidir<sup>1</sup>.

Huquqiy demokratik davlat qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidan borayotgan mustaqil O'zbekistonda fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish hozirgi davrda g'oyat muhim va dolzarb muammodir. Shu bois, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirish, fuqarolarning barcha qatlamlarining huquqiy savodxon bo'lishiga hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlariga erishish vazifalari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997-yil 29-avgustda tasdiqlangan «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi»da<sup>2</sup> ham belgilab berilgan.

Yurisprudensiya sohasida faoliyat ko'rsatayotgan ko'pchilik olimlar huquqiy ongni odamlarning huquq hamda huquqiy hodisalar munosabatiga doir g'oyalari, qarashlari, his-tuyg'ulari, ishonchlari majmui sifatida ta'riflaydilar. Ularning fikricha, huquqiy ong ijtimoiy ongning shunday sohasidirki, uning qamrovida: tushuncha, taassurot, baholash, fikr yuritish kabi jarayonlarning huquq normalarigina shakllanib qolmasdan, balki huquqiy tizimning xilma-xil qismlari borasida tushunchalar yuzaga keladi.

Huquqiy ong ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida jamiyatning huquqiy hayotida o'z aksini topadi. Bu in'ikosning xususiyatlari yuridik tushuncha va kategoriyalarda ifodalanadi, shuningdek huquqiy ong darajasi bilan huquqning jamiyat hayotiga ta'sir ko'rsatish darajasi o'rtasida aloqadorlik mavjudligi ko'zga tashlanadi.

Huquqiy ong, o'z navbatida, jamiyat hayotining iqtisodiy omili va moddiy sharoitlari hamda aholining huquqiy savodxonlik darajasi bilan

---

<sup>1</sup> Qarang: *Таджиханов У., Саидов А. Хуқуқий маданият назарияси. Т. 1. – Т., 1998. – Б. 30–31.*

<sup>2</sup> Qarang: *Жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш миллий дастури // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1997. – № 9. – 227-модда.*

bog‘liq. Shuningdek, qonunlarning mazmunini bilish darajasi jamiyatda huquqiy ongning rivojlanganlik darajasi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi: «...bugungi siyosiy-huquqiy voqelikni hisobga olgan holda, mamlakatimizda huquqiy ta’lim va ma’rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar targ‘ibotini tubdan yaxshilashga yo‘naltirilgan maqsadli keng ko‘lamli chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish zarur. Ushbu dasturning amalga oshirilishi aholining inson huquq va erkinliklariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishini, fuqarolarda qonunga itoatkorlik tuyg‘usining yanada ortishini ta’minlaydi»<sup>1</sup>.

Huquqiy normalarni sharhlash masalasi O‘zbekiston davlatchilik rivojlanishi va amal qilishining hozirgi bosqichida muhim omillardan biridir. Qonun hujjatini noto‘g‘ri sharhlash huquqni tatbiq etishda salbiy oqibatlariga olib keladi. Ammo, shu bilan birga, huquq normasining nafaqat ijobiy, balki salbiy sharhlanishi mumkinligini ham inobatga olish lozim.

Huquq mazmunini aniqlash sharhlovchining ijodkorligini va ma’naviy faolligini talab qiladi. Sharhlashning muvaffaqiyati sharhlovchi subyektlarning huquqiy madaniyati darajasiga bog‘liq. Zero, kundalik turmushda ko‘pgina huquqbuzarlik holatlari aholining mavjud huquq normalarining mazmun-mohiyatini yaxshi bilmasligi yoki ulardan mutlaqo bexabarligi natijasida yuzaga kelmoqda. Bunday hollarda huquqni muhofaza qiluvchi organlarining xodimlari «qonunni bilmaslik javobgarlikdan ozod qilmaydi» degan prinsipga asoslanib, fuqarolarni yuridik javobgarlikka tortadilar<sup>2</sup>.

Bu huquqiy nigilizmning yaqqol ko‘rinishidir. Bunga, eng avvalo, jinoiy jazolanadigan qilmishlarni, shuningdek fuqaroviy, ma’muriy va intizomiy nojo‘ya xatti-harakatlarni kiritish mumkin. Shuning uchun, qonunlarimiz asoslaridan xabardor bo‘lish yoshlar o‘rtasida huquqbuzar-buzarlik holatlarining oldini olishda, ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda ijobiy natija bermoqda. Qonunlarni yaxshi bilgan shaxsgina ularga rioya qiladi. Bunday inson o‘zini, oilasini, xalqi va davlatini himoya

---

<sup>1</sup> *Каримов И. А.* Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т., 2010. – Б. 27–28.

<sup>2</sup> Qarang: *Сувонқулов М. И.* Ҳозирги замон ҳуқуқий нормаларини шарҳлашнинг назарий-ҳуқуқий масалалари // Ўзбекистонда ҳуқуқ фанини ривожлантиришнинг назарий ва амалий муаммолари. – Т., 2004. – Б. 100–101.

qila oladi. Qonun talablariga qat'iy rioya etish, qonunlarimizga yuksak ehtirom ko'rsatish, qonun oldida barcha fuqarolarning teng va mas'ul ekanligini, bu masalada hech kimda alohida imtiyoz yo'qligini chuqur idrok etish, ana shu qadriyatni ongiga mukammal sindirish barcha uchun muhim fazilat hisoblanadi.

Bu borada inson huquqlari masalasini jiddiyroq o'ylab ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi. Inson huquqlari va erkinliklarining buzilishi hamda ularga rioya etmaslik huquqiy nigilizmning to'rtinchi shaklidir<sup>1</sup>. Inson o'z xatti-harakatlarining natijasi shaxsga, davlatga yoki jamiyatga muayyan bir xavf keltirishini bilmagan yoki umuman xohlamagan bo'lishi mumkin. Shuning uchun hozirgi kunda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlashni muayyan tarzda yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Chunki huquqiy ong jamiyat taraqqiyotiga, ijtimoiy turmush rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy g'oyalar, bilim va tasavvurlar, huquqiy nazariyalar ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga kirib borib, fuqarolarning ongidan o'rin oladi, ularning xulq-atvori va amaliy faoliyatiga mafkuraviy hamda psixologik ta'sir etadi. Huquqiy ong elementlari shaxslarni ma'lum darajada o'zlarini idora qilishga, mavjud qonun-qoidalar doirasida o'z huquq va erkinliklarini samarali amalga oshirish yuzasidan faoliyat ko'rsatishga undaydi.

Ta'kidlash joiz, huquqiy madaniyatning yuksalishi huquqiy ta'lim va tarbiya jarayonlariga qanchalik e'tibor ko'rsatilishiga bog'liq. Jahon tajribasiga nazar tashlasak, Yaponiya va Malayziya kabi davlatlarda huquqiy madaniyat o'quvchilarga maktab davridanoq singdirib borilishini kuzatish mumkin. Bu mamlakatlarda yoshlarning parlament binosi oldiga kelib ta'zim qilishi odatiy hol. Mazkur an'ana nafaqat parlament va qonunlarga hurmat, balki mamlakatda qonun chiqaruvchi organga bo'lgan ishonch va ehtiromdan ham dalolatdir<sup>2</sup>.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda huquq normalarini sharhlash usul va turlaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, huquq normalarini hayotga tatbiq etish kishilar ongli faoliyatining natijasidir. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasi huquqshunos-

---

<sup>1</sup> Qarang: Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Проф. Ҳ. Т. Одилқориев таҳрири остида. – Т., 2009. – Б. 312.

<sup>2</sup> Qarang: *Очилов А. Ҳуқуқий маданият зарурати // Ҳуқуқ ва бurch. – Т., 2010. – № 11. – Б. 34.*

larning kasbiy huquqiy ong darajasini belgilab beradi. Kasbiy huquqiy ong sharhlashning muhim xususiyatlaridan biri, uning kasbiy huquqiy ongga asoslanishidir. Bunda huquqiy tafakkur muhim rol o‘ynaydi. Huquqiy tafakkurning asosini haqqoniy yuridik bilim, jamiyatda huquqiy vositalar orqali hal qilinayotgan vazifalarni nazariy anglagan holda tushunish tashkil etadi. Istiqlol va islohot davrida huquqning tobora inson hayoti va faoliyatining uzviy qismiga aylanib borishi huquq hodisasini yangi darajadagi tafakkur mavzuiga aylantirishda to‘plangan bilimlarni, ma’lumotlarni umumlashtirish va tizimlashtirishga, huquqning izchil amal qilishini ta’minlovchi g‘oya va nazariyalar, mazmunli tushunchalar yaratishga ehtiyojni yuzaga keltirdi.

Shu nuqtai nazardan, huquqiy tafakkur davlatning huquqiy siyosatini belgilash, huquqiy tizimni shakllantirish, umuman, huquq hodisasini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, istiqlool mohiyatiga mos huquqiy tafakkurning shakllanishi va rivojlanishiga ayni zamonda jamiyatda hukmron bo‘lgan munosabatlar, amaldagi qonunchilik, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, huquqshunoslik fanining darajasi, shuningdek donishmand ajdodlarimizning boy huquqiy merosi katta ta’sir ko‘rsatdi<sup>1</sup>.

Huquq normalarini samarali tatbiq etishda huquqni kasbiy sharhlash turining ahamiyati beqiyosdir. Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, kasbiy sharhlash huquqshunoslar tomonidan yuridik jarayonning turli bosqichlarida amalga oshiriladi; huquq ijodkorligi jarayonida, huquqni tatbiq etish, qo‘llashda va shu kabi boshqa holatlarda yuz beradi.

Amaldagi qonunchilikning sifat darajasi va qonunlarni amaliyotga tatbiq etishning muvaffaqiyati kasbiy huquqiy sharhlashga bog‘liqdir. «Hozirgi paytda ayrim qonunlardagi kamchiliklar ularni ishlab chiqaruvchilarning yetarli tayyorgarlikka ega emasligi tufayli vujudga kelmoqda. Jumladan, deputatlarning yuqori darajadagi yuridik ma’lumotga ega emasligi salbiy natija bermoqda. Qonun ijodkorligi barcha ijodiy faoliyat singari qonunshunosdan nafaqat umumiy madaniyatni, balki qonun hujjatlarini shakllantirish va ifodalash bilan bog‘liq maxsus bilim va malakalarni o‘zlashtirishni ham talab etadi»<sup>2</sup>. Chunki, qonunlar adolatli va huquqiy

---

<sup>1</sup> Qarang: *Одилқориев Х.* Конституция ҳуқуқий тафаккур ва маънавий салоҳият кўзгуси // ТДЮИ ахборотномаси. – 2007. – № 5. – Б. 15.

<sup>2</sup> *Халилов Э. Х.* Становление и развитие высшего законодательного органа государственной власти Республики Узбекистан. Автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. – Т., 2000. – С. 28–29.



kuchga ega bo'lishi bilan birga «...bevosita ta'sir etish kuchiga ega bo'lishi kerak, amaliyotda paydo bo'ladigan har qanday masalalarni huquqiy tizim qoidalariga muvofiq hal qilishga imkon berishi zarur. Buning uchun qonunlar pishiq va puxta bo'lishi, ya'ni masalani hal etish uchun ijrochilarga oshirilganda va ko'pincha bir-biriga zid bo'lgan normativ hujjatlar va yo'riqnomalar bilan cheklab qo'yilganda sansalorlikni imkoni boricha kamaytirishi kerak»<sup>1</sup>.

Kasbiy huquqiy sharhlash kasbiy huquqiy ongga asoslangani bois yuristlar kasbiy huquqiy sharhlashni amalga oshirishlari maqsadga muvofiqdir. Bunga misol qilib, D. U. Aripovning O'zbekiston Respublikasining «Chiqindilar to'g'risida»gi qonuniga sharhini keltirish mumkin. Qonunning mazkur sharhida uning amaldagi barcha moddalari hamda ularga kiritilgan so'nggi o'zgartish va qo'shimchalar tahlil qilingan. Ushbu sharh «Chiqindilar to'g'risida»gi qonunning rasmiy matni va uning moddalariga batafsil va atroflicha yozilgan sharhni qamrab oladi<sup>2</sup>.

Kasbiy huquqiy sharhlash masalalarini ko'rib chiqishda mazkur sharhlash protsessual normalar bilan bog'liqligini esdan chiqarmaslik kerak. Qonunlar huquqiy sharhlash jarayonlarini tartibga solib turadi. Binobarin, sudgacha ish yuritish paytida qabul qilingan protsessual qarorlar va amalga oshirilgan protsessual harakatlarning qonuniyligi va asosliliigi kasbiy huquqiy sharhlash orqali amalga oshiriladi. Chunki, jinoyat protsessining sudgacha bosqichlari dastlabki davrda hal qilinishini nazarda tutadi. Bunda, aksariyat hollarda huquqlari va manfaatlari buzilgan shaxs jinoyat protsessining sudgacha bo'lgan bosqichlarida surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organning qarorlari va harakatlari ustidan shikoyat qilish huquqiga ega bo'ladi. Shu sababli kasbiy huquqiy sharhlash mutaxassis huquqshunoslar tomonidan amalga oshirilishi va unga *rasmiy tus berilishi* lozim, deb hisoblaymiz.

Yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'ladiki, huquq normalarini sharhlash hozirgi sharoitda juda dolzarb bo'lib, jamiyatning huquqiy qarashlari va e'tiqodlarini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning huquqiy ongida qonunlarga rioya qilishning maqsadga muvofiqligi g'oyasi

---

<sup>1</sup> Каримов И. А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т., 1998. – Б. 125–126.

<sup>2</sup> Qarang: Aripov D. U. Ўзбекистон Республикасининг «Чикиндилар тўғрисида»ги қонунига шарҳ. – Т., 2007. – Б. 89.

huquqning hamma uchun umumiyligi, fuqarolar huquq va erkinliklarining haqiqiy kafolatlanganligiga asoslanishi juda muhim<sup>1</sup>. Boshqacha aytganda, jamiyatdagi tartib va uning a'zolarining qonunga itoatkorligi bevosita jamiyat huquqiy madaniyatining darajasiga bog'liq. Huquqiy madaniyat esa aholi huquqiy jihatdan savodli bo'lgan, ya'ni huquq normalarini va umuman normativ-huquqiy hujjatlarni to'g'ri sharhlash qobiliyati bo'lgan taqdirdagina mavjud bo'ladi. Shunday ekan, biz jamiyat huquqiy madaniyatining har bir tarkibiy qismida mavjud muammolarni o'z vaqtida aniqlashimiz hamda ularni hal etish va yanada takomillashtirish borasida muntazam ravishda ish olib borishimiz zarur. Bugungi kunda kelajak avlod huquqiy madaniyatini shakllantirish va yuksaltirishning muammolarga boy tarkibiy qismi huquqiy ong va uni yanada ko'tarish borasida huquqiy savodxonlikni oshirish hisoblanadi, desak xato qilmaymiz<sup>2</sup>. Huquq normalari aholiga qanchalik ma'lum va tushunarli bo'lsa, ularning amalga oshishi, jumladan, qo'llanilishi shunchalik samarali bo'ladi.

### **3-§. Zamonaviy huquqiy tizimlarda huquqni sharhlashning o'ziga xos jihatlari**

Huquq normalarini sharhlash, zamonaviy huquqiy tizimlarning xilma-xilligi bois, turlicha rivojlangan. Umumiy huquqiy tizimda (anglo-amerika huquq tizimida), tarixiy shakllanish jarayoniga ko'ra qonunlar mavjud bo'lsa-da, sud qarorlari muhim rol o'ynaydi. Anglo-amerika huquqiy tizimida qonunlar sudlar tomonidan sharhlanmaguncha hech qanday ma'noga ega bo'lmaydi. Kontinental huquqiy tizimda sud amaliyotining roli beqiyos bo'lsa ham, qonunlarga hurmat balanddir. Kontinental huquqiy tizimda kodekslar asosida huquq yaratilsa, umumiy huquqiy tizimda sud amaliyotida yaratilgan normalar kodeksda o'z aksini topadi<sup>3</sup>. Shu narsaga e'tibor qaratish joizki, turli mamlakatlarning huquqiy tizimlari, ayniqsa qonunchiligi turfa tillarda, turli yuridik texnika qoidalari

---

<sup>1</sup> Qarang: *Хамраев А. А.* Судьяларнинг касбий ҳуқуқий онги (назария ва амалиёт). – Т., 2003. – Б. 137.

<sup>2</sup> Qarang: *Исмаилов И.* Ҳуқуқий маданият: уни шакллантириш ва юксалтириш муаммолари // *Вола ва замон.* – 2008. – № 2. – Б. 8.

<sup>3</sup> Qarang: *Рене Давид.* Основные правовые системы современности. – М.; 1967. – С. 379.

asosida ma'naviyati, e'tiqodi, tarkibiy tuzilishi har xil bo'lgan jamiyatlar uchun yaratiladi<sup>1</sup>.

Angliyada sharhlash mazkur mamlakatning ko'p asrlik taraqqiyotida vujudga keltirilgan odat huquqi va statut huquqi asosida amalga oshiriladi va alohida qonun asosida tartibga solinadi. Mazkur qonun 1889-yil 30-avgustda qabul qilingan bo'lib, unda ikkita umumiy prinsip ko'zga tashlanadi<sup>2</sup>. *Birinchi prinsipga* ko'ra, sharhlash to'g'risidagi qonun faqat qonunlarda maxsus tushunchalar berilmagan holatda qo'llaniladi. Sharhlash to'g'risidagi qonunning har bir moddasida boshqa qonunlar asosida sharhlashning boshqa qoidalari belgilanishi mumkinligi haqida so'z boradi. *Ikkinchi prinsip* esa sharhlashning aks ta'sir ko'rsatish natijasidir. Buning ma'nosi shundaki, qonunlarni sharhlash jarayonida yangi huquqiy normalar yaratilmaydi va mavjudlari o'zgartirilmaydi. Sharhlanayotgan normani qonun yaratuvchi organ qanday tushungan va unga qanday ma'no bergan bo'lsa, o'sha ma'nosi o'zgarmay qolishi kerak.

Sharhlash to'g'risidagi qonunda mazkur qonunning qo'llanishi belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, ushbu qonun kuchga kiritilganidan boshlab qo'llaniladi va ungacha mavjud bo'lgan qonunlar uchun amal qilmaydi. Sharhlash to'g'risidagi qonun o'z mazmuniga ko'ra turli termin, tushuncha va normalardan iborat. Qonun mazkur termin va tushunchalardan foydalanish qoidalarini belgilaydi, shuningdek qonunlarni sharhlashni tartibga soluvchi huquq normalarini o'rnatadi. Tabiiyki, sharhlash to'g'risidagi qonun sharhlashning eng muhim qoidalarini belgilab beradi, chunki huquq normalarini sharhlashda duch kelinadigan barcha holatlarni bir qonun bilan tartibga solish mumkin emas.

Sharhlash to'g'risidagi qonunning yarmidan ko'proq matnini egallagan 10 ta modda qonunlarda foydalaniladigan maxsus termin va tushunchalarni ta'riflashga bag'ishlangan. Masalan, qonunning 13-moddasi beshinchi qismida belgilanishicha, «Angliya, Uels va Irlandiyada o'z ifodasini topgan «assizlar» iborasi odatda har yili o'tkaziladigan assizlar sudlarini bildiradi» va hokazo. Sharhlash to'g'risidagi qonunda huquqni qo'llovchilar uchun boshqa ko'plab foydali ta'riflar mavjud bo'lib, ular aksariyat mamlakatlarning qonunchiligida o'z aksini topmagan.

---

<sup>1</sup> Qarang: Давид Р., Жоффре-Спиноза К. Основные правовые системы современности. – М., 1996. – С. 18.

<sup>2</sup> Qarang: Митрофанов Ю. А. Толкование закона в Великобритании и его нормативное регулирование. – М., 2000. – С. 206.

Shunday qilib, umumiy huquq tizimida sud qarorlariga havola etilmay qabul qilinadigan qarorlar juda kam uchraydi. AQSHda Asosiy qonun – Konstitutsiya umumiy huquq ustidan hukmronlik qila oladi. Ushbu mamlakatda qonunchilik keyinroq shakllangan bo‘lib, kodifikatsiyalashgan xususiyatga ega emas. Shuning uchun u yerda qonunga bo‘lgan munosabat sud qarorlariga bo‘lgan munosabat bilan bir xil emas. Hozirgi sharoitda ularning o‘zaro yaqinlashuvi kuzatilmoqda. AQSH statut huquqida Angliya huquqida bo‘lmagan kodekslar ham uchraydi. Bir qancha shtatlarda Fuqarolik kodeksi amal qiladi, 25 ta shtatda Fuqarolik protsessual kodeksi, hamma shtatlarda Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslari mavjud.

Huquqning normativ rivojlanishida vakolatli organlarning bevosita huquq ijodkorligi natijasida huquqiy tartibga solishning maxsus-yuridik, tenglik xususiyatlari rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar ochib berilgan. Muayyan sud qarorlari asosida buni amalga oshirish mumkin emas, chunki sudya birinchi navbatda muayyan ishni qanday hal etish lozimligi haqida bosh qotiradi<sup>1</sup>.

Huquqning normativ rivojlanishi ijtimoiy hayotning murakkab muammolarini hal etishda normativ qarorlar zarurligidan kelib chiqadi. Shuning uchun anglo-amerika huquq tizimida ham qonunlarga bo‘lgan munosabat o‘zgara borib, huquqning normativ yo‘ldan rivojlanishi ko‘zga tashlanmoqda. Shu bilan birga, parlament tomonidan yaratilgan qonunlar asosiy huquq manbai sifatida tan olingan mamlakatlarda sud qarorlariga ham e‘tibor kuchaytirilmoqda.

Sud qarorlarining haqiqiy roliga baho bermoq uchun asosiy e‘tiborni uning doktrinal roliga emas, balki boshqa omilga, ya‘ni sud amaliyoti bo‘yicha to‘plam va ma‘lumotlarning ko‘payib borayotganiga qaratmoq lozim. Ushbu to‘plam va ma‘lumotlar huquq tiraji yoki sotsiologiya uchun yozilmay, balki «sud amaliyoti bevosita huquq manbai sifatida tan olinayotganligidir»<sup>2</sup>.

Demak, sud amaliyoti – sud organlarining yuridik normalarni sharhlash, qo‘llash kabi holatlar bo‘yicha olib boradigan faoliyati bo‘lib,

---

<sup>1</sup> Qarang: *Тасманбекова Г.* Замонавий ҳуқуқ тизимларида ҳуқуқни шарҳлаш хуусиятлари // Давлат ва ҳуқуқ назариясининг долзарб муаммолари мавзусидаги илмий-назарий конференция материаллари. – Т., 2011. – Б. 152.

<sup>2</sup> Qarang: *Давид Р.* Основные правовые системы современности. – М., 1967. – С. 142.

sud huquqni qo'llash natijasida muayyan qarorlar qabul qiladi. Sud amaliyotida huquqni sharhlashning mohiyati shundaki, bunda huquqiy tushuntirish va huquqiy holatlarni tahlil qilish amalga oshiriladi. Ammo sud amaliyotining o'zigina huquq manbai emas. Masalan, Fransiyada sud amaliyoti milliy miqyosda yagona shakldagi huquq manbai hisoblanadi<sup>1</sup>.

Yuridik adabiyotlarda Oliy sud Plenumining tushuntirishlarini bevosita yoki bilvosita huquq manbai sifatida tan olish kerakligi haqida fikrlar bildirilmoqda<sup>2</sup>. Masalan, valutaga oid qonunchilikda jismoniy shaxsning «doimiy yashash joyi» tushunchasi ta'riflanmagan, uning ta'rifi fuqarolik qonun hujjatlarida ham berilmagan. Shu bois ushbu tushunchaning mazmuni rasmiy sharhlarda ifoda etilgan.

Ma'lumki, yuridik so'z va iboralar barcha mavhum tushunchalarni yoxud ma'lum bir tushuncha yoki hodisani qamrab oladi. Birinchi usul qo'llanilganida qonun matni murakkablashadi va qonunchilikda bo'shliq paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Ikkinchi usulni qo'llashning ham o'ziga xos murakkabliklari bor. U yoki bu termini qo'llash so'z va iboralarning xususiyatidan kelib chiqadi. Umuman olganda, ikkala usulni qo'llab, ma'lum bir mutanosiblikka erishish mumkin<sup>3</sup>.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, Buyuk Britaniyada normativ-huquqiy hujjatlardagi so'z va iboralarni qanday tushunish kerakligi to'g'risida alohida qonun mavjud. Unga ko'ra, «yozma» iborasi so'zlarni yozma shaklida mavjudligini bildirish ko'zda tutilgan mamlakatlarning qonunchiligida mazkur tushunchani bunday sharhlash uchramaydi. Ushbu davlat qonunchiligida mavjud Sharhlash to'g'risidagi qonunining 31-moddasida qayd etilishicha, agar qonunosti hujjatlarida so'z va iboralar qonunda ko'rsatilgan ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatilgan bo'lsa, ulardan o'sha holida foydalanish lozim. Mazkur normaning mavjudligi davlat organlarining qonunosti hujjatlarni sharhlashining oldini oladi<sup>4</sup>.

Sharhlash to'g'risidagi qonunning 32-moddasida biror-bir qonun biror-bir shaxsga normativ hujjatlar chiqarish huquqini bergan bo'lsa,

---

<sup>1</sup> Qarang: *Иванов С. А.* Судебные постановления как источник трудового права // Судебная практика как источник права. – М., 1997. – С. 27.

<sup>2</sup> Qarang: *Лившиц Р. З.* Судебная практика как источник права. – М., 1997. – С. 9.

<sup>3</sup> Qarang: *Язык закона / Под ред. А. С. Пиголкина.* – М., 1990. – С. 129–130.

<sup>4</sup> Qarang: *Митрофанов Ю. А.* Толкование закона в Великобритании и его нормативное регулирование. – М., 2000. – С. 206.

mazkur huquq, agar qonunda boshqacha holat nazarda tutilmagan bo'lsa, mavjud normativ-huquqiy hujjatni o'zgartirish, to'ldirish yoki bekor qilish huquqini ham berishi ko'rsatib o'tilgan. Mazkur huquq, normativ-huquqiy hujjatlarni o'zgartirish, to'ldirish yoki bekor qilish normativ-huquqiy hujjatlarni chiqarish uchun o'rnatilgan tartib amalga oshiriladi.

Sharhlash to'g'risidagi qonunning 33-moddasiga asosan bir vaqtning o'zida bir necha qonunlarni, yoki bir vaqtning o'zida ham qonun, ham odat huquqini buzib, huquqbuzarlik sodir etgan shaxs qonun yoki odat huquqi bo'yicha javobgarlikka tortiladi va bir qilmish uchun ikki marotaba jazolanishi mumkin emas. Moddadagi mazkur norma sharhlash uchun qo'llaniladigan normadan ko'ra ko'proq huquqiy prinsipga o'xshab ketadi. Mazkur prinsip bir qator mamlakatlarning qonunchiligida o'z aksini topgan.

Anglo-sakson huquq oilasida qonunlarning alohida turi sifatida umumiy huquqning muayyan qoidalarini bekor qiluvchi qonunlar (disabling Acts), umumiy huquqni to'ldiruvchi yoki unda yangi qoidalar o'rnatuvchi qonunlar (yenabling Acts) ajratib ko'rsatiladi<sup>1</sup>.

Inglizlarda qabul qilinayotgan qonunlarga qisqa nom berish rasm bo'lgan. Masalan, yuqorida ko'rib chiqilayotgan qonun qisqacha «Sharhlash to'g'risidagi qonun» deb nomlangan. Ushbu holat qonunchilik yoki boshqa hujjatlarga havola etilganida qonunchilik matnidan foydalanishda qulaylik tug'diradi. Sharhlash to'g'risidagi qonunning moddalaridan birida qonunlarga havola qilish to'g'risidagi qoida belgilangan<sup>2</sup>.

Normativ-huquqiy hujjatlardagi so'z va iboralarga aniqlik kiritish uchun maxsus hujjat qabul qilinib, unda so'z va iboralar sharhi e'lon qilinishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. AQSHning bir qancha shtatlarida ushbu holat o'z aksini topgan. Masalan, Nyu-York shtatida, «Qonun hujjatlarini umumiy sharhlash» to'g'risidagi qonun mavjud<sup>3</sup>. AQSH huquq tizimi Angliya huquq tizimidan biroz farq qiladi. AQSH tarkibidagi shtatlar keng vakolatlariga ega bo'lib, bu vakolat doirasida ular o'z qonunlari va prezident huquqi tizimini yaratadilar. Har bir shtat sudlari o'z vakolatlarini mustaqil ravishda amalga oshiradi.

---

<sup>1</sup> *Хайитбоев Ф. П., Нажимов М. К.* Хозирги замон асосий ҳуқуқий тизимлари / Масъул муҳаррир: ю.ф.д., проф. З.М.Исломов. – Т., 2008. – Б. 70.

<sup>2</sup> Qarang: *Митрофанов Ю. А.* Толкование закона в Великобритании и его нормативное регулирование. – М., 2000. – С. 207.

<sup>3</sup> Qarang: *Язык закона / Под ред. А. С. Пиголкина.* – М., 1990. – С. 130.

Anglo-amerika huquqiy tizimida amal qiladigan huquq pretsedenti ma'muriy yoki sud organining yozma yoki ma'muriy organlar tomonidan, yangi huquqiy normalar yaratilishiga xizmat qiladi. Ularda sud yoki ma'muriy organlarning qarorlari ikki yoqlama ahamiyatga ega bo'lishi mumkin: birinchidan, sud o'z faoliyati natijasida yangi bir ishni ko'rib chiqadi; ikkinchidan, bu sud qarori kelgusida amalga oshadigan ishlarning ko'rib chiqilishiga asos bo'lishi mumkin. Ikkinchi holatda sud qarori huquq normasiga aylanadi, ya'ni ushbu qaror pretsedentga asoslanadi.

Sud qarorlarini sharhlash pretsedent sifatida quyidagi ko'rinishda bo'ladi: birinchidan, huquq normalarining ma'nosi tushunib olinadi va tushuntirib beriladi. Bu deklarativ pretsedentdir. Ikkinchidan, pretsedent sharhlanayotganda yangi normalar yaratiladi, ularni inglizlar original pretsedent deb nomlaydilar.

Sud pretsedenti huquq shakli bo'lib xizmat qiladigan mamlakat Angliyadir. Bu yerda mavjud pretsedent ingliz odat huquqi deb ham nomlanadi. Shuning uchun yuqorida ko'rib chiqilgan Sharhlash to'g'risidagi qonunda odat huquqini sharhlash prinsiplari bayon qilingan. Unga ko'ra, qonunchilikda ko'zda tutilgan huquq normalarini sharhlash qoidalari mavjud bo'lmagan taqdirda ko'p sonli odat huquqining qoidalaridan foydalaniladi.

Sharhlash to'g'risidagi qonunda sudlar muayyan ishlarni ko'rib chiqishda amal qilishi lozim bo'lgan ko'pdan-ko'p boshqa umumiy qoidalar ham mavjud. Ammo bu huquq normalarining bir xilda sharhlanishi uchun kafolat bo'la olmaydi, chunki Buyuk Britaniya oliy sudlari (yuqori sud, Apellatsiya sudi va Lordlar palatasi) pretsedentlarni hisobga olmagan holda, alohida ishlar bo'yicha o'z qarorlari doirasida huquq normalarini sharhlashi mumkin. Shu bois sharhlashni qonun asosida tartibga solish huquqda uchraydigan turli tushuncha, huquq normalarini har xil tushunish, balki bog'liq turli ziddiyatlarni bartaraf etishning eng maqbul usuli hisoblanadi<sup>1</sup>. Shunday qilib, Angliyada qonunning qabul qilinishi, uni sharhlash sud pretsedentiga bog'liq bo'lib, uning bir xilda sharhlanishiga kafolat yo'q.

Angliya huquqi hozirda ham asosan muayyan holatlarni ko'rib chiqish jarayonida sudlar tomonidan ishlab chiqilgan sud huquqi bo'lib qolmoqda.

---

<sup>1</sup> Qarang: *Митрофанов Ю. А.* Толкование закона в Великобритании и его нормативное регулирование. – М., 2000. – С. 208–209.

Pretsedent qoidasi nuqtai nazaridan qaraganda, bunday yondashuv nizolarini keltirib chiqaradi, bunda umumiy huquq normalari ko‘proq o‘zgaruvchan va biroz mavhum hisoblanadi, lekin roman-german huquq tizimi normalariga nisbatan huquqqa ko‘proq kazuistik mazmun bag‘ishlaydi.

Roman-german huquqi tizimida odat huquqi o‘ziga xosdir. Ushbu tizimda shunday holatlar bo‘ladiki, odatlar «qonunga qarshi» bo‘lib qoladi. Masalan, Italiya navigatsiya huquqida dengiz odati huquqi fuqarolik kodeksi normasidan ustun kelib qoladi. Bugunga kelib odat huquqi, ba’zi istisnolarni e’tiborga olmaganida, o‘z ahamiyatini yo‘qotdi.

Roman-german huquq tizimida sud amaliyotini yordamchi manbalar qatoriga qo‘shish mumkin emas. Bu, birinchi navbatda, «kassatsiya pretse-denti» bilan bog‘liq. Chunki kassatsiya sudi – oliy bosqich bo‘lib, bunda «oddiy» sudning qarori, masalan, qiyoslash yoki umumiy prinsiplarga asoslangan kassatsiya bosqichini o‘tib, shunga o‘xshash ishlarni hal qilishda boshqa sudlar tomonidan farqli pretsedent deb qaralishi mumkin. Ingliz yuristi singari amerikalik yurist uchun ham huquq, avvalo, sud amaliyotidir. Qonun chiqaruvchi tomonidan chiqarilgan normalar ko‘p marotaba sudlar tomonidan qo‘llanilgan va sharhlangandagina sud qarorlari dalil (pretsedent) sifatida keltiriladi<sup>1</sup>.

Roman-german huquq tizimida, shu huquq oilasi asosiy prinsiplarini ishlab chiqqan doktrina alohida o‘rin egallaydi. Doktrina qonun tayyorlash faoliyatida ancha muhim rol o‘ynaydi. U huquqni qo‘llash faoliyatida (qonunlarni sharhlashda) ham keng qo‘llaniladi.

Islom huquq tizimi, boshqa huquqiy tizimlardan farqli ravishda, Qur’ondan boshlanadi. Unda huquq insoniyat aqlu idroki va ijtimoiy shart-sharoitning mahsuli sifatida emas, balki Alloh o‘rnatgan tartib sifatida ta’riflanadi. Huquq normalarini sharhlashdagi farq ham mazkur xususiyatdan kelib chiqadi.

Islom huquqida huquqiy normalar emas, balki jamiyat hayotidagi barcha ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni sharhlash mumkin. Lekin dunyoviy huquqiy tizimlardan farq qilgan holda, islom huquqida sharhlash iborasi qo‘llanilmaydi. Adabiyotlarda keltirilgan «sharhlash» iborasi bilan mazkur faoliyat mazmuni anglatilgan. Islom huquqiga binoan Qur’on normalari sharhlanadi.

---

<sup>1</sup> Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Масъул муҳаррирлар: Ҳ. Б. Бобоев, Ҳ. Т. Одилқориев – Т., 2000. – Б. 398.



Islom huquqi nazariyasida Allohning inoyati boʻlgan huquqqa sharh va izohlar berilishi mumkinligi tan olinadi, shu bois asrlar davomida bunga islom huquqshunos (faqih)larining mashaqqatli mehnati sarflangan. Ularning mehnati yangi huquqni yaratishga emas, balki Alloh bergan huquqdan amaliyotda foydalanishda koʻmak berishga qaratilgan. Musulmon huquqshunoslari orasida eng taniqli shaxs hamyurtimiz Burhoniddin Margʻinoniydir. Bu moʻtabar zot butun islom olamida hanafiy mazhabining fiqh masalalari boʻyicha asosiy qoʻllanmasiga aylangan «Hidoya» kitobi bilan mashhurdir. U islom huquqida fiqh ilmi boʻyicha eng aniq, izchil, mukammal asar sifatida tan olingan. «...Bu sohada oʻzi yaratgan buyuk asarlari va maktabi bilan islom huquqshunosligi asoslarini belgilab bergani va shu ilmning har tomonlama rivoj topishiga qoʻshgan hissasi bilan Margʻinoniy hazratlariga teng keladigan boshqa alloma kamdan-kam topiladi desak, aslo mubolagʻa boʻlmaydi»<sup>1</sup>.

Burhoniddin Margʻinoniy yozgan toʻrt jildlik «Hidoya» kitobi sunniylik oqimida hanafiy mazhabi boʻyicha eng muhim va mukammal huquqiy manba sifatida 57 ta kitob, 165 ta bob, 152 fasldan tarkib topgan boʻlib, meros huquqidan tashqari, furu-l fiqhning barcha sohalarini, nafaqat odatdagi huquqiy sohani, balki ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan. Unda musulmon kishi bilishi shart boʻlgan maqsadlar, amal qilishi talab etilgan roʻza, berishi shart boʻlgan zakot, ziyorat qilishi kerak boʻlgan haj batafsil yoritib berilgan. Burhoniddin Margʻinoniy oʻz asarlarida islom huquqining asosiy manbai boʻlgan Qurʻon oyatlariga tayanib, yuridik normalar, shuningdek diniy va axloqiy munosabatlarni sharhlaydi<sup>2</sup>. Xususan, alloma oila va nikohga oid oyatlarni sharhlashda quyidagilarni taʼkidlaydi: «Bilginki, nikoh bobida guvohlik shartdir». Chunki Rasulloh (s.a.v): «Guvohlarsiz nikoh – nikoh emas»<sup>3</sup>, deganlar. Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki, Burhoniddin Margʻinoniyning «Hidoya» kitobi musulmon olamida mavjud hamda katta amaliy ahamiyatga molik koʻplab huquqiy muammolarni sharhlash orqali hal qilishga qaratilgan.

---

<sup>1</sup> Каримов И. А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Т. 9. – Т., 2001. – Б. 114–115.

<sup>2</sup> Qarang: *Фаззолий Абу Ҳомид*. Мукашафт-ул-кулуб (қалблар кашфиёти). – Т., 2004. – Б. 263.

<sup>3</sup> Qarang: *Бурҳониддин Марғиноний*. Ҳидоя. I жилд. – Т., 2001. – Б. 647–648.

Qozilar sudlov ishini ko‘rayotganda mavqei taniqli bo‘lgan sahih asarlarga murojaat qiladilar. Islom sudining tuzilishi oddiyliги bilan ajralib turadi. Qozining yakka o‘zi hamma turdagi ishlarni ko‘ra olgan. Sudlarda iyerarxiya mavjud bo‘lmagan. Sharq davlatchiligi tarixi xususida asar yozgan dastlabki olimlardan biri Abulhasan Ali ibn Muhammad ibn Habib al-Mavardiy o‘zining «Al-Ahkom as-sultoniyya val-viloyat ad-diniyya» (Davlatchilik qonunlari va shar‘iy boshqaruvlar) asarining oltinchi bobini davlat va jamiyat boshqaruvi tizimidagi adliya ishlariga bag‘ishlagan. To‘liq nomi – «Qozilik. Adliya ishlari. Huquqiy-tashkiliy masalalar va holatlar». Unda turli dolzarb masalalarga ijobiy va xolisona yondashilgan bo‘lib, qozilikning shartlari lo‘nda va batafsil ifoda etilgan<sup>1</sup>.

«Hidoya» kitobida huquqiy masalalarning yechimi dastlab fiqh ilmi-ning taniqli olimlari fiqhlarning bayoni va unga boshqa mujtahidlarning e’tirozlari yoki qo‘shilishlarini izhor etish orqali berilgan. Ana shu obro‘li faqihlarning fikrlaridan kelib chiqib, muayyan huquqiy masalalarda eng maqbul yechimni tanlab olish yo‘liga amal qilingan. Shu tariqa unda qonun-ning aynan ifodasigina emas, balki mukammal sharhi ham asoslab keltirilgan<sup>2</sup>.

Roman-german huquq tizimi o‘ziga xos manbalari bo‘yicha islom huquqi hukmronlik qilgan mamlakatlarni chetlab o‘tmagan bo‘lsa-da, ammo islom huquqi millionlab kishilardan iborat ommaga ta’sir ko‘rsatuvchi mustaqil huquqiy tizimligicha qolmoqda.

Umuman, islom huquqiy tizimi huquqiy normalarni sharhlashga keng o‘rin ajaratadi. Islom huquqiy tizimining negizi – Qur‘on insoniyat aqlu idroki va ijtimoiy shart-sharoitning mahsuli emas, balki Allohning tuhfası deb hisoblanishidan kelib chiqqan holda undagi normalarning mazmun-mohiyatini tushunish va to‘g‘ri tushuntirish muhimdir. Ulardagi huquq normalarini sharhlashdagi farq ham yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan xususiyatdan kelib chiqadi.

Shunday qilib, zamonaviy huquqiy tizimlar xususiyatlari huquqni sharhlashga ta’sir ko‘rsatadi. Huquqiy tizimlarning manbalari, prinsiplari,

---

<sup>1</sup> Qarang: *Жўраев З. М.* Ал-Мовардийнинг «Ал-аҳком ас-султонийя» асарларида адлия ва давлат бошқарувиға оид масалалар // *Хуқуқ–Право–Law.* – № 4. – 2003. – Б. 62.

<sup>2</sup> Qarang: *Исхаков С. А.* Бурхониддин Марғинонийнинг «Ҳидоя» асари – муҳим ҳуқуқий манба (тарихий-ҳуқуқий тадқиқот). *Юрид. фан. номз. ... дис. автореф.* – Т., 2002. – Б. 17.

qonun va odat huquqi nisbati, ta'limoti huquqni sharhlashning tabiatini belgilovchi omil bo'lib xizmat qiladi.

#### **4-§. Sharhlashning huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash faoliyati uchun ahamiyati**

Qonunchilik tizimining sifati qabul qilingan qonunlarning soni bilan emas, balki amalga oshish darajasi bilan bog'liq. Qonun chiqaruvchi organning irodasini anglamay turib huquq normalarini qo'llash mumkin emas. Qonun chiqaruvchi organning qonunlarni sharhlashi huquq ijodkorligi sohasi uchun manfaatlidir. Aslida, qonunlarni sharhlash ularni qo'llash jarayoniga tegishlidir. Huquqni qo'llovchi subyektlar qonun asosida harakat qilishlari uchun qonun chiqaruvchi organ qabul qilingan qonunlarni sharhlash huquqiga ega bo'ladi.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, qonunlarni qonun chiqaruvchi organning o'zi sharhlashi rasmiy sharhlashning autentik turiga kiradi. Agar qonun chiqaruvchi organ qonunlarni sharhlashni boshqa organ zimmasiga yuklasa, mazkur sharhlash legal sharhlash deb ataladi. Ikkala sharhlash turi ham normativ xususiyatga ega bo'lib, yuridik ahamiyatga ega bo'ladi va qonun kabi huquq ijodkorligi xususiyatini kasb etadi<sup>1</sup>.

Autentik sharhlash haqiqiylikni, dastlabki manbalarga asoslanganlikni nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasida autentik sharhlash huquqi O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi, uning palatalari, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo'mitalari, xalq deputatlari viloyatlar, tuman va shahar Kengashlari, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimlariga o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlar bo'yicha berilgan. Bu sharhlashning vazifasi O'zbekiston Respublikasining huquqida huquqiy normalarni to'g'ri qo'llash uchun ularni umummajburiylik kuchiga qarab bir xilda sharhlashdir<sup>2</sup>.

Huquq normalarini sharhlash ma'lum yuridik ishlar bo'yicha yuridik faktlar yoki muayyan huquq normalariga asoslanib amalga oshiriladigan davlatning huquqni qo'llash borasidagi faoliyatida alohida ahamiyat kasb etadi, chunki davlatning huquqni qo'llash borasidagi faoliyati jamiyat

---

<sup>1</sup> Qarang: *Алексеев С. С.* Общая теория права. Т. 2. – М., 1982. – С. 309.

<sup>2</sup> Qarang: *Тастанбекова Г.* Хуқуқ нормаларини шарҳлаш турлари // Фалсафа ва хуқуқ. – 2010. – № 4. – Б. 38.

manfaatlaridan kelib chiqadi va qonunga muvofiq ravishda amalga oshirilishi lozim. Huquqni qo‘llashda sharhlashning ahamiyati shundaki, u orqali huquqiy normalar izohlanadi. Bu, o‘z navbatida, huquq ijodkorligiga turtki beradi. Davlat idoralarining vazifasi, vakolatlari hamda faoliyat yo‘nalishlari qonunda belgilab qo‘yiladi. Ana shu vakolatlar doirasida har bir davlat idorasi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiladi. Ularning vakolatlari darajasi va ko‘lami normativ hujjatlarning yuridik kuchini, o‘zaro mutanosiblik munosabatlarini belgilab beradi.

Odatda, davlat idoralarining huquqiy maqomini belgilovchi qonun hujjatlarida ular qanday yuridik kuchga ega bo‘lgan normativ-huquqiy hujjat qabul qilishi belgilab qo‘yiladi. Masalan, O‘zbekiston Konstitutsiyasiga ko‘ra Oliy Majlis – qonun qabul qiladi (84-modda), Prezident – farmon, qaror va farmoyishlar (94-modda), Vazirlar Mahkamasi esa qaror va farmoyishlar chiqaradi (98-modda).

Mansabdor shaxsning normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlash va qabul qilish faoliyati huquq ijodkorligi hisoblanadi. Qonun chiqaruvchining qonunlarni sharhlashi huquq ijodkorligi sohasiga tegishli bo‘lsa-da<sup>1</sup>, biroq uning huquqni qo‘llash bilan bog‘liq xatti-harakati huquq ijodkorligi faoliyati doirasiga kirmaydi.

Huquq ijodkorligi davlat faoliyatining huquqiy shakllaridan biri bo‘lib, bu jarayonda quyidagi funksiyalar bajariladi: qonunlar, boshqa huquqiy hujjatlar loyihasini tayyorlash, amaldagi qonunchilikni yangilash, uni ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlariga doimo moslashtirib turish, eskirgan huquqiy normalarni bekor qilib borish, huquqda hal etilmagan jabhalarni to‘ldirib borish, qonunchilikni takomillashtirish va tizimlashtirish<sup>2</sup>. Mazkur funksiyalarning yuqori saviyada va muntazam ravishda bajarib turilishi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish samaradorligi oshishini hamda qonunchilik tizimi mukammal bo‘lishini ta’minlaydi.

Sharhlash yangi yuridik hujjatlar yaratish hamda qonunlar va yuridik normalar majmuini tuzishda katta ahamiyatga ega bo‘lib, sharhlashning huquq normalarini qo‘llash va ularni boshqa shakllarda amalga oshirishdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad mavjud normativ-huquqiy hujjatlarning tub

---

<sup>1</sup> Qarang: *Лебедев В. М.* Теория права. – СПб, 2001. – С. 193.

<sup>2</sup> Qarang: *Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Проф. Ҳ.Т.Одилқориевнинг таҳрири остида.* – Т., 2009. – Б. 238.

mohiyati va mazmunini sodda tarzda keng jamoatchilikka yetkazib berish va bu orqali jamiyatda qonuniylikni ta'minlashga erishishdir.

Qonunlar va qonun chiqarish bilan bog'liq faoliyat kishilik jamiyati taraqqiyotining hamma davrlarida muhim o'rin tutgan. Qonunlarning eng asosiy ijtimoiy vazifasi jamiyatda tartib-intizom va barqarorlikni ta'minlashdan iborat. Aslida, har qanday qoida – ijtimoiy tajribaning mujassamlashgan ifodasi, qayta-qayta takrorlanishi oqibatida hayotdan o'rin olgan va umum e'tirof etgan ijtimoiy munosabatlarning huquqiy qoidalarda aks ettirilganligidir. Qonun chiqaruvchining maqsadi esa samarali qonunlar vositasida davlat va jamiyat manfaati nuqtai nazaridan ijtimoiy munosabatlarning muhimlik darajasini belgilash hamda ularni tartibga solishdan iborat<sup>1</sup>.

Shuni nazarda tutish lozimki, huquqiy normalarni aniq munosabatlarga qo'llash davomida oqilona qonunchilik jarayoniga tinimsiz ravishda tuzatishlar kiritib turiladi. Bu, o'z navbatida, huquq ijodkorligi jarayonida huquq normalarini sharhlashni taqozo qiladi. Hatto, yuksak rivoj topgan qonunchilik sharoitida ham iqtisodiy munosabatlarga ehtiyoj bo'lgan chog'da, tegishli qonunchilik hujjati amal qilib turganligidan qat'i nazar, huquqiy normani hayotdan «siqib chiqarish» mumkin. Keyinchalik bunday munosabatlar umumiy tarzda yangi qonun bilan tartibga solinadi.

Qonunning sifatini yaxshilash hozirgi davrning dolzarb vazifasi bo'lib, uning nufuzini oshirish, ustunligini ta'minlashda alohida ahamiyatga ega. Keyingi paytlarda qabul qilingan ba'zi qonunlarda aniqlik, lo'ndalik, ma'nodorlik va fikr tiniqligi yetishmayapti. Bir qator qonunlarning qoidalari deklarativ va inkor shaklida bo'lib, muayyan munosabatlarni tartibga sololmaydi yoki ularda bitilgan normalarning amalga oshish mexanizmi yaratilmaganligi tufayli, amal qilmaydigan, «o'lik» qoida tusini oladi<sup>2</sup>.

Amaldagi qonunlarimiz tahlili shuni ko'rsatadiki, ba'zi qonunlar nihoyat darajada umumiy ko'rinishda bo'lib, qo'sha-qo'sha ijroiya va idoraviy-huquqiy hujjatlarni tirkamay turib ularni hayotga joriy etib bo'lmaydi. Boshqa bir qonunlar esa me'yoridan ziyod maydalashtirilgan bo'lib, aslida, hukumat qarori yoki vazirlik yo'riqnomasiga o'xshab

---

<sup>1</sup> Qarang: *Одилқориев Ҳ. Т. Ўзбекистон Республикасида қонун чиқариш жараёни.* – Т., 1995. – Б. 29–30.

<sup>2</sup> Qarang: *Одилқориев Ҳ. Т. Ўзбекистон Республикасида қонун чиқариш жараёни.* – Т., 1995. – Б. 66.

ketadi<sup>1</sup>. Shuning uchun hozirgi kunda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlashni muayyan tarzda yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatdagi butun huquq ijodkorligi, shu jumladan, qonun ijodkorligi muayyan protsessual qoidalar doirasida amalga oshadi. Qonunni yaratish munosabatlari, shuningdek bu munosabatlarda ishtirok etadigan subyektlarning huquq va majburiyatlarini o'rnatuvchi moddiy huquq qoidalari protsessual normalar orqali hayotga joriy etiladi.

Bu haqda Respublikamiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida shunday degan edi: «...Eng asosiy kamchilik qabul qilinadigan qonunlarda aksariat o'rinlarda ana shu qonun hujjatlarining hayotga tatbiq etilishini ta'minlaydigan protsessual mexanizmlarning mavjud emasligida ko'zga tashlanadi. Bu esa o'z-o'zidan ushbu hujjatlarning qo'llanishini sezilarli darajada qiyinlashtiradi, qonunlarning ijro etilmasligiga, huquqiy nigilizmga, ya'ni har qanday huquqiy normaning inkor qilinishiga, huquqni qo'llash amaliyoti samaradorligining pasayishiga olib keladi»<sup>2</sup>.

Protsessual qoidalarning ahamiyati shundaki, ular vakolatli idoralar tomonidan bajariladigan harakatlar tartibini o'rnatish orqali moddiy normalarning ta'sirchanligini oshiradi, huquqiy tartibga solish maqsadiga tezlik bilan erishishni ta'minlaydi. Shu sababdan ham protsessual shaklga moddiy-huquqiy normalarning bajarilish vositasi va kafolati deb qaramoq lozim. Qonunchilik hokimiyatini amalga oshirish huquqi ham moddiy huquq hisoblanib, bu huquqni amalga oshirish qismining yuridik belgilangan tartibi bo'lishini taqozo etadi.

Endilikda qonunlar va boshqa hujjatlarni sharhlash, ularni aholining barcha qatlamlariga tushunarli tarzda kengroq talqin etish uchun sharhlashning sinovdan o'tgan tartibi hamda qoidalaridan unumli foydalanish zarur. Bunday tartib va qoidalarni deputatlar, davlat organlarining xodimlari, qonun loyihalarini tayyorlovchilar, huquqni qo'llovchi idoralar to'liq o'zlashtirib olishlari va amalda qo'llashlari kerak.

Huquq normalarini sharhlashda faktlar, normativ-huquqiy hujjatlar matnining rasmiy organlar irodasiga mos kelishi, ularning yuridik kuchi

---

<sup>1</sup> O'sha joyda.

<sup>2</sup> *Каримов И. А.* Мамлакатни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш – устувор мақсадимиздир // *Асосий вазифамиз – ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир.* – Т., 2010. – Б. 14.

tahlil qilish orqali aniqlashtiriladi. Ushbu usul asosan tarixiy manbalar matnini tadqiq etish jarayonida keng qo'llaniladi. Mazkur usul hozirda huquqni sharhlashda unchalik ahamiyatga ega emas, chunki normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlar orqali e'lon qilinib, haqiqiyliги kafolatlangan hamda sharhlanayotgan hujjatlar uchun zarur ma'lumotlar mavjud bo'ladi. Shu sababli hozirgi yuridik adabiyotlarda tahlil huquqni sharhlash usuli sifatida tan olinmagan<sup>1</sup>.

Huquqni sharhlashda tahlil usulini huquq ijodkorligi jarayonida amalda qo'llab, sharhlashga huquq ijodkorligi bosqichining boshlang'ich nuqtasi sifatida qaramoq lozim. Chunki, qonun chiqaruvchi oldida turgan vazifa ancha murakkab va mas'uliyatlidir. U huquqiy tartibga solish ehtiyojini aniqlagach, mazkur munosabatlar aynan qonun bilan tartibga solinishi kerakmi yoki boshqa darajadagi huquqiy hujjat bilan tartibga solinishi mumkinmi, degan masalani hal etadi. So'ngra amaldagi qonun hujjatlarini tahlil qilib, mavjud normativ hujjatlarni to'ldirish, o'zgartirish lozimmi yoki yangi qonun qabul qilish kerakmi, degan savolga yechim topadi. U yoki bu qonunni qabul qilish zarurati, muayyan huquqiy qoida o'rnatishga qaratilgan xalq irodasining yo'nalishi aniqlangach, qonun ijodkori ijtimoiy shakllangan qoidani huquq «tilida» bayon etadi. Bu o'rinda so'z huquqiy qoidaning aniq ifodalanishiga, qat'iy rasmiylashtirilishiga erishish, hayotni chuqur o'rganish asosida qonun yaratish lozimligi haqida bormoqda. Qonun tayyorlash bosqichi qonunchilik jarayoni bilan uzviyligi tufayli uni bu jarayonning tarkibiy qismi deb hisoblash lozim<sup>2</sup>.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida respublikamizda olib borilayotgan bugungi tub islohotlar, qonunlarning obyektiv talablarini o'z vaqtida bilishni va ulardan amaliy faoliyatimizda fuqarolarimizning ehtiyoj va manfaatlari yo'lida foydalanishimizni taqozo etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qonun ijodkori obyektiv shart-sharoitdan kelib chiqqan holda qonunlar yaratishga e'tibor berishi lozim. Ijtimoiy jarayonlarni, tarixiy hodisalarni oldindan ko'rish, bashorat qilish imkoniyati, avvalo, alohida bir mamlakat rivojining muayyan tarixiy davrlarida ijtimoiy jarayonlarning qonuniyatlarini umumlashtirish asosida yuzaga keladi. Ayni paytda, shuni

---

<sup>1</sup> Qarang: *Сырых В. М.* Логические основания общей теории права. Т. 1. Элементный состав. – М., 2004. – С. 218.

<sup>2</sup> Qarang: *Одилқориев Ҳ. Т.* Ўзбекистон Республикасида қонун чиқариш жараёни. – Т., 1995. – Б. 75–76.

ta'kidlab o'tish zarurki, tarixiy jarayonlarni oldindan ko'ra bilishning dastlabki sharti – ijtimoiy hodisalar o'rtasidagi obyektiv aloqadorlikni, qonuniyatlarni anglashdir. Biroq, har qanday ilmiy bashoratning poydevorini qonunlar tashkil qiladi, chunki ular hodisalar, jarayonlar o'rtasidagi ichki zaruriy, muhim bog'lanish va aloqadorlikni ochib beradi, shu asosda ijtimoiy hodisa hamda jarayonlar tarixini va hozirgi holatini bilish orqali ularning istiqbolini belgilash mumkin bo'ladi.

Huquqiy normalar yaratish jarayoni zamonaviy huquq ilmi va amaliyoti yutuqlariga, huquqiy tafakkur va mantiq qoidalariga qat'iy tayanmog'i lozim. Har bir qonun, huquqiy norma ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish qonuniyatlarini chuqur anglash hamda ilmiy asoslantirish asosida yaratilishi kerak. Muayyan qonun yoki boshqa huquqiy hujjatni qabul qilishdan oldin uni yaratish uchun qanday ehtiyoj borligini bilish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiqdir. Buning uchun huquqiy tartibga solish mo'ljallanayotgan ijtimoiy munosabatlar turi chuqur tahlil etilishi, jamoatchilik fikri o'rganilishi lozim<sup>1</sup>.

Huquq normalarining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini aniqlash uchun sharhlovchi subyektlar: huquq normasining o'zini; uning huquqiy aloqalarini, huquq normasining boshqa yuridik qoida va prinsiplar bilan o'zaro aloqadorligini; uning boshqa ijtimoiy borliq turlari bilan barcha aloqalarini tadqiq etishi kerak<sup>2</sup>.

Sharhlash huquq normalarini qo'llash va ularni boshqa shakllarda amalga oshirish jarayonida beqiyos ahamiyatga ega. Huquqni sharhlash jarayonida asosiy o'rinni matn egallaydi. Chunki, aynan unda «nafaqat qonun chiqaruvchining, balki davlatning obyektiv ravishda taqdim etilgan va normativ hujjatlarda mustahkamlangan irodasi»<sup>3</sup> aks etgan.

Sharhlash huquqning umumiy normasini, aynan yuridik jihatdan hal qilinishi lozim bo'lgan har bir alohida vaziyatni qo'llagan holda batafsil tushuntirish orqali qonun chiqaruvchi organning irodasini aniqlashtirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu holatda normativ-huquqiy hujjatning mazmun va mohiyatini yoritishda sharhlash usulidan foydalanish maqsad-

---

<sup>1</sup> Qarang: *Odilqoriev X. T.* Davlat va huquq nazariyasi. – T., 2007. – B. 165.

<sup>2</sup> O'sha manba. – B. 268.

<sup>3</sup> Qarang: *Сувонқулов М. И.* Ҳозирги замон ҳуқуқий нормаларини шарҳлашнинг назарий-ҳуқуқий масалалари // Ўзбекистонда шарҳлашнинг назарий-ҳуқуқий ва амалий муаммолари. – Т., 2004. – Б. 103.



ga muvofiqdir. Chunki, bugungi huquqiy adabiyotlarda yuridik sharhlashning obyektini deganda odatda normativ-huquqiy hujjat tushuniladi.

Yuridik sharhlash huquq subyektining aqliy-ijodiy faoliyati bo'lib, bu jarayonda huquqning xususiyatlari ilmiy jihatdan anglanadi, huquq normalarida ifodalangan talablarning mohiyati xolisona va ishonchli tarzda bayon etiladi. Yuridik sharhlash huquqni sharhlashning barcha usullarini o'zida qamrab oladi hamda huquqiy qoidalarni tatbiq etishning eng to'g'ri va samarali yo'lini tanlashga xizmat qiladi. U ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi<sup>1</sup>.

Yuridik sharhlash orqali qonun chiqaruvchi organning ijtimoiy hayot bilan nechog'lik bog'langanligi, o'z faoliyatida qonun yaratishning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa ildizlaridan anglab foydalanish, jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarining qabul qilinishi qonunlarning mazmunini muvofiqlashtirish mexanizmlari ochib berilishiga e'tibor qaratiladi. Sharhlash orqali huquq ijodkorligi ijtimoiy ildizlari, qonunlarning boshqa huquq va ijtimoiy normalar bilan o'zaro aloqasi va ta'sir doirasi, ijtimoiy hayotga qonun vositasi bilan aralashuvning me'yori va chegaralarini aniqlash lozim bo'ladi.

Shuningdek, yuridik sharhlash orqali huquq yaratishning ijtimoiy omillarini (huquq ijodkorligining barcha bosqichlarini), qonundagi huquqiy qoidaning inson fe'l-atvoriga aylanishi, norma bilan fe'l-atvor o'rtasidagi bog'liqlikning ijtimoiy, ruhiy va ma'naviy jihatlarini, qonunning ijtimoiy samaradorligini o'rganish talab etiladi.

Ijtimoiy manfaatlarni anglash davlat huquq ijodkorligi organlari faoliyatining boshlang'ich nuqtasidir. Qonun yo'li bilan tartibga solinishi lozim bo'lgan muammolar qonunlarni yaratishdan oldingi jarayonni bir necha bosqichlar bo'yicha o'rganib chiqishni taqozo etadi<sup>2</sup>.

Huquq normalari vositasida ijtimoiy jarayonlarni boshqarish turli darajadagi ziddiyatli manfaatlarni aniqlash bilan bog'liq bo'lib, ular amaldagi huquq tizimini takomillashtirishni taqozo etadi. Hozirgi kunda moddiy huquq normalarining amalga oshirilishida huquqni qo'llash faoliyati tobora ortib bormoqda. An'anaviy fuqarolik va jinoyat-protses-

---

<sup>1</sup> Qarang: *Березина Е. А.* Толкование договора как вид юридического толкования. Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Екатеринбург, 2001. – С. 8.

<sup>2</sup> Qarang: *Одилқориев Ҳ. Т., Тультеев И. Т.* Икки палатали парламент. – Т., 2005. – Б. 85.

sual normalar bilan bir qatorda, xo‘jalik-protsessual, konstitutsiyaviy, ma‘muriy, soliqqa, yer huquqiga oid protsessual normalar rivojlantirilmoqda. Ular yirik mavzular bo‘yicha qonunlar yoki kodekslar shaklida yaratilmoqda. Qonun chiqaruvchi organning rasmiy e‘lon qilingan huquq normalarini sharhlamay turib, yangi qonun hujjati chiqarib ham, amaldagilarini tartibga solib ham bo‘lmaydi.

Huquqni sharhlash jarayonida yuridik kolliziya (ixtilof)larning oldini olish hamda mavjud bo‘lganlarini bartaraf etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yuridik kolliziya deganda amaldagi huquqiy hujjatlar bilan huquqiy tartibot va talablar, ularni o‘zgartirish, e‘tirof etish yoki rad etish bo‘yicha harakatlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik (ziddiyat) tushuniladi. Yuridik nizo esa siyosiy, ijtimoiy kuchlar bilan davlat, jamoat tuzilmalari o‘rtasidagi g‘ayrikonstitutsiyaviy kurashdir<sup>1</sup>.

Huquq normalaridagi kamchiliklarni aniqlash jarayonida bilishning turli sohalari (amaldagi huquq tizimining mazmuni, davlat organlarining huquq ijodkorligi faoliyati, huquqni qo‘llash amaliyoti va hokazo) tekshiriladi, ularni ko‘rib chiqish davomida formal-yuridik tadqiqot usullaridan foydalaniladi. Bunday tadqiqot usullari jumlasiga huquqni sharhlashning analogiya bo‘yicha xulosa chiqarish va boshqa shunga o‘xshash barcha usullarini kiritish mumkin.

Huquqni qo‘llash huquqiy tartibga solishning ahamiyati jihatidan huquq ijodkorligidan keyingi o‘rinda turuvchi muhim jarayonidir. Alohida qarorlar yuridik normalarning ichki yaxlitligiga erishish uchun sharhlanadi va u murakkab jarayondir.

Huquq nazariyasida huquq normalarini sharhlash va aniqlashtirish o‘zaro bog‘liq bo‘lib, mazkur masala huquq normalarini qo‘llash uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Ma‘lumki, sharhlashning maqsadi qo‘llaniladigan huquq normalarining mazmun-mohiyatini aynan talqin qilishdan iborat. Shundan kelib chiqib, huquqni qo‘llash jarayonida sharhlashning ikki muhim jihatini ko‘rsatib o‘tish joiz. Birinchidan, sharhlash huquqni qo‘llash jarayonining majburiy va ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi, ikkinchidan, sharhlash huquqni qo‘llash faoliyatiga xizmat qiladi<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Qarang: Теория государства и права / Под ред. проф. В. К. Бабаева. – М., 2006. – С. 503–504.

<sup>2</sup> Qarang: Тультеев И. Т., Тастанбекова Г. Проблемы толкования и прогнозирования в правоприменительной деятельности // Ўзбекистонда ҳуқуқ фанининг ривожлантиришининг назарий ва амалий муаммолари. – Т., 2004. – Б. 34.

O‘zbekiston Respublikasida huquqni ifodalashning asosiy shakli normativ-huquqiy hujjatlardir. Ular davlat tomonidan o‘rnatiladigan yoki ma‘qullanadigan huquqiy hujjatlarning alohida turi bo‘lab, ba‘zan davlat idoralari va jamoat birlashmalari tomonidan birgalikda o‘rnatilishi mumkin. Qisqasi, normativ-huquqiy hujjat deganda davlat vakolatli organlarining ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan umumiy majburiy qoidalarni o‘rnatuvchi, o‘zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi huquq ijodkorligi hujjati tushuniladi<sup>1</sup>.

Parlament mamlakatning eng yuksak va yagona qonunchilik hokimiyati sifatida huquq ijodkorligi faoliyati bilan shug‘ullansa, Vazirlar Mahkamasining huquq ijodkorligi faoliyati davlat boshqaruvi va ijro vakolatlarini amalga oshirish jarayonida Konstitutsiya va qonunlarga rioya etgan holda amalga oshiriladigan, huquqni yaratishga qaratilgan rasmiy faoliyatdir. Vazirlar Mahkamasining joriy masalalari bo‘yicha huquq ijodkorligi hujjatlari qaror va farmoyish shaklida chiqariladi.

Amaliyotda Vazirlar Mahkamasining joriy masalalariga mo‘ljallangan, ya‘ni bitta munosabatni tartibga solishga qaratilgan hujjatlari qarorlar shaklida qabul qilinayotganini ko‘rish mumkin. 2006-yil 9-martda qabul qilingan «M. V. Lomonosov nomidagi Moskva Davlat universitetining Toshkent shahridagi filiali binosi qurilishini tugallash to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bunga misol bo‘la oladi. Ushbu qarorda jamiyat a‘zolari uchun majburiy bo‘lgan davlat ko‘rsatmalari yo‘q, balki bir bino, inshootning qurilishi bilan bog‘liq jarayonni tartibga soluvchi juz‘iy bir qoida aks etgan, xolos. Vaholanki, 2000-yil 14-dekabrda qabul qilingan «Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida»gi qonunning<sup>2</sup> normativ-huquqiy hujjatlar turlari sanab o‘tilgan moddasida hamda 2003-yil 29-avgustda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida»gi qonunning<sup>3</sup> 20-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan chiqariladigan qarorlar normativ xususiyatga ega ekanligi ta‘kidlanib, qonunga binoan Vazirlar Mahkamasining tezkor va joriy masalalar bo‘yicha qabul qiladigan hujjatlari farmoyish

---

<sup>1</sup> Qarang: *Одилқориев Х. Т. Ўзбекистон Республикасида қонун чиқариш жараёни.* – Т., 1995. – Б.41–42.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиснинг ахборотномаси. – 2001. – 1–2 сон. – 8-модда.

<sup>3</sup> О‘sha joyda.

yishlar shaklida qabul qilinishi belgilangan. Mana shu qonunchilik talabidan kelib chiqqan holda, Vazirlar Mahkamasining jamiyat va davlat hayotini tartibga solishga qaratilgan, huquq normasini o'rnatuvchi, umum-majburiy ahamiyatga ega hujjatlarigina qarorlar shaklida qabul qilinishiga to'liq erishish va bunga e'tiborni yanada qat'iy jalb etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib, huquq ijodkorligi jarayonida huquq normalarini aniqlashtirish, birinchidan, sharhlash usul va vositalaridan foydalangan holda huquq normalarini takomillashtirish va yangi normalar yaratish hamda ularni rivojlantirish natijasi hisoblansa, ikkinchidan, ma'lum bir davlat organi tomonidan qonuniylikka rioya qilish, huquqdagi bo'shliqni to'ldirish sifatida baholanmog'i kerak.

Sharhlash orqali huquq normalarini aniqlashtirish va rivojlantirish hamda yangi normalar yaratishning huquq ijodkorligida namoyon bo'lishiga quyidagi misolni keltirish mumkin. Ma'lumki, hozir dunyoda, xususan mintaqamizda ekologik muammolar global tus olgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ushbu muammoni hal qiliga qaratilgan moddalar bor. Ularga ko'ra, «fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar» (50-modda), «Yer, yer osti boyliklari, o'simlik va hayvonot hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidir» (55-modda). Ushbu konstitutsiyaviy normalar 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi hamda «O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi qonunlarida yanada aniqlashtirilgan. Shuningdek, o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshirilishini ko'zda tutuvchi normalar ham qonunchilikda o'z ifodasini topgan. Mazkur masalaga oid normalar sharhlash usul va vositalari orqali yanada aniqlashtiriladi.

Huquq ijodkorligi shaklidagi huquqiy normalarni aniqlashtirishning ikkinchi turi, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, huquqdagi bo'shliqni to'ldirishdir. Huquqiy ta'sir etish sohasida huquqdagi bo'shliqni to'ldirish ehtiyoji amaldagi qonunchilikdagi kamchiliklardan kelib chiqadi. Huquqdagi bo'shliqni to'ldirish jarayoni huquqni qo'llash faoliyati orqali amalga

oshadimi yoki huquq ijodkorligi faoliyati natijasida huquqdagi bo'shliq to'ldiriladimi, degan masalada bahs-munozaralar mavjud.

Jamiyatning jo'shqin rivojlanishi, unda qonun chiqaruvchi idora tomonidan ko'zda tutilmagan ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi ularga nisbatan huquqni qo'llash ehtiyoji bilan huquq yaratuvchilik faoliyati o'rtasidagi farq huquqdagi bo'shliqni tashkil etadi<sup>1</sup>. Chunki, qonunlar qanchalik mukammal ishlanmasin, ma'lum vaqt o'tishi bilan ularda nazarda tutilmagan, lekin huquq normalari bilan tartibga solinishi zarur bo'lgan yangi ijtimoiy munosabatlar vujudga kela boshlaydi yoki mavjud munosabatlar yangicha ahamiyat kasb etadi. Aynan shu holatlar huquqda muayyan bo'shliq vujudga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Normativ-huquqiy jihatlariga qo'yiladigan talablar quyidagicha:

1) huquqiy tartibga solishning qat'iy aniqligi. Ya'ni, normativ qoidalar eng ko'p darajada aniq belgilarga ega bo'lishi lozim. Normalar bayoni-ning ifodasi nihoyatda umumiy, mavhum bo'lmasligi yoki, aksincha, o'ta maydalashtirilib, kazuistik qoidalardan iborat qilib qo'yilmasligi kerak;

2) bayonning mantiqiy izchilligi. Ya'ni, huquqiy hujjatdagi normativ qoidalar o'rtasida uzviylik bo'lishi lozim;

3) tayyorlanayotgan normativ hujjatda, umuman butun huquqiy tizimda ichki ziddiyat bo'lmasligi. Ya'ni, o'z ahamiyatini yo'qotgan, formal tarzda, shuningdek o'zgartirilgan tahrirda amal qilayotgan hujjatdan ham xoli bo'lishi lozim;

4) normativ materialning bayoni imkon qadar qisqa, lo'nda, ixcham bo'lmog'i lozim. Biroq, bayon etishda ixchamlikka intilish asosiy huquqiy qoidalarning kerakli jihatlari va istisnolari to'liq bo'lishi, mazmunning chuqur va atroflicha ifoda etilishi zarurati bilan zid kelib qolmasligi lozim;

5) normativ hujjatlarning tili, ifoda uslubi aniq, oddiy va tushunarli bo'lishi zarur. Bu yerda shuni ham inobatga olish kerakki, ko'pchilik normativ-huquqiy hujjatlar anchagina murakkab munosabatlarni tartibga solishga qaratilgani ham, shubhasiz, tegishli normalar ifodasining uslubiga ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy munosabatlar takomillashib, rivojlanib borgan sayin tegishli normativ hujjatlarning tili, bayoni ham murakkablashib boradi. Bu tabiiy holdir. Biroq, har qanday holatda ham huquqiy hujjatning hammabop va tushunarli bo'lishiga erishish lozim;

---

<sup>1</sup> Qarang: Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Проф.Х.Т. Одилқориевнинг таҳрири остида. – Т., 2009. – Б. 421.

6) normativ hujjat ifodalari, uning har bir iborasi aniq va qat'iy bo'lishi lozim<sup>1</sup>.

Huquqdagi bo'shliq, odatda, huquqni qo'llash jarayonida aniqlanadi. Huquqni qo'llovchi organ muayyan ishni hal etish chog'ida ushbu munosabatni tartibga solib turuvchi xulq-atvor qoidasini har doim ham topa olmasligi mumkin. Bunday holat 1) qonun chiqaruvchi idora (barcha huquq ijodkorligi faoliyati subyektlari)ning tartibga solish masalasini bila turib ochiq qoldirganligi; 2) amaldagi huquq tizimida bo'shliq (huquqiy hal etilmagan jihat) mavjudligi bilan bog'liq<sup>2</sup>.

Huquqni tatbiq etish zamon bilan hamnafas kechadigan murakkab jarayondir. Unda nafaqat subyektiv huquq va majburiyat egalari, balki xilma-xil huquq ijodkorligi, huquqni tatbiq etish va qo'llash vakolatiga ega organlar orqali davlat ham ishtirok etadi. Huquqni qo'llash faoliyatida sharhlashning ahamiyati shundaki, sharhlash orqali normativ-huquqiy hujjatdagi va alohida huquqiy normalar o'rtasida o'zaro bog'liqliklarga ko'ra tanlanib, undagi huquqiy ziddiyatlarga barham beriladi.

Xulosa qilib aytganda, sharhlash orqali nafaqat alohida olingan norma yoki huquqiy hujjat moddalaridagi ziddiyatlar ochib beriladi, balki butun bir qonunchilik tizimidagi ziddiyatlarga barham beriladi. Bu huquqni qo'llash tizimida sharhlashning nechog'li katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Bunda asosan tizimli sharhlash usulini qo'llash ijobiy natija beradi. Bu haqda tadqiqotimizning keyingi bobida batafsil to'xtalamiz.

---

<sup>1</sup> Bu haqda batafsil ma'lumot uchun qarang: *Одилқориев Ҳ. Т. Ўзбекистон Республикасида қонун чиқариш жараёни.* – Т., 1995. – Б. 184–185.

<sup>2</sup> Qarang: *Нерсеяң В. С. Общая теория права и государства.* – М., 1999. – С. 490.

**III-bob.**  
**SUD HOKIMIYATI VA HUQUQNI MUHOFAZA**  
**QILUVCHI ORGANLAR FAOLIYATIDA HUQUQNI**  
**SHARHLASH**

**1-§. Sud hokimiyati organlari faoliyatida huquqni sharhlash**

*a) Huquqni sharhlash – Konstitutsiyaviy sudning  
asosiy funksiyasi*

Huquqni sharhlashda davlatning vakolatli organlari muhim o‘rin tutadi. Bu tizimda O‘zbekistonning Konstitutsiyaviy sudi alohida mavqega ega. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, Konstitutsiyaviy sud qonunlarga sharh beruvchi organ hisoblanadi.

Xorijiy mamlakatlarning aksariyatida sud huquqni sharhlovchi rasmiy organ sifatida tan olinadi. Konstitutsiyaviy sud tomonidan huquqiy normalarning sharhlanishi qonuniylikning ta‘minlanishiga xizmat qiladi. Konstitutsiya normalarining sharhlanishi shuning uchun zarurki, uning asosida barcha normativ-huquqiy hujjatlar sharhlanadi va ularni tatbiq etish jarayonlaridan biri hisoblanadi. Konstitutsiya normalarini rasmiy sharhlash ko‘pchilik mamlakatlar konstitutsiyaviy sud (kengash)larining asosiy vakolatlaridan biri hisoblanadi<sup>1</sup>.

Jumladan, Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi Yevropa Konvetsiyasining 32-moddasiga asosan, Yevropa sudi Konvensiya qoidalarini sharhlash huquqiga ega. Hozirgi paytda inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi Yevropada siyosiy va fuqarolik huquqlarini himoya qilish bo‘yicha konstitutsiyaviy sud hisoblanadi. U tashkil topganidan buyon 400 dan ortiq sud ishlarini ko‘rib chiqdi, Konvensiya tomonidan kafolatlanadigan huquqlarning ko‘p qismini sharhlash imkoniyatiga ega bo‘ldi<sup>2</sup>.

Yevropa huquq tizimi Konstitutsiyani sharhlash uchun alohida sud organlari ta‘sis etishni ko‘zda tutadi va mazkur sud organi sud hokimiyati tizimida o‘zining mavqei va alohida o‘rniga ega. Ularga misol qilib, Italiya

---

<sup>1</sup> Qarang: Вестник Конституционного Совета Республики Казахстан. Вып. 3. – Алматы, 2000. – С. 111.

<sup>2</sup> Qarang: Бюргенталь Т. Международное права человека: Краткий обзор / Пер. с англ. – Алматы, 1999. – С. 139.

Konstitutsiyaviy sudi, Polsha Konstitutsiyaviy tribunali, Fransiyadagi Konstitutsiyaviy kengash va qisman Davlat kengashini keltirish mumkin.

Konstitutsiyaviy sud Konstitutsiyani sharhlar ekan, bunda nafaqat fuqarolarning, balki davlat organlarining xatti-harakatlari Konstitutsiya doirasida bo'lishini ta'minlaydi. Rossiya Konstitutsiyasining 125-moddasi uchinchi qismi, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risidagi qonunning 3-moddasi to'rtinchi qismi va 106-moddasiga, shuningdek Ukraina Konstitutsiyasi 150-moddasining 2-bandi va Ukraina Konstitutsiyaviy sudi to'g'risidagi qonunning 13-moddasi 4-bandiga asosan, ikkala mamlakatning Konstitutsiyaviy sudlari o'z Konstitutsiyalariga rasmiy sharh beradilar (Ukraina Konstitutsiyaviy sudi Ukraina qonunlariga ham rasmiy sharh beradi)<sup>1</sup>.

Oddiy yurisdiksiya sudlaridan farqli o'laroq, hay'at tarzida ish ko'rish va qaror qabul qilish prinsipi umumiy qoida hisoblanadi. «Konstitutsiyaviy sharhlash Oliy sud organining huquqiy hujjatlarni baholashga, Asosiy qonunni muhofaza qilishga, huquqni amalga oshirishning barcha shakllarini tanlashga, barcha turdagi huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan maxsus huquqiy faoliyatidir»<sup>2</sup>.

Konstitutsiya va qonunlarni sharhlashda Konstitutsiyaviy nazorat organlarining vakolatlari, protsessual tartibga solinganligi masalasi alohida ahamiyatga ega. Konstitutsiyaviy nazorat organlari faqat Konstitutsiyani tatbiq etish emas, balki huquqni «topishi» ham kerak<sup>3</sup>.

Konstitutsiyaviy sharhlashning o'ziga xos jihatlari mavjud. Uning bu jihatlari huquq ijodkorligi faoliyati uchun muhimligi, boshqa har qanday huquqni qo'llash hujjatlariga nisbatan oliy yuridik kuchga egaligi, davlatning Asosiy Qonuniga rioya etishida, amal qilishi shartligida namoyon bo'ladi. Davlat hokimiyatining xalq irodasiga va iqtisodiy ehtiyojlarga mos qonunlari jamiyatda mujassam huquq sifatida gavdalanadi. Aslini olganda, qonunlar qonun chiqaruvchi idora tomonidan qayd etilgan va shu

---

<sup>1</sup> Qarang: *Половченко К. А.* Толкование Конституции (и законов) Конституционными судами России и Украины: теоретические и практические проблемы (сравнительно-правовой анализ) // Государство и право. – 2002. – № 10. – С. 57.

<sup>2</sup> Qarang: *Хабриева Т. Я.* Толкование Конституции Российской Федерации: теория и практика. – М., 1998. – С. 25.

<sup>3</sup> *Абдурасулов Е. Б.* Толкование закона и норм Конституции: теория, опыт, процедура. Автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. – Алматы, 2003. – С. 41.



idora tomonidan ochilgan muayyan turdagi ijtimoiy munosabatlar mavjudligining obyektiv qonunidan boshqa narsa emas<sup>1</sup>.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tarmoqlari hujjatlarining Konstitutsiyaga mosligiga doir ishlarni ko‘radigan, doimiy ishlaydigan sud hokimiyati organidir. Konstitutsiyaviy sudning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi, tuzilishi va faoliyat yuritishi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda «O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida»gi qonun bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risidagi qonunining 1-moddasiga asosan, Konstitutsiyaviy sud O‘zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlarining normalariga sharh beradi, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarida o‘z vakolatlari doirasiga kiritilgan boshqa ishlarni ko‘rib chiqadi. Mazkur faoliyat konstitutsiyaviy odil sudlovni yanada takomillashtirish, konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirishini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda Konstitutsiya va qonun normalarining sharhlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Huquqiy normalarga sharh berish Konstitutsiyaviy sud faoliyatining shunday shakli hisoblanadiki, u Konstitutsiya normalari, prinsiplari va asosiy qoidalari-ning to‘g‘ri tatbiq etilishini ta’minlaydi, Konstitutsiyaning nufuzi oshishiga xizmat qiladi, Konstitutsiya va qonunlar buzilishining oldini oladi, pirovard natijada inson huquqlari va erkinliklarini himoya qiladi. Sharhlash yo‘li bilan Konstitutsiyaviy sud huquqiy normalarning asl ma’nosini tushuntiradi, konstitutsiyaviy normalar turlicha tushunilishi yoki talqin qilinishining oldini oladi. Normalarga sharh berish Konstitutsiyaning barqarorligini ta’minlash, uning normalarini muhofaza qilish ishlarida asosiy vosita hisoblanadi<sup>2</sup>.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi ushbu vakolatidan kelib chiqib, qonunlarni talqin etish, izohlash, sharhlash bilan bog‘liq

---

<sup>1</sup> Qarang: Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Проф. Ҳ. Т. Одилқориев таҳрири остида. – Т., 2009. – Б. 239.

<sup>2</sup> Qarang: *Мирбобоев Б.* Инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини ҳимоя қилувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг конституциявийлиги устидан суд назорати // Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг ахборотномаси. – 2006. – № 14. – Б. 26.

faoliyatni amalga oshirmoqda. Biroq shu o‘rinda qonunchilikdagi ba’zi tushunchalar talqinidagi nomuvofiqlik Konstitutsiyaviy sud faoliyatida ayrim muammolarni tug‘diradi.

O‘zbekiston Konstitutsiyaviy sudi tomonidan qonunchilikdagi ba’zi bir iboralarning qo‘llanilishi yuzasidan xulosasini misol sifatida keltirish mumkin. Jumladan, amaldagi qonunchilikda «qonun hujjatlari» degan ibora keng qo‘llanilmoqda. So‘nggi vaqtda mazkur iboraning talqini bilan bog‘liq muammoli vaziyat yuzaga kelmoqda.

«Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6-moddasi «O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari» deb nomlangan. Unga ko‘ra, «Normativ-huquqiy hujjatlar – qonun hujjatlari hisoblanadi», deb belgilangan. Bundan barcha huquqiy norma yaratuvchi idoralar qabul qilgan hujjat qonun hisoblanadi, degan xulosa chiqadi. Bu o‘rinda «Qonun hujjatlari» iborasi o‘rniga «normativ-huquqiy hujjatlar» degan iborani qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lar edi<sup>1</sup>.

Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida»gi qonunning 6-moddasida, «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, Oliy Majlis palatalarining qarorlari – «qonun» hisoblanadi», deyilgan. Mazkur qoidaning noaniqligi, yurisprudensiyada mustahkam o‘rin olgan huquqiy tushuncha va kategoriyalarga zid keladi. Shu sababli fuqarolar mazkur masalaga oydinlik kiritishni so‘rab, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaat etganlar.

2012-yil 24-dekabrda qabul qilingan «Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni talablariga muvofiq, qonunlarning ayrim normalari turlicha tushunilganida ularga sharh berish zarur bo‘ladi. Qonunning 43-moddasiga ko‘ra, «Normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiy sharhlash normativ-huquqiy hujjatda noaniqliklar topilgan, u amaliyotda noto‘g‘ri yoki ziddiyatli tarzda qo‘llanilgan taqdirda amalga oshiriladi»<sup>2</sup>.

Qonun to‘rt bosqichli jarayon asosida qabul qilinadi, Senat tomonidan ma’qullanadi, Prezident tomonidan imzolanadi va u tom ma’noda

---

<sup>1</sup> Qarang: *Одилқориев Ҳ. Т.* Қонунларни шарҳлашда Конституциявий суднинг ўрни ва роли // Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашнинг назарий-амалий муаммолари. – Т., 2006. – Б. 10.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2012 й., 52-сон, 583-модда; 2014 й., 50-сон, 588-модда; 2015 й., 32-сон, 425-модда.

xalqning davlatchilik irodasini ifoda etadi. Qaror esa – oddiy tarzda qabul qilinadi va faqat palata a'zolari ko'pchiligining erki-irodasini, fikrini aks ettiradi.

Oliy Majlis palatalarining qarorlari va qonunlar quyidagi holatlari bo'yicha bir-biridan farqlanadi: *birinchidan*, palatalarning qarorlari «qonun» emas, balki qonunchilik hujjati hisoblanadi; *ikkinchidan*, palatalar qarori va qonunni qabul qilish tartiblari tubdan bir-biridan farq qiladi.

Shu bois palatalarning qarorlari qonun hisoblanmaydi va Konstitutsiyaviy sud sharhining obyektini emas. Konstitutsiyaviy sud Oliy Majlis palatalari qarorlariga sharh bermaydi, balki faqat ularning Konstitutsiyaga mosligini aniqlaydi va tegishli xulosa chiqaradi<sup>1</sup>.

Huquq ijodkorligi jarayonida huquqni qo'llash va uni sharhlash bilan bog'liq ixtiloflarning oldini olishda kuzatilayotgan kamchiliklarning oldini olishga qaratilgan normalarni ishlab chiqish zarur bo'ladi.

Demak, qabul qilinayotgan va qabul qilinadigan qonunlarni, ularga kiritilgan va kiritilayotgan qo'shimcha va o'zgartishlarning mohiyatini to'liq anglash va uni og'ishmay amalda to'g'ri qo'llash uchun huquq normalarining Konstitutsiyaviy sud tomonidan sharhlanishi ulkan ahamiyatga ega. Qonunlarimizga kiritilayotgan qo'shimcha va o'zgartishlar, mazkur qonunlarni sharhlash ularda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bildirmaydi, balki ularning umum e'tirof etgan xalqaro normalarga, milliy qadriyat hamda an'analarimizga mos ravishda rivojlanib va takomillashib borishidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarorlarini qonunlar majmuiga kiritish ham muhim masala. Mazkur majmuaning to'liqligi, mukammalligi, majmuaviyligini saqlash uchun uning tarkibiga Konstitutsiyaviy sudning qonunlarni sharhlash bo'yicha va o'z vakolatlari doirasida chiqaradigan boshqa huquqiy hujjatlarini kiritish maqsadga muvofiq<sup>2</sup>.

Shunday qilib, Konstitutsiyaviy sud tomonidan amalga oshiriladigan sharhlar va chiqariladigan huquqiy normalarni sharhlash hujjatlari o'ziga

---

<sup>1</sup> Qarang: *Одилқориев Ҳ. Т.* Қонунларни шарҳлашда Конституциявий суднинг ўрни ва роли // Жамоат ҳавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашнинг назарий-амалий муаммолари. – Т., 2006. – Б. 10–11.

<sup>2</sup> Qarang: *Одилқориев Ҳ. Т., Тультеев И. Т.* Икки палатали парламент. – Т., 2005. – Б. 206.

xos jihatlarga ega. *Birinchidan*, Konstitutsiyaviy sud Konstitutsiyaga zid kelgan huquqiy normalarni o'z vakolatlari doirasida sharhlaydi. *Ikkinchidan*, Konstitutsiyaviy sud tomonidan chiqariladigan sharhlash hujjatlari davlat organlari, jamoat tashkilotlari va fuqarolarning barchasi uchun ijro etilishi majburiy bo'ladi. *Uchinchidan*, Konstitutsiyaviy sud tomonidan chiqariladigan sharhlash hujjatlari barcha normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga mos kelishi yoki zid ekanligi to'g'risida xulosa tarzida amalga oshadi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi advokat A. R. Lutfullayevning Konstitutsiyaviy sudga murojaati munosabati bilan «Advokatura to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 10-moddasining to'rtinchi qismini hamda «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 6-moddasining beshinchi qismini sharhlash haqidagi masalani ko'rib chiqib, quyidagi xulosani chiqardi: «Advokatura to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 10-moddasining to'rtinchi qismida «Advokat qonunga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarga yuridik yordam ko'rsatayotganligi munosabati bilan uni jinoiy, moddiy va boshqa javobgarlikka tortish yoki bunday javobgarlikni qo'llash bilan qo'rqitish mumkin emas». «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 6-moddasining beshinchi qismida ham shunga o'xshash (analogik) norma nazarda tutilgan. Ushbu normalarda «boshqa javobgarlikka» so'zlarining qo'llanilishi ularni mazmunan qanday tushunish kerak, degan savolga javob berishni talab qiladi va shuning uchun ham ularga sharh berish zaruratini keltirib chiqaradi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi 1998-yil 29-sentabrda «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 4-moddasining birinchi bandini sharhlash haqida qaror chiqardi<sup>1</sup>. Chunki, ushbu moddada uning mazmunini inkor etuvchi tushunchalar mavjud bo'lib, bu huquqni qo'llash amaliyotida jiddiy xatolarga olib kelishi mumkin, degan xulosaga kelindi.

2006-yil 20-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг ахборотномаси. – 1999. – № 3. – Б. 12–13.

himoya qilish choralari to‘g‘risida»gi qonunning 10-moddasi birinchi qismiga sharh berish bo‘yicha o‘z qarorini chiqardi<sup>1</sup>. Unda «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 10-moddasi birinchi qismiga quyidagicha sharh beriladi:

– «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni 10-moddasining birinchi qismi qoidalari mazmuni bo‘yicha «taraf roziligi» tushunchasini o‘zida ifoda etmaydi;

– «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni 10-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan investitsiyaga oid nizolarni hakamlik vositasida investitsiyaga oid nizolarni hal etishga doir O‘zbekiston Respublikasi qo‘shilgan xalqaro shartnomalarning (bitimlar va konvensiyalarning) qoidalari va tartibotiga muvofiq hal etilishi mumkinligi Konvensiyaga muvofiq investitsiyaga oid nizoni hal etish uchun Markazga o‘tkazishga respublika roziliginining ifodasi hisoblanmaydi. Ushbu Qaror «Xalq so‘zi» va «Narodnoye slovo» gazetalarida e‘lon qilingan.

2014-yil 22-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi «O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida»gi qonunning 21-moddasi birinchi qismi 2-bandiga sharh berish bo‘yicha qaror chiqardi. Unda, «O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 21-moddasi birinchi qismi 2-bandiga quyidagicha sharh beriladi: «chet elda doimiy yashovchi shaxs» deganda o‘rnatilgan tartibda doimiy yashash joyidan ro‘yxatdan chiqqan va doimiy yashash uchun chet elga chiqishga ruxsatni rasmiylashtirgan chet elda yashayotgan shaxslarni ham, doimiy yashash joyidan ruyxatdan chiqarishni, doimiy yashash uchun chet elga chiqishga ruxsatni tegishli ravishda rasmiylashtirmasdan chet elda yashayotgan shaxslarni ham tushunish lozim. Demak, «O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 21-moddasi birinchi qismi 2-bandining normasi doimiy yashash joyidan ro‘yxatdan chiqarishni, doimiy yashash uchun chet elgan chiqishga ruxsatni tegishli ravishda

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг ахборотномаси. – 2007. – № 15. – Б. 35–38.

rasmiylashtirmasdan va besh yil davomida uzrli sabablarsiz konsullik hisobiga turmasdan chet elda doimiy yashayotgan shaxslarga nisbatan ham qoʻllanilishi mumkin<sup>1</sup>.

Ushbu Qaror «Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami» va «Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining axborotnomasida» eʼlon qilingan.

Agar sud maʼlum bir ishga taalluqli boʻlmagan holda biror normativ-huquqiy hujjatning yuridik kuchi yuqori boʻlgan boshqa bir normativ-huquqiy hujjatga mosligini tekshirsa, bevosita (mavhum tarzda, maqsadli ravishda) normalarni nazorat qilgan boʻladi. Buning natijasida yuridik kuchga ega hujjat oʻz kuchini yoʻqotadi yoki uni qoʻllash mumkin boʻlmay qoladi. Sud nazoratining ushbu turi sud himoyasi mexanizmida muhim rol oʻynaydi<sup>2</sup>.

Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiyaviy sud tomonidan huquqiy normalarning sharhlanishi Konstitutsiyaga zid keluvchi hujjatlarni aniqlash vositasi boʻlib xizmat qiladi va sharhlash natijalari Konstitutsiyaviy sud tomonidan beriladigan xulosalarning asosi hisoblanadi. Taʼkidlash joizki, Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida Konstitutsiyaviy sudning rasmiy sharh berishi yuridik jihatdan mustahkamlab qoʻyilgan boʻlsa-da, lekin ushbu organ tomonidan sharhlangan qonun va qonun osti hujjatlarning muntazam ravishda ommaviy axborot vositalarida eʼlon qilinishi hamda ularni tizimlashtirishning yagona usuli amaliyotga joriy etilishi va bundan keng xalq ommasining foydalanishi uchun imkoniyat yaratilishi maqsadga muvofiqdir.

### ***b) Sud organlarining huquqni sharhlashi***

Sud organlari tomonidan chiqariladigan sharhlash hujjatlari sud amaliyotida muhim rol oʻynaydi.

Undan tashqari, sudlar tomonidan chiqariladigan sharhlash hujjatlari *subyektiga koʻra* ham turlarga ajratish mumkin. Qaysi sud organlari

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг ахборотномаси. – 2015. – № 19. – Б. 33–36.

<sup>2</sup> Qarang: Яценко В. Н. Судебный контроль нормативных актов // Государство и право. – 2005 – № 11. – С. 22; Половченко К. А. Толкование Конституции (и законов) Конституционными судами России и Украины: теоретические и практические проблемы (сравнительно-правовой анализ) // Государство и право. – 2002. – № 10. – С. 57.

tomonidan tushuntirish berilishiga qarab sud organlari tomonidan chiqariladigan sharhlar hujjatlarining yuridik belgilari aniqlab olinadi. Shu orqali sud tomonidan chiqariladigan sharhlar hujjatlarini tuman sudlarining sharhlar hujjatlari va yuqori turuvchi sudlar tomonidan chiqariladigan sharhlar hujjatlariga ajratish mumkin. Tuman, shahar sudlari tomonidan amalga oshiriladigan huquq normalarini sharhlar bo'yicha faoliyati sud yurisdiksiyasi hujjatlari shaklida, ya'ni ajrim, qaror, hukm kabilar chiqarish bilan yakunlanadi.

Sud organlari tomonidan olib boriladigan huquq normalarini sharhlarlashning o'ziga xosligi shundaki, mazkur sharhlar muayyan ishni ko'rish paytida amalga oshadi va sud organining huquqni qo'llash faoliyati jarayonida bo'ysunuvchi xususiyatga ega bo'ladi. Sud tomonidan muayyan yuridik ishni ko'rib chiqish aqliy-irodaviy faoliyatga ega bo'lib, qo'llanishi lozim bo'lgan huquqiy normani tanlash va tahlil etishda alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Muayyan ishni ko'rib chiqishda tuman sudi amalga oshiradigan sharhlar huquqni qo'llash hujjatining asoslangan shakli sifatida o'z ifodasini topadi va yuridik jihatdan ishonchli bo'ladi. Shubhasiz, mazkur hujjatlar kazual xususiyatga ega bo'lib, sharhlar hujjati sifatida aynan ko'rib chiqilayotgan ish uchun ahamiyatga ega bo'ladi. Huquq normalarini kazual sharhlar alohida ijtimoiy munosabatlarga mo'ljallangan huquq normalari ma'nosini tushuntirishda o'z ifodasini topadi. Uning xususiyati shundaki, mazkur sharhlar qaysi shaxsga nisbatan amalga oshirilayotgan bo'lsa, o'sha shaxsga tegishli bo'ladi.

Jamiyat va davlatda sud hokimiyatini amalga oshiruvchi sud tizimi butun bir huquqiy tizimga ta'sir ko'rsata oladi. Demak, sudlar tomonidan chiqariladigan sharhlar hujjatlarida sud bo'g'inlari orasidagi aloqalar katta ahamiyatga ega. «Bo'g'in» va «instansiya» tushunchalari uzviy, lekin bir ma'noli emas. «Bo'g'in» – sud tizimiga oid tushuncha. U sud ishini uning tizimdagi o'rni, ma'lum hududiy ahamiyatidan kelib chiqib bog'laydi. «Instansiya» – sud ishlarini yuritishga oid tushuncha bo'lib, u sudda ishlarni ko'rib chiqishning maqsadidan kelib chiqadigan sud faoliyatining turiga bog'liq<sup>1</sup>. Demak, birinchi instansiya sudi muayyan ishning mohiyatiga ko'ra sharhlar hujjatlarini chiqarsa, ikkinchi va nazorat

---

<sup>1</sup> Qarang: *Миренский Б. А. Ўзбекистон Республикасининг хуқуқни муҳофаза қилиш органлари.* – Т., 2001. – Б. 42.

instansiyasi sudlari birinchi instansiyadagi sudning hukmi, qarori, ajrimi qonuniy va asosli ekanligini tekshirib, o'z sharhlash hujjatlarini chiqaradi.

Odatda, ish birinchi va ikkinchi instansiyalarda ko'rib chiqilishi mumkin. Nazorat tartibida ishni qayta ko'rib chiqish uchunchi instansiya hisoblanmaydi, chunki bunga istisno tariqasidagina yo'l qo'yiladi. Ikkinchi yoki nazorat tartibida muayyan ishlar ko'rib chiqilar ekan, yuqori turuvchi sud organlari amalda quyi turuvchi sudlarning ishlariga rahbarlikni amalga oshirgan holda sharhlash hujjatlari chiqaradi. Ammo, mazkur sharhlash hujjatlarining ahamiyati birinchi instansiya sudlari chiqaradigan sharhlash hujjatlarinikidan kam emas. Umuman, sud organlari tomonidan chiqariladigan sharhlash hujjatlariga mantiqiy aniqlik xosdir.

Sud hujjatini bajarishdan bo'yin tovlash, uning ijro etilishiga to'sqinlik qilish odil sudlovning obro'siga putur, davlat va jamiyat manfaatlariga zarar yetkazadi, jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquq va qonuniy manfaatlari tiklanishiga qaratilgan faoliyatga salbiy ta'sir ko'rsatadi<sup>1</sup>. Sudlar sharhlash bo'yicha o'z funksiyalarini bajarishida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi muhim rol o'ynaydi. Chunki, Adliya vazirligi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralarining umumiy tusdagi normativ hujjatlarining maxsus ro'yxatini yuritadi. O'zbekiston Respublikasi qonunlari o'zgargan taqdirda vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar o'z hujjatlariga o'zgartishlar kiritadi va ularni Adliya vazirligiga taqdim etadi<sup>2</sup>. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Adliya vazirligi vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining umumijburiy tusdagi normativ hujjatlarining davlat ro'yxatidan o'tkazilish holati to'g'risidagi 2008-yil 16-fevraldan 23-fevralgacha bo'lgan ma'lumoti e'lon qilindi<sup>3</sup>. Unda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan yoki chiqarilgan, Adliya vazirligi tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazishning belgilangan tartibiga zid ravishda amal qilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar aniqlanib, davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan normativ hujjatlar kuchga kirmagan hujjat sifatida huquqiy oqibatlarga olib kelmasligi hamda tegishli huquqiy munosabatlarni tartibga solish, undagi ko'rsatmalarni bajarma-

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми ва Ўзбекистон Олий хўжалик суди Пленумининг қўшма қарори. – Т., 2009. – Б. 5.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг қарорлар тўплами. – Т., 1993. – № 6. – 25-модда.

<sup>3</sup> Қarang: Халқ сўзи. – 2008. – 27 февр.



ganligi uchun fuqarolar, mansabdor shaxslar, korxonalar va tashkilotlarga biror-bir jazo qo‘llash uchun asos bo‘lmashligi belgilab qo‘yildi.

Oliy sud Plenumi qarorlarining mohiyatini aniqlashda quyidagi ikkita savolga javob berishga to‘g‘ri keladi: 1) plenum qarorlari sud pretsedenti shaklida ko‘rib chiqilishi mumkinmi? 2) ular huquq manbai bo‘la oladimi?

## **2-§. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida huquqiy hujjatlarni sharhlashning xususiyatlari**

Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishni taqozo etadi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining asosiy mazmunini huquqni qo‘llash tashkil etgani bois ushbu jarayonda huquq normalarini sharhlash zarurati kelib chiqadi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasida: «Qonunchilik va normativ-huquqiy bazadagi kamchilik va nuqsonlarga imkon qadar tezroq barham berish, huquqni qo‘llash amaliyotida g‘oyat jiddiy o‘zgarishlarni joriy etish, huquqni muhofaza qilish va sud organlarining faoliyatida faqat va faqat qonunga rioya etilishini ta’minlash bilan bog‘liq ishlarni takomillashtirish darkor»<sup>1</sup>, – deb ta’kidlagan edi.

Qonunlarni amalga oshirish uchun huquqiy normalar tizimi yetarli emas. Ba’zan qonunlarni amalga oshirish mexanizmi ishlab chiqilmaganligi bois, huquq normalari tatbiq etilmaydi<sup>2</sup>. Shu sababli, huquqni muhofaza qilish organlari sharhlash hujjatlari orqali huquqni tatbiq etadilar.

Umumiy sharhlash hujjatlari huquqiy normalarni ijtimoiy munosabatlarga qo‘llash uchun ishlab chiqiladi. Ular quyidagi xususiyatlarga ega:

- a) keng doiradagi ijtimoiy munosabatlarga taalluqli;
- b) bajarilishi majburiy hisoblanadi;
- v) yozma yuridik hujjat hisoblanadi, ba’zi hollarda og‘zaki shaklda ham bo‘lishi mumkin;

---

<sup>1</sup> *Каримов И. А.* Мамлакатни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш – устувор мақсадимиздир // *Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир.* – Т., 2010. – Б. 21.

<sup>2</sup> Qarang: *Тулътеев И. Т.* Правотворческое прогнозирование: теория, методология, практика. Автореф. дис. ... д-ра юрид.наук. – Т., 2010. – С. 19.

g) huquqiy tartibga solish faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ular mavjud yuridik amaliyotga o'z ta'sirini o'tkazadi, huquqiy tartibga solishning maqsad va vositalarini belgilab beradi, ya'ni huquqiy normalarning samaradorligini ta'minlaydi.

Umumiy sharhlash hujjatlari ichidagi autentik sharhlash hujjatlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Ular sharhlanayotgan normani ishlab chiqqan organlar tomonidan chiqariladi. Mazkur hujjatlar rasmiy tusga ega bo'ladi.

Kazual sharhlash hujjatlari ma'lum bir holat uchun majburiy ahamiyatga ega bo'ladi. Ammo prinsipial masalalarda (ayniqsa huquqdagi bo'shliq holatida) pretsedent sharhlash muhim o'rin tutadi. Pretsedent sharhlash ma'lum bir yuridik ishni ko'rib chiqish jarayonida shakllanadigan va yuridik amaliyotda tan olingan huquqiy normalarni talab darajasida tushunish va qo'llash uchun huquqni qo'llash amaliyotida ishlab chiqilgan namunadir (maxsus yuridik jurnallarda e'lon qilinadi)<sup>1</sup>. Kazual sharhlash hujjatlaridan huquqni qo'llash faoliyatida foydalaniladi va ishlarning qonuniy hal etilishini ta'minlaydi, qarorlarning adolatli va to'g'ri qabul qilinishiga xizmat qiladi.

Kazual sharhlash hujjatlarining ikki turi mavjud:

- tatbiq etilayotgan normaning fikran anglash jarayoni aks etgan qismi;
- huquqni qo'llash hujjati mazmunining tarkibiy qismi (hukmning asoslantirish qismi).

Kazual sharhlash hujjatlarining ichki mazmunini qabul qilinajak qarorning asoslantirish elementlari, individuallashtirilgan huquq qoidalari tashkil etadi. Binobarin, kazual sharhlash hujjatlari – qonuniy asoslantirish huquqiy hujjatlaridir. Qonuniy asoslantirilgan huquqiy qoidalar shuning uchun zarurki, huquq normalari nihoyatda umumiy tabiatga, mavhum holatga ega bo'lib, huquqni qo'llashda ularni aniqlashtirish talab etiladi. Shu sababli kazual sharhlash hujjatlari qo'llanishi, muayyan ahamiyatga egaligi bilan boshqa sharhlash hujjatlaridan farq qiladi.

Kazual sharhlash hujjatlarining ahamiyati shundaki, ular orqali barqaror qoidalar yaratilib, kelajakda ishlab chiqiladigan huquqiy normalarni eng maqbul tarzda qo'llash uchun namuna bo'lib xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup> Qarang: Общая теория права. Курс лекций / Под общ. ред. проф. В. К. Бабаева. – Н. Новгород, 1993. – С. 13.

Sud organlari har bir fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va boshqa ishlarni ko'rayotganda bu ishlarni tegishli huquqiy normalar bilan ko'rib, hal qilish chog'ida huquqiy normalarni kazual sharhlaydi. Sudning har bir fuqarolik ishi bo'yicha chiqargan qarori yoki jinoyat ishlari bo'yicha chiqargan hukmi huquqiy normani kazual sharhlash asosida amalga oshiriladi<sup>1</sup>.

Sharhlash hujjatlari ma'lum bir shaklda ishlab chiqiladi. Sharhlash hujjatlarining shakli huquqiy normaning mazmuniga singdirilgan davlat amrini (irodasi) izohlash usulidir.

Sharhlash hujjatlarining tashqi shakli ularni ma'lum bir yozma hujjatlarda ifodalash usulidir. Sharhlash hujjatlari tashqi shaklining belgilariga quyidagilar kiradi:

- hujjatni ishlab chiqqan organning nomi;
- hujjatning nomi;
- tartib raqami;
- sanasi;
- sharhning mazmuni va organ rahbarining imzosi.

Sharhlash hujjatlarining og'zaki shakli huquqiy madaniyat va etika normalari orqali belgilanadi.

Ijro etuvchi hujjatlar huquq normasida mustahkamlangan ko'rsatmalarining alohida shaxs yoki vaziyatga nisbatan ijrosini tashkil qilishga qaratilgan.

Sharhlash hujjatlari huquq normalarini sharhlash zarurligining umumiy shart-sharoitlari va sharhlash hujjatlari vujudga kelishining muayyan holatlaridan kelib chiqadi. Sharhlash hujjatlari zarurligining umumiy shart-sharoitlariga quyidagilar kiradi:

a) huquq nisbiy mustaqillikka ega bo'lib, jamiyat ustqurmasiga ta'sir ko'rsatadi. Huquqning mustaqilligi muayyan shaklda o'z ifodasini topadi. Uning nisbiyligining mohiyati shundaki, huquq ijtimoiy munosabatlarning rivojidan ortda qolishi yoki o'zib ketishi mumkin. Shu sababli sharhlash hujjatlarini chiqarish zarur bo'ladi;

b) jamiyat va davlatda huquqni tatbiq etishda qiyinchiliklar tug'diruvchi ijtimoiy ziddiyatlar mavjudligi. Mazkur ziddiyatlar sharhlash hujjatlari chiqarish orqali bartaraf etiladi<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Qarang: Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Проф. Ҳ. Т. Одилқориев таҳрири остида. – Т., 2009. – Б. 442.

<sup>2</sup> Qarang: *Одилқориев Ҳ. Т. Ўзбекистон Республикасида қонун чиқариш жараёни.* – Т., 1995. – Б. 68–69.

Ayrim hollarda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun konstitutsiyaviy normalarning o'zi kifoya qiladi, ba'zi holatlarda esa konstitutsiyaviy normalarni aniqlashtirish zarur bo'ladi. Ana shunday holatlarda sharhlash hujjatlari chiqariladi;

v) sharhlash hujjatlari zarurligining umumiy shart-sharoitlaridan yana birining mavjudligi yuridik amaliyotga ehtiyoj zarurligi bilan asoslanadi.

Huquqni tatbiq etish – normativ-huquqiy qoidalarning ijtimoiy ahamiyati, qadriyati, turli xususiyatlaridan kelib chiqqan holda hayotga joriy qilishning maxsus shaklidir. «Huquqni tatbiq etish», «huquqning ijtimoiy harakati», «huquqiy tartibga solish» kabi huquqiy tushunchalar ijtimoiy hayotga ta'sir etishning turli jihatlarini ifodalovchi kategoriyalar bilan birga qo'llaniladi<sup>1</sup>. Shuningdek, huquqni qo'llash faoliyati yuridik amaliyotning eng muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. Huquqni qo'llovchilar faoliyatining muhimligi va murakkabligi ular chiqaradigan huquqni qo'llash hujjatlarining qonuniyligi va asoslantirilishi uchun alohida mas'uliyat yuklaydi<sup>2</sup>. Huquqni qo'llash hujjatlarining qonuniyligi talablari to'rtta muhim jihatni qamrab oladi. Bularga quyidagilar kiradi: 1) ishni ko'rayotgan vakolatli organ yoki mansabdor shaxsga taalluqlilik, sudlovga va boshqa shu kabi talablarga amal qilish; 2) ish bo'yicha tegishli dalillar to'plash, ishni ko'rish tartibini belgilovchi protsessual normalarga qat'iy amal qilish; 3) aniq yuridik faktga nisbatan tegishli normani to'g'ri yuridik kvalifikatsiya qilish va qo'llash; 4) ish bo'yicha qaror qabul qilish paytida qo'llanilayotgan huquq normasining dispotsiziya (sanksiya)sida ko'zda tutilgan ko'rsatmalarga qat'iy rioya qilish.

Huquqni qo'llash hujjatlarining asoslantirilganligi deganda ko'rilayotgan yuridik ishga tegishli barcha holatlar har tomonlama o'rganib chiqilgan va dalillar asosida isbotlangan bo'lishi tushuniladi. Chunki, aybdorlarni fosh etishga erishishda aslida qanday hodisa yuz berganligi, jinoyatni kim va qanday holatlarda sodir etgani aniqlanishi lozim. Jinoiy hodisani isbot qilish majburiyati yuklatilgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror hamda sud uchun o'tmish hodisasi bo'lganligi sababli, uning

---

<sup>1</sup> Qarang: Проблемы теории / Под ред. проф. М. И. Байтина и проф. В. К. Бабаева. – Саратов, 1987. – С. 223.

<sup>2</sup> Qarang: Тультеев И. Т., Тастанбекова Г. Проблемы толкования и прогнозирования в правоприменительной деятельности // Ўзбекистонда ҳуқуқ фанининг ривожлантиришининг назарий ва амалий муаммолари. – Т., 2004. – Б. 32.

barcha holatlarini faqat isbot qilish vositasi – dalillar yordamida aniqlashlari va tegishli xulosaga kelishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 81-moddasi birinchi qismida belgilanishicha, «ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va shu ishni to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning va sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo‘ladigan har qanday haqiqiy ma‘lumotlar jinoyat ishi bo‘yicha dalil hisoblanadi»<sup>1</sup>. Demak, huquq normalarini sharhlash hujjatlari qonunchilikning talablarini o‘zida aks ettirishi va normativ hujjatlarga mos keladigan bo‘lishi, muayyan organning yoki mansabdor shaxsning bevosita faoliyatiga taalluqli masalalar bo‘yicha chiqarilishi, ilmiy asoslanishi va bu hujjatga rasmiy tus beradigan zarur rekvizitlarga ega bo‘lishi zarur.

Sharhlash hujjatlariga zarurat tug‘iladigan holatlar ko‘p bo‘lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

– qonun chiqaruvchining fikri yetarli darajada aniq bayon qilib berilmaganligi;

– qonunchilik texnikasining yetarli darajada takomillashmaganligi bo‘is huquqiy normalarning noaniqligi;

– yuridik so‘z va iboralarning o‘ziga xosligi.

Har qanday qonun va boshqa huquqiy hujjatlarni qo‘llash jarayonida sharhlashga ehtiyoj tug‘iladi. Shu bilan birga, huquqni sharhlash ma‘lum bir holatlarda, masalan, qonunlarda ziddiyatlar va noaniqliklar bo‘lganida amalga oshiriladi<sup>2</sup>. Qonunlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qib o‘rganishda, albatta sharhlashga hojat bo‘lmaydi. Ammo ularni qo‘llashda normaning mazmuni, so‘z-iboralari aniq va tushunarli talqin etilishiga erishish lozim, chunki mazkur iboralar inson taqdirini hal qiladi. Subyektiv sabablarga ko‘ra, bir kishi uchun aniq va tushunarli bo‘lgan so‘z va iboralar, boshqa kishi uchun noaniq va tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Shu bo‘is sharhlash zaruriyati huquq normalari bilan haqiqiylikning o‘zaro dialektik munosabatidan kelib chiqadi.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. – Т., 1999. – Б. 44.

<sup>2</sup> Qarang: Общая теория государства и права. Т. 2 / Под ред. проф. М. Н. Марченко. – М., 1998. – С. 324.

Huquq normalari umumiy va mavhum xususiyatga ega bo‘lib, u yoki bu jihatlari bilan o‘zaro farq qilgan ko‘pdan-ko‘p muayyan vaziyat, munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo‘ladi. Vaziyatlarning, munosabatlarning xilma-xilligi, yuridik xususiyatga ega bo‘lishi turli-tuman masalalarni keltirib chiqaradiki, ularga faqat sharhlash orqali javob topish mumkin.

Qonunchilik texnikasini huquqiy hujjatlarni rasmiylashtirishning usuli (yo‘l-yo‘riqlari) sifatida talqin qilish normativ hujjatlarning tili va uslubi, tuzilishi, huquqiy qoidalarni shakllantirish hamda bayon etish masalalarini chuqur o‘rganish uchun zaruriy asos hisoblanadi.

Demak, yangi yaratiladigan qonunchilik hujjatining amaldagi, faoliyat ko‘rsatib turgan huquqiy organizmga ravon, silliq, to‘sqinliksiz qo‘shilib ketishi uchun sharoit yaratuvchi muayyan vosita, usul, an‘ana va tajribalar umumlashuviga asoslangan qoidalar, ya‘ni mukammal qonunchilik texnikasi mavjud bo‘lishi lozim. Qonunchilik texnikasi qanchalik puxta ishlangan bo‘lsa, respublika qonunchiligi shunchalik barkamol bo‘ladi<sup>1</sup>.

Qonunchilik texnikasi – normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tayyorlashning huquq ijodkorligi amaliyotiga tayanuvchi va nazariy jihatdan chuqur mushohada etilgan qoida va usullari tizimi bo‘lib, normativ-huquqiy qoidalarning shakli mazmuniga to‘liq va aynan muvofiq bo‘lishini, normativ materialning tushunarli, oddiy hamda oson shaklda berilishi kuzatib borishga imkon berishini, tartibga solinadigan masalalarning bekamu ko‘st qamrab olinishini ta‘minlaydi<sup>2</sup>.

Qonunchilik takomillashmaganligi natijasida huquqiy normalarning to‘g‘ri tatbiq qilinishiga to‘sqinlik qiluvchi holatlarni autentik sharhlash hujjatlari orqali bartaraf etish mumkin. Autentiklik haqiqiylikni, dastlabki manbalarga asoslanganligini bildiradi<sup>3</sup>.

Huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari tizimida prokuratura alohida o‘rin tutib, u chiqaradigan sharhlash hujjatlarining xususiyatlari sud organlari tomonidan chiqariladigan sharhlash hujjatlarining xususiyatlariga o‘xshashdir. O‘zbekiston Respublikasining prokuratura organlari

---

<sup>1</sup> Qarang: *Одилқориев Х. Т. Ўзбекистон Республикасида қонун чиқариш жараёни.* – Т., 1995. – Б. 179–180.

<sup>2</sup> O‘sha manba. – Б. 183.

<sup>3</sup> Qarang: *Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Проф. Ҳ. Т. Одилқориев таҳрири остида.* – Т., 2009. – Б. 420.

tizimi O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokuraturasi, viloyatlar, Toshkent shahar, shaharlar va tumanlar, tumanlararo va boshqa hududiy prokuratura organlaridan iboratdir. Shuningdek, unga transport, harbiy, tabiat muhofazasi prokuraturalari va boshqa ixtisoslashgan prokuraturalar ham kiradi. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti hamda uning joylardagi bo‘linmalari faoliyat ko‘rsatadi<sup>1</sup>.

«...Parlamentimiz sud-huquq tizimini chuqur isloh qilish va liberallashtirish, sud hokimiyatining amaldagi mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha mamlakatimizda olib borilayotgan keng miqyosli ishlarga ham salmoqli hissa qo‘shdi. O‘tgan besh yil mobaynida qabul qilingan 58 ta qonunga muvofiq, sud-huquq tizimidagi islohotlar yanada chuqurlashdi. Shu davrda jinoiy jazo tizimini liberallashtirish, amalda sud hokimiyatining mustaqilligini ta’minlash jarayonlariga katta e’tibor berildi. Advokatura instituti isloh etildi. Sud qarorlarini ijro etish tizimi, prokuratura faoliyati takomillashtirildi, butun sud-huquq tizimini bosqichma-bosqich demokratlash-tirishga qaratilgan boshqa bir qator chora-tadbirlar amaliyotga tatbiq etildi»<sup>2</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tomonidan chiqariladigan sharhlar hujjatlarining asosiysi O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining sohaviy buyruqlari hisoblanadi. Ular normativ hujjatlar toifasiga kirib, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, «Prokuratura to‘g‘risida»gi qonunga va O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonunlariga asoslanadi. Bosh prokurorning buyruqlari prokuratura organlari tizimining faoliyatini, prokurorlik nazoratini tashkil etish hamda xodimlarni moddiy va ijtimoiy ta’minlash choralarini amalga oshirishning asosiy, dolzarb masalalari bo‘yicha chiqariladi. **Prokuror nazorati** – O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlarning O‘zbekiston Respublikasi hududida barcha vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, nazorat organlari, hokimlar kimga bo‘sunishidan,

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг «Прокуратура тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистоннинг янги қонунлари. – Т., 2004. – Б. 8–9.

<sup>2</sup> Каримов И. А. Мамлакатни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш – устувор мақсадимиздир // Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. – Т., 2010. – Б. 10–11.

kimning tasarrufida bo‘lishidan va mulkchilik shaklidan qat’i nazar, muassasalar, korxonalar va tashkilotlar, harbiy qismlar, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar, shuningdek fuqarolar tomonidan qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishini ta’minlash, har qanday qonun buzilishi, uning sabablari va shart-sharoitlariga o‘z vaqtida barham berish, buzilgan huquqlarni tiklash hamda aybdorlarni belgilangan tartibda qonuniy javobgarlikka tortish yo‘li bilan davlat nomidan amalga oshiriladigan faoliyatdir<sup>1</sup>.

Prokuratura organlari sudlarda jinoyat ishlari ko‘rib chiqilayotganda davlat ayblovini qo‘llab-quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar hamda xo‘jalik nizolarini ko‘rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo‘lgan sud hujjatlariga protest keltirish orqali sharhlash hujjatlari chiqarishi mumkin. Shu bois, sudlar faoliyatida asosiy e’tibor qonuniylik va ijtimoiy adolatni ta’minlash, fuqarolarning huquq va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish, sud-huquq islohotlarini amalga oshirish jarayonida qabul qilingan qoidalarni amaliyotga tatbiq etishdan kelib chiqadigan vazifalarni bajarishga qaratilmoqda<sup>2</sup>.

Prokuratura organlarining yuqorida tilga olingan faoliyati va bu faoliyatni amalga oshirish usullari tegishli qonunlarda aniq va ravshan belgilab berilgan. Masalan, prokurorning sudda ishtirok etishi – Jinoyat, Fuqarolik va Xo‘jalik protsessual kodekslarida, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda, jinoyat ishlarini tergov qilish faoliyati – Jinoyat-protsessual kodeksda, ozodlikdan mahrum etish, qamoqqa olinganlar va jinoiy jazolarni qo‘llash faoliyati bo‘yicha nazorat vakolati – Jinoyat-ijroiya kodeksida belgilangan. Prokuror talablari bajarilishining majburiyligi va prokurorning o‘z vakolatlarini moneliksiz amalga oshirishi qonun bilan kafolatlangan. Prokuratura organlarining o‘z vazifasini bajarishiga to‘sqinlik qilish va prokurorning talablarini bajarmaslik Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 197-moddasiga muvofiq javobgarlikka olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari va boshqa hujjatlari (individual xususiyatga ega hujjatlar bundan mustasno) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga zid bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarori asosida bekor qilinadi (O‘zbe-

---

<sup>1</sup> Qarang: ТоҶихонов У., Одилқориев Ҳ. Т., Саидов А. Х. Ўзбекистон Республикасининг конституциявий ҳуқуқи. – Т., 2001. – Б. 656–657.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари. – Т., 2009. – Б. 3.



kiston Respublikasi «Prokuratura to‘g‘risida»gi qonunining 13-moddasi)<sup>1</sup>. Shuni yoddan chiqarmaslik lozimki, prokuror nazorati sohalari, bir-biridan ajratilgan alohida qismlar emas, ular har xil yo‘nalishlarni ko‘zda tutuvchi, bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq, yagona prokurorlik faoliyatidir, ular orqali qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan chiqariladigan sharhlar hujjatlari o‘z mazmuniga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlariga o‘xshab ketadi. O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi tomonidan chiqariladigan sharhlar hujjatlari buyruq, yo‘riq-noma va shu kabilardagina emas, balki vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta‘minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilishda ham o‘z ifodasini topadi. Shu sababli huquqiy normalarni sharhlar prokuror nazorati hujjatlarining samaradorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Prokuror nazorati hujjatlarida qonunlarga berilgan sharhlar qanchalik to‘g‘ri va ishonchli bo‘lsa, nazorat hujjatlari shunchalik qonuniy bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda olib borilayotgan sud-huquq islohotlari natijasida qonunchiligimizda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar, ayniqsa qamoqqa olishga sanksiya berish huquqining prokuratura organlaridan olinib, sudlar zimmasiga o‘tkazilishi prokuratura organlari tomonidan chiqariladigan sharhlar hujjatlarining mazmuniga ham jiddiy o‘zgartishlar kiritilishini talab etmoqda.

### **3-§. Ichki ishlar organlari faoliyatida huquqni sharhlar hujjatlari**

Yurisprudensiya sohasidagi tadqiqotchilar oldida huquq nazariyasi va amaliyotida fundamental tadqiqotlarning yangi qirralari vujudga kelmoqda. Shulardan biri ichki ishlar organlari faoliyatida huquqni sharhlar masalasidir.

Ma‘lumki, ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdan, qonun

---

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги қонунлари. – Т., 2004. – Б. 11.

ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlashdan, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iborat.

Umuman olganda, ichki ishlar organi huquqiy tartibning muhofaza qilinishini ta'minlashga qaratilgan funksiyalarni bajaradi, ya'ni:

– inson va fuqaro huquqlari va erkinliklarini, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, obyektlarni himoya qilish, jamoat tartibini va ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash choralari ishlab chiqadi va yuzaga chiqaradi;

– jinoyatlar va ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish, jinoyatlarni ochish va tergov qilish chora-tadbirlarini belgilaydi va amalga oshiradi.

Ichki ishlar organi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda huquqni tatbiq etadi, huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Bir so'z bilan aytganda, ichki ishlar organlari huquqni tatbiq etish mexanizmidan o'ziga xos o'rin tutadi.

Ichki ishlar organlari kasbiy faoliyatining asosiy mazmunini huquqni qo'llash tashkil etadi. Huquqni qo'llash jarayonining ajralmas tarkibiy qismi va zaruriy sharti huquqni sharhlashdir. Amaliyot xodimlarining huquqni tushunish va tushuntirishning amaliy va nazariy jihatlarini mukammal bilishi hamda o'z faoliyatida qo'llashi o'ta muhimdir.

Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy mahorati qonuniylik, inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish, shuningdek ko'rib chiqilayotgan faoliyatning boshqa prinsiplariga og'ishmay amal qilish sharoitida, jinoyatlarni ochish va ularning oldini olish hamda himoyachilarni qidirish bo'yicha zimmalariga yuklangan vazifalarni lozim darajada amalga oshirish uchun zaruriy sharoitdir<sup>1</sup>.

Lekin amaliyotda huquqni qo'llovchi organlar tomonidan huquqiy normalar noto'g'ri qo'llanilishi holatlari uchrab turibdi. N. Ismoilovning ta'kidlashicha, «...MJTKning 249–268-moddalarida bir necha davlat organlariga (mansabdor shaxslariga) ma'muriy-huquqiy vakolat berilgan. Ushbu organlarga tegishli ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish faoliyati o'rganilganda, ma'muriy huquqbuzarlik tarkibi bo'lmasda, javobgarlikka tortish holatlari aniqlangan. Jumladan, bunday salbiy

---

<sup>1</sup> Qarang: Саумбаев Т. Р. Ички ишлар органларининг оператив таркибини касбга ўрнатишни такомиллаштириш йўллари // Ўзбекистонда ҳуқуқ фанининг ривожлантиришнинг назарий ва амалий муаммолари. – Т., 2004. – Б. 181.

holatlar respublikamizning Toshkent (5), Andijon (6), Farg‘ona (9), Sirdaryo (12), Samarqand (14), Qashqadaryo (18), Surxondaryo (25), Namangan (37), Buxoro viloyatlari (94) va Toshkent shahrida (143) hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida kuzatilib (29), jami 392 tani tashkil etgan. Bu esa mazkur organlar mansabdor shaxslarining bu boradagi yuridik bilim darajasi (yoki ma‘lumoti)ning yetarli emasligini ko‘rsatadi»<sup>1</sup>.

Yuqorida keltirilgan misoldan ko‘rinib turibdiki, huquqni qo‘llovchi subyektning huquqiy bilimi kam bo‘lsa, huquqni sharhlash qoidalarini bilmaydi, natijada fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga zid qarorlar qabul qiladi.

Sharhlash huquqni qo‘llash jarayonida mustaqil bir bosqichni tashkil etib, huquq normasining umumiy mazmunini muayyan bir hayotiy holatga tatbiq etgan holda aniqlash maqsadiga xizmat qiladi. Moddiy huquq normasi huquqni qo‘llash hujjatining mazmunini bevosita emas, balki huquqni muhofaza etuvchi organlar faoliyati orqali belgilab beradi<sup>2</sup>.

Huquqni sharhlovchi subyekt huquqiy norma tatbiq etilayotgan shart-sharoit va omillarni hisobga olishi lozim bo‘ladi. Bu eng avvalo baholovchi, masalan, «uzrli sabablar», «ko‘p bo‘lmagan zarar», «katta miqdordagi zarar», «oxirgi zaruriyat» kabi atamalarni sharhlashga taalluqlidir.

Huquqni qo‘llovchi subyekt o‘z kasbiy faoliyatida baholovchi tushunchalarni o‘zida mujassamlagan huquqiy normalardan foydalanganida mazkur holatlar aniqlashtirishni talab etadi. Albatta, qonunchilikda, Oliy sud Plenumi qarorlarida bunday atamalarni aniqlashtirishga qaratilgan tushuntirishlar beriladi. Shunga qaramay, ularda har bir hayotiy holat uchun har doim javob topilmaydi. Shu sababli, huquqni qo‘llovchida o‘zining kasbiy mahorati, huquqiy ongi va dunyoqarashi nuqtai nazaridan huquqni sharhlashga ehtiyoj mavjud bo‘ladi.

Aynan shunday normalar huquqni qo‘llovchi subyektning u yoki bu harakatni sodir etishiga yo‘l qo‘yadi, ayni vaqtda, huquqni qo‘llovchi subyektga har bir aniq hayotiy holatda, qonun doirasida, lekin o‘z nuqtai nazaridan turib yo‘l tutishi uchun erkinlik yaratadi.

---

<sup>1</sup> *Исмоилов Н. Т. Маъмурий жаримани қўллаш асослари ва тартиблари хусусида баъзи фикрлар // Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашнинг назарий-амалий муаммолари. – Т., 2006. – Б. 249.*

<sup>2</sup> *Қағанг: Гранат Н. Л. Социологический способ толкования права и проблемы усмотрения в правоприменительной деятельности в правоохранительной сфере. – М., 1991. – С. 51.*

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 85-moddasida ish bo‘yicha isbot qilish tartibi mustahkamlagan. Unga ko‘ra, isbot qilish ishni qonuniy, asoslangan va adolatli hal qilish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar to‘g‘risidagi haqiqatni aniqlash maqsadida dalillarni to‘plash, tekshirish va baholashdan iboratdir. Agarda huquqni qo‘llovchi organlar aybni isbotlash uchun yetarli dalillar to‘play olmasalar, shaxs aybsiz deb topilishi va jinoyat ishi tugatilishi lozim.

Jinoyat ishlarini tugatish kafolatlari JPKning 83-moddasida ko‘zda tutilgan rehabilitatsiya uchun asoslar bilan bevosita bog‘liqdir. Unga ko‘ra, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi quyidagi hollarda aybsiz deb topiladi va rehabilitatsiya etilishi lozim: *birinchidan*, ish qo‘zg‘atilgan va tergov harakatlari yoki sud muhokamasi o‘tkazilgan ish bo‘yicha jinoiy hodisa yuz bermagan bo‘lsa; *ikkinchidan*, uning qilmishida jinoyat tarkibi bo‘lmasa; *uchinchidan*, uning sodir etilgan jinoyatga daxli bo‘lmasa. Bunda tergovchi, prokuror yoki sudning nuqtai nazariga yo‘l qo‘yilmaydi.

Rehabilitatsiya asoslarisiz, ya’ni ayblilik masalasini hal etmasdan hamda tomonlarning kelishuvi bo‘yicha jinoyat ishini tugatishda huquqni qo‘llovchi subyektlarning nuqtai nazari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi<sup>1</sup>.

Yurisprudensiyada dastlabki tergov idoralari tomonidan huquqni sharhlash, ularning turlari masalasi muhimdir. «Sudgacha bo‘lgan ish yuritishda qonunni sharhlashning ikki tarkibi keng tarqalgan: *birinchidan*, dastlabki tergovni amalga oshiradigan shaxsning, shuningdek gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, ularning himoyachilarining va jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilarining fikrlash jarayonini tashkil etadigan huquqiy normalarning mohiyatini tushuntirish; *ikkinchidan*, sharhlanayotgan normalarda ijro etilishi majbur bo‘lgan rasmiy hujjatlarni chiqarishga vakolatli davlat organlarining maxsus faoliyatini tashkil etadigan huquq normalarini tushuntirish»<sup>2</sup>.

Huquqni sharhlash nazariyasida tan olingan fikrga ko‘ra, ichki ishlar organlari tomonidan huquqning sharhlanishi rasmiy sharhlash ko‘rinishida bo‘ladi.

---

<sup>1</sup> Qarang: *Камалходжаев Д.* Конституционные гарантии прекращения уголовных дел // Конституция ва фуқаролик жамиятини шакллантиришнинг долзарб муаммолари. – Т., 2003. – Б. 152.

<sup>2</sup> *Саидов Б. А.* Шахсинг ҳуқуқ ва эркинликларии таъминлашнинг назарий муаммолари // Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашнинг назарий-амалий муаммолари. – Т., 2006. – Б. 21.

Turli davlat organlarining huquqni sharhlash hujjatlarida mujassamlangan rasmiy sharhlash natijalari ichki ishlar organlari xodimlari huquqni tatbiq etishda qiyinchilikka uchraganida ularni qidirib topish va o'rganishga imkon yaratadi. Ichki ishlar organlarining amaliy faoliyatida rasmiy sharhlash hujjatlarisiz hal qilish qiyin bo'lgan hayotiy voqealar ko'p uchraydi. Rasmiy sharhlash huquqiy hujjatlarni bir xilda tushunish va qo'llash uchun sharoit yaratadi, umumiy huquqiy faoliyatda qonuniylikni ta'minlaydi.

Ichki ishlar organlarida rasmiy sharhlash subyektlarini quyidagilar tashkil etadi:

a) normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish vakolatiga ega organlar va mansabdor shaxslar (autentik va sharhlashga vakolat olgan subyektlar);

b) ichki ishlar organlari faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan, ular uchun rasmiy sharhlash majburiyat hisoblangan, huquqni qo'llash faoliyatini amalga oshiruvchi ichki ishlar organlari xodimlari (surishtiruvchi va tergovchilari), litsenziya-ruxsat berish tizimi xodimlari, xorijga chiqish-kirish xizmati xodimlari, shuningdek ichki ishlar organlari shtablari, post-patrul, yo'l harakati xavfsizligi, huquqbuzarliklarning oldini olish, yong'in xavfsizligi xizmati xodimlari.

Rasmiy sharhlash subyekti u yoki bu maqsadga erishishga intilib, turli huquqiy normalarning mazmunini tahlil qilishi va talab etilganini tanlay olishi lozim. U zarur normani tanlashda quyidagi prinsiplarga amal qilishi kerak:

a) tanlab olingan norma qo'yilgan maqsadga erishish uchun mos kelishi;

b) tanlab olingan normadan maqsadga erishish uchun qanchalik talab etilsa, shunday ravishda foydalanish talab etiladi;

v) agarda subyekt oldida maqsad qo'yilgan va unga erishish mumkin deb hisoblansa, uning tatbiq etilishi, qo'yilgan maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan tegishli vositalar to'liq hajmda, hatto matn doirasidan kengroq ravishda tadqiq etilishi talab etiladi;

g) maqsadga erishish uchun mos kelgan va tanlangan huquqiy norma qo'shimcha tahlilsiz qo'llanishi mumkin emas<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> *Мирошников Е. Г.* Официальное толкование права и его значение в деятельности органов внутренних дел. Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. — М., 2000. — С. 8.

Huquqiy normalarni hayotga tatbiq etish uchun normativ-huquqiy hujjatning mazmunini yoritib berish, ya'ni huquqiy hujjatning mazmuniga kirish kerak bo'ladi. Bu yuridik sharhlar orqali amalga oshadi. Yuridik sharhlar barcha huquqni qo'llovchi subyektlar tomonidan amalga oshiriladi.

Ichki ishlar organlari yuridik sharhlar asosida huquq, huquqiy normalar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ladi. Huquqiy voqelik jamiyatda faqat normativ-huquqiy hujjatlar mavjudligi bilan cheklanib qolmaydi. Ichki ishlar organlarida yuridik sharhlarining ahamiyati shundaki, *birinchidan*, u normada mujassamlangan hokimiyat irodasini anglash va tushuntirish vositalaridan biri hisoblanadi; *ikkinchidan*, yuridik sharhlar huquqiy normalarning to'g'ri tatbiq etilishi uchun shart-sharoit yaratib beradi; *uchinchidan*, yuridik sharhlar mamlakatning butun hududida huquqning bir xil tushunilishini ta'minlaydi; *to'rtinchidan*, yuridik sharhlar davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan huquqni qo'llash, huquqiy hodisalarni tahlil etish, malakalash va qarorlar chiqarishda muhim bo'g'in hisoblanadi; *beshinchidan*, qonunchilik, huquqni qo'llashda mavjud bo'shliq va boshqa holatlarni bartaraf etishga, shu orqali huquq va qonunchilikdagi bo'shliqlarni to'ldirishga yordam beradi; *oltinchidan*, yuridik sharhlar aholining huquqiy tarbiyasi va huquqiy madaniyatini oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi; *sakkizinchidan*, yuridik sharhlar orqali alohida olingan huquqiy hujjatlarni boshqa huquqiy hujjatlar bilan solishtirib ko'rish orqali ulardagi farqlarni aniqlash va shu orqali huquq tizimining yagonaligini ta'minlash mumkin bo'ladi; *sakkizinchidan*, aynan yuridik sharhlar, jamiyatdagi huquqiy normalar, yuridik amaliyot, huquqiy ongni tahlil etish orqali huquqshunos olimlar amaldagi qonunchilikni takomillashtirishga doir taklif, g'oya, konsepsiya va nazariyalarni ilgari surishlari mumkin bo'ladi<sup>1</sup>.

Ichki ishlar organlari faoliyatida sharhlar muammolarini ko'rib chiqishda sharhlarining nafaqat yuridik, balki ijtimoiy mohiyatini ham hisobga olish lozim bo'ladi, chunki huquq normalarining ijtimoiy mohiyatini ochib berish ularning to'g'ri qo'llanishini bevosita ta'minlab beradi. Bu o'rinda so'z qonunlarda va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda jamiyati-

---

<sup>1</sup> Qarang: *Березина Е. А.* Толкование договора как вид юридического толкования. Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Екатеринбург, 2001. – С. 13-14.

mizning bugungi rivojlanish jarayonini aks ettirish haqida bormoqda. Qonunlar jamiyat hayotining obyektiv shart-sharoitlariga mos kelishi, ulardan o‘zib ketishi yoki orqada qolishi mumkin. Mazkur holatlarni o‘z vaqtida aniqlab, ularni joy-joyiga qo‘yishga huquq normalarini sharhlash orqali erishish mumkin. Chunki, bugungi kunda mamlakatimizda huquqiy islohotlar izchil davom etmoqda, huquq normalari, huquq ijodkorligi jarayoni, normativ-huquqiy hujjatlar tizimi, huquqiy munosabatlar, huquqiy tartibga solish mexanizmi, yuridik muassasalar tizimi, yuridik amaliyot, huquqiy ong, huquqiy siyosat, huquqiy mafkura, huquqiy madaniyat va shu kabi huquqiy tizimning barcha tarkibiy qismlari bir butun mexanizm sifatida modernizatsiya qilinmoqda.

Shu o‘rinda, oldimizda turgan barcha muammo va vazifalarni yechishda «Islohot – islohot uchun emas, avvalo, inson uchun, inson manfaatlarini ta‘minlash uchun»<sup>1</sup> degan teran ma‘noli fikrni aslo unutmasligimiz kerak. Bunda so‘z va matbuot erkinligi himoyasi, ommaviy axborot vositalariga oid qonunchilik me‘yorlari yangi qarashlar asosida talqin etilishi, aniqrog‘i, ularga mukammal huquqiy sharhlar berilishi zarur bo‘ladi<sup>2</sup>.

Ichki ishlar organlari huquqni muhofaza etuvchi organlar sifatida huquq ijodkorligi jarayonida faol ishtirok etib, qonun osti shaklida huquqiy normalar (buyruqlar, yo‘riqnomalar, ko‘rsatmalar) ishlab chiqadilar.

O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarining huquq normalarini sharhlash hujjatlari rasmiy va norasmiy xususiyatga ega bo‘ladi. Ichki ishlar organlari sharhlash hujjatlarini tahlil qilish quyidagi sabablarga ko‘ra murakkabdir: 1) ichki ishlar organlarining faoliyati hokimiyat vakolatiga ega bo‘lib, bunda davlat majburlov choralari qo‘llaniladi; 2) ichki ishlar organlari xodimlariga berilgan hokimiyat vakolatlari ular tomonidan amalga oshiriladigan xatti-harakatlar va qabul qilinayotgan qarorlar uchun yuqori darajadagi mas‘uliyat yuklaydi.

Huquqni qo‘llovchi xodimlar dunyoqarashlari keng, har tomonlama bilimli va kirishimli bo‘lishlari lozim. Ichki ishlar organlarining xodimlari huquqbuzarliklarga qarshi kurashning oldingi safida bo‘lar ekanlar, o‘z

---

<sup>1</sup> Каримов И. А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. Т. 14. – Т., 2006. – Б. 63.

<sup>2</sup> Qarang: Ўзбекистон жамиятни демократлаштириш ва янгилиш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ қилиш йўлида. – Т., 2005. – Б. 239.

shaxsiy fazilatlari bilan barchaga oʻrnak boʻlishlari kerak. Ichki ishlar organlarining xodimlari qaysi lavozimda xizmat qilishlaridan (profilaktika inspektori, jinoyat qidiruv xodimi, yoʻl-patrul xizmati inspektori, tergovchi va boshqa kasb egasi boʻlishidan) qatʼi nazar, ulardan maxsus bilim va shaxsiy koʻnikmalarga ega boʻlish talab etiladi.

Ichki ishlar organlari tomonidan chiqariladigan huquqiy normalarni sharhlash hujjatlari, normativ-huquqiy hujjatlarning bir turi hisoblanadi. Chunki, ular Oliy sud Plenumi qarorlariga oʻxshab sharhlash hujjatlarini alohida chiqarmaydilar. Yaʼni, ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladigan sharhlash harakatlari, ular tomonidan chiqariladigan normativ hujjatlarning mazmuniga singib ketadi. Oʻzbekiston Respublikasi IIV tomonidan chiqariladigan huquqiy hujjatlarning koʻpchiligi maxsus cheklovchi grifga egaligi, ularni umumnazariy nuqtai nazardan ochiq ravishda toʻliq tahlil etish imkonini bermaydi. Shu bois Ichki ishlar vazirligi tomonidan chiqarilgan huquqiy hujjatlarni, jumladan sharhlash hujjatlarini tahlil etishga bagʻishlangan maxsus tadqiqotlar hozirgacha olib borilmagan.

Soʻrovnomada berilgan «quyida keltirilgan omillardan qaysilari yuridik sharhlashning sifati va samaradorligiga qay darajada taʼsir koʻrsatadi» degan savolga respondentlarning 21,4 foizi har bir qonunga rasmiy sharh chiqarishni qoʻllab-quvvatlashdi. Shunday ekan, IIV tomonidan chiqariladigan sharhlash hujjatlarining tahlilini Vazirlikning huquqiy hujjatlari bilan birga olib borish maqsadga muvofiqdir. Oʻzbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ish tartibi, vazifalari, huquq ijodkorlik faoliyati konstitutsiyaviy hamda qonuniy asosda amalga oshiriladi. IIVning oʻziga xos muhim xususiyati uning faoliyati normativ xususiyatga egaligidadir. Bu xususiyat uning qonun normalarini ijro etishi yuzasidan huquqiy hujjatlar yaratishida namoyon boʻladi.

2001-yil 21-martda «Oʻzbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida» Oʻzbekiston Respublikasi-ning Prezidentining farmoni qabul qilinishi katta ahamiyatga ega. Unda ichki ishlar organlari tizimidagi kamchilik va muammolar, ularni bartaraf etish yoʻllari, ular oldidagi dolzarb vazifalar aniq-ravshan koʻrsatib berildi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Qarang: Ўзбекистон жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох қилиш йўлида. – Т., 2005. – Б. 198.



Ichki ishlar organlari tizimidagi tergov xodimlarining faoliyatida huquq normalarini sharhlash alohida ahamiyat kasb etadi:

*birinchidan*, tergovchi o‘z xizmat faoliyatida amaldagi qonunchilik hamda rasmiy va norasmiy tushuntirishlar, ko‘rsatma va yo‘riqnomalar berishdan foydalanadi. Shu jihatdan, sharhlash hujjatlari yuridik normalarni to‘g‘ri anglash va qo‘llashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Huquqni sharhlash tergov ishiga tashqi ta‘sir o‘tkazadi;

*ikkinchidan*, tergovchi xizmat jarayonida huquq normalarini qo‘llar ekan, rasmiy va norasmiy sharhlash hujjatlaridan foydalanibgina qolmay, o‘zi ham amaldagi qonunchilikni sharhlaydi va sharhlash hujjatlari chiqaradi. Shu bois huquqni sharhlash huquqni qo‘llashga mos keladi va uning natijalariga bog‘liq bo‘ladi<sup>1</sup>.

Tergov xodimlari tomonidan chiqariladigan sharhlash hujjatlarining yuridik tabiati to‘g‘risidagi masala katta ahamiyatga ega. Tergov faoliyatida huquq normalarini sharhlash huquqni qo‘llash jarayonida, aniqroq aytganda, uning ma‘lum bosqichida, ya‘ni yuridik adabiyotlarda ko‘rsatilganidek, «ko‘rilayotgan ishga mos keladigan huquq normasini tanlashdir»<sup>2</sup>. Chunki, huquqni qo‘llash hujjatlari huquqni sharhlash elementlarini o‘zida mujassam qiladi. Shuning uchun tergovchi tomonidan yaratilgan huquqni qo‘llash hujjatlariga tergovchi tomonidan amalga oshiriladigan huquq normalarini sharhlash faoliyatining natijasi deb qaramoq lozim.

Dastlabki tergov jarayonida yaratiladigan protsessual hujjatlar u yoki bu darajada amaldagi qonunchilikni sharhlashni o‘zida mujassam etadi. Chunki, aksariyat hollarda huquqlari va manfaatlari buzilgan shaxs jinoyat protsessining sudgacha bo‘ladigan bosqichlarida surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organlarning qaror va harakatlari ustidan shikoyat qilish huquqiga ega bo‘ladi. Shu sababli ichki ishlar organlari tergov xodimlari ish yuritish paytida qabul qilingan protsessual qarorlar va amalga oshirilgan protsessual harakatlarning qonuniyligi va asosligini sharhlashlari zarur bo‘ladi.

---

<sup>1</sup> Qarang: *Вопленко Н. Н.* Следственная деятельность и толкование права. – Волгоград, 1978. – С. 65.

<sup>2</sup> Qarang: Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Проф. Ҳ.Т.Одилқориев таҳрири остида. – Т., 2009. – Б. 416.

## XULOSA

Huquqni sharhlash – davlat organlari, mansabdor shaxslar, fuqarolar va boshqa subyektlarning huquq normalari mazmunini aniqlash, ularda ifodalangan maqsad, iroda va mazmunni, qoidalar ma’nosini ochib berishga qaratilgan maxsus faoliyatni qamrab oluvchi institutdir. Sharhlash ijodiy faoliyat bo‘lib, bu jarayonda huquqning o‘ziga xos jihatlari anglanadi, huquq normalarida ifodalangan ko‘rsatmalarning mohiyati aniqlanadi. Huquq normalarini sharhlash – murakkab, ko‘p qirrali faoliyat.

Huquqni sharhlash natijasida uning mazmuni, ijtimoiy vazifasi, amaliy ahamiyati aniqlanadi va tushuntiriladi. Sharhlashning maqsadi qonun chiqaruvchi organning huquq normasida belgilangan maqsadi, irodasi va vazifalarini ifodalash, huquq normasining asl mazmun-mohiyatini yoritish hamda huquq normasining bir ma’noda, bir xilda tushunilishiga erishishdan iborat.

Sharhlash zaruratini yuzaga keltiradigan obyektiv omillarga quyidagilarni kiritish zarur: huquq normalarining pozitiv nomuayyanligi va ular bilan tartibga solinadigan ma’lum bir hayot sharoitlarining rang-barangligi; huquqning ijtimoiy munosabatlar rivojlanishidan ortda qolishi; qonun bilan qamrab olinmagan ijtimoiy munosabatlar sohalarining mavjudligi; huquq tilining o‘ziga xosligi; huquqda mantiqiy-strukturaviy nuqsonlar uchrashi (huquqdagi kamchiliklar, normalar o‘rtasidagi kolliziyalar, keragidan ortiq darajada huquqiy tartibga solish, yuridik va terminologik konstruksiyalarning mukammal emasligi va sh.k.). Subyektiv omillarga sharhlash subyektlarining huquqiy ong darajasi, huquqiy bilimlari, huquqiy (kasbiy) tajribasi va boshqa shaxsiy fazilatlarida aks etuvchi xususiyatlar kiradi.

Sharhlash – aksariyat hollarda huquqiy qoidada ifodalangan axborotning to‘liq va yetarli emasligi, aniq bayon etilmagani bilan bog‘liq informatsion noaniqlik sharoitida huquq subyekti tomonidan qaror qabul qilish usulidir. Bunda u norma yaratishda yo‘l qo‘yilgan nuqsonlarni bartaraf etish vositasi sifatida amal qiladi. U qonun chiqaruvchi organning haqiqiy irodasini ifodalash maqsadida amalga oshiriladi va bilish jarayonini oqilona darajada davom ettirishni nazarda tutadi. Sharhlash huquqiy bilish jarayoni hisoblanadi, u yuridik ahamiyatga molik oqibatlariga olib keluvchi

qaror qabul qilish uchun zarur axborot zaminini yaratishga ko‘maklashadi. Bunda sharhlash doirasini huquqiy normalar, ularning ma’nosi va mazmuni bilangina cheklash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Norma matni, qonunchilik prinsiplari ma’nosi, umuman huquqning mazmuni to‘liq sharhlanadi.

Huquqiy tushuncha va atamalarning bir xilda sharhlanishini ta’minlash yuridik amaliyotning muhim muammolaridan biridir. Bunday bir xillikning yo‘qligi esa qonun hujjatlarini qo‘llashda tafovutlarga olib kelishi mumkin. Huquqiy terminologiya bir xilda idrok etilishini ta’minlashga quyidagilar ko‘maklashadi:

- atama va unga muvofiq keluvchi huquqiy ta’rif barcha normativ-huquqiy hujjatlarda bir xilda talqin etilishi lozim;

- qonunosti hujjatlarining atama va ta’riflari qonunlarda mustahkamlangan tushunchalar bilan muvofiq kelishi darkor;

- qonunchilik terminologiyasi O‘zbekiston Respublikasi ratifikatsiya qilgan xalqaro hujjatlar terminologiyasiga zid bo‘lmasligi kerak;

- yuridik atama hammaga ma’lum tushunchani o‘zgartirib, umumiy muomalada bo‘lgan so‘zdan mutlaqo boshqacha ma’noda qo‘llashgacha kengaytirilishi mumkin emas;

- huquqiy tushunchalarni joriy etishda so‘zlarning xossalari yodda tutish va huquqiy konstruksiyalar matnini tuzishda ulardan to‘g‘ri foydalanish, matnni huquq normalari ma’nosini tushunishga xalal berishi mumkin bo‘lgan sinonimlar, nisbiy tushunchalar bilan to‘ldirib yubormaslik lozim.

## MUNDARIJA

<b>SO‘Z BOSHI .....</b>	<b>3</b>
<b>KIRISH.....</b>	<b>4</b>
<b>I bob. HUQUQNI SHARHLASH ASOSLARI .....</b>	<b>6</b>
1-§. Huquqni sharhlash kategoriyasining shakllanishi, mohiyati va mazmuni.....	6
2-§. Huquqni sharhlash usullari.....	12
3-§. Huquqni sharhlash turlari va hajmi .....	20
<b>II bob. HUQUQNI TATBIQ ETISHDA SHARHLASHNING O‘RNI VA ROLI.....</b>	<b>28</b>
1-§. Sharhlash – huquqni tatbiq etishning muhim bosqichi .....	28
2-§. Sharhlashning huquqiy ong hamda madaniyatga ta’siri .....	34
3-§. Zamonaviy huquqiy tizimlarda huquqni sharhlashning o‘ziga xos jihatlari .....	42
4-§. Sharhlashning huquq ijodkorligi va huquqni qo‘llash faoliyati uchun ahamiyati.....	51
<b>III-bob. SUD HOKIMIYATI VA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR FAOLIYATIDA HUQUQNI SHARHLASH.....</b>	<b>63</b>
1-§. Sud hokimiyati organlari faoliyatida huquqni sharhlash .....	63
a) Huquqni sharhlash – Konstitutsiyaviy sudning asosiy funksiyasi ....	63
b) Sud organlarining huquqni sharhlashi.....	70
2-§. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida huquqiy hujjatlarni sharhlashning xususiyatlari .....	73
3-§. Ichki ishlar organlari faoliyatida huquqni sharhlash hujjatlari.....	81
<b>XULOSA.....</b>	<b>90</b>

yuridik fanlar nomzodi  
**Gulchehra Sadanovna Tastanbekova**

# **HUQUQNI SHARHLASH**

O‘quv qo‘llanma

*Muharrir S. A. Razzoqov*  
*Texnik muharrir D. R. Djalilov*

Bosishga ruxsat etildi 17. 11. 2016 y. Nashriyot-hisob tabag‘i 6,0  
Adadi 30 nusxa. Buyurtma № .

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,  
1000197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68.